

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIM I
VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK:

**O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI
ASHIRBAEVA NAFISA AMINBAEVNA
«OMON MUXTOR ROMANLARIDA SHAKLIY-USLUBIY
IZLANISHLAR»**

Mutaxassisligi: 5A111201- O‘zbek tili va adabiyoti

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Magistratura bo‘limi boshlig‘i:

f.-m.f.n. dots. B.Atashov

Kafedra mudiri:

f.f.n. S.Matyakupov

Ilmiy rahbar:

f.f.n. K.Tashanov

NUKUS – 2015

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB	MILLIY-ADABIY AN'ANALAR VA HOZIRGI O'ZBEK ROMANIDAGI YANGI TAMOYILLAR.....	12
I. I.	Poetik uslub va ijodiy individuallik.....	12
I. II.	Epik nasr an'analari va yangicha uslubiy izlanishlar.....	22
II BOB	ROMAN POETIKASI VA MIFOPOETIK TAFAKKUR	31
II. I.	Mifologik ishonch-e'tiqodlar va epik bayon.....	31
II. II.	Romanbop rivoyani taraqqiy qildirish tamoyillari.....	37
III BOB	OMON MUXTOR IJOD LABARATORIYASI SIRLARI.....	52
III. I.	Navoiy ijod psixologiyasining poetik inkishofi.....	52
III. II.	Yozuvchining badiiy syujet yaratish mahorati.....	68
	XULOSA.....	74
	Ilova mavzuning amaliyotga tatbiqi.....	78
	ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	83

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Milliy istiqlol yillarida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar adabiy tafakkur tarzini ham keskin yangiladi. Sobiq Ittifoq mafkuraviy tazyiqlaridan qutulib, milliy qadriyatlarni qayta tiklash va haqqoniy baholashga yo'naltirilgan nazariy ta'limot joriy pallada mustaqillik ma'rifati va ma'naviyati uzluksiz ta'siri ostida sezilarli darajada yuksalmoqda. Zotan, respublikamizda «adabiyot masalasi – bu ma'naviyat masalasi»¹ sifatida davlat siyosati darajasida e'tibor topgan.

O'zbek nasri umumadabiyotimizning ajralmas bir qismidir. Yangicha milliy adabiy tafakkur, realistik nasr rivoji XX asr boshlarida qalam tebratgan A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa ijodkorlarga borib taqaladi. Ular yangi davr adabiyotida Evropa adabiyoti mezonini bilan o'lchaganda ham to'laqonli asarlar yaratdilar, realistik yo'nalishga xos xususiyatlarni o'zlashtirdilar. Ularning dunyoni badiiy o'zlashtirishi bir-biridan keskin farq qiladi. Davlat etilgan san'at doirasida realistik adabiyot mohiyatini anglashga, realizm tajribalarini kengroq tarzda barqaror etishga astoydil harakat qildilar. Ijodlarida haqqoniylik, hayotiylik, milliylik tamoyillariga asoslandilar. Tasvirda xolislikni yoqladilar. Hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishda shakliy-uslubiy izlanishlarga xayrixohlik nazari bilan qaradilar. Ijodkor mahorati darajasi va kitobxon saviyasi mutanosibligini nazarda tutdilar. 20-30-yillar o'zbek adabiyoti tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'zbek adabiyoti tarixida realizmning shakllanishi va taraqqiyoti izchil mantiqiy rivojlanish, milliy adabiy estetik tafakkur taraqqiyotining hosilasidir.

Millat ijodkorlarining uyg'oq qalbi, teran nigohi, ichki iroda mayli adabiy-estetik tamoyillarga izchil amal qilishga yo'naltirildi. Shakliy uslubiy izlanishlarga xayrixohlik bilan qaraldi. Turli adabiy oqim va maktablar tajribasini o'rganishga astoydil harakat qilindi. Biroq adabiy siyosat estetik dasturlarning to'la rivojiga imkon bermadi. Fikriy erkinlikni cheklab, estetik

1 Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. Тошкент, Ўзбекистон, 2009. 23-бет

polifoniya va plyuralizmni badiiy idrok va ifodadan siqib chiqara boshladi.

XX asrning 90-yillari istiqlol adabiyoti deb atalmish estetik hodisani yuzaga chiqardi. Milliy adabiyotning 90-yillariga xos xususiyatlar 60-yillaridayoq ko'zga tashlandi, 80-yillarning oxirlariga kelib muayyanlashdi. Biroq biz davr adabiyotiga xos belgilar 90-yillarning o'rtalariga kelib to'liq shakllandi, deb hisoblaymiz. SHak-shubhasiz, istiqlol davri o'zbek adabiyoti, xususan nasri ko'p asrlik milliy adabiyotimizning mantiqiy davomi va merosxo'ridir. Ayni paytda u oddiy xronologik bosqich bo'lmay, tubdan o'zgargan milliy ongning, yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsuli hamdir. U yagona hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, dunyoni har xil anglash, izohlash hamda tasvirlash imkoniyatiga ega bo'lgan millat ijodiy dahosining samarasi sifatida dunyoga keldi. Adabiyotning hukmron mafkura tazyiqidan qutulishi olam va odam ruhiyatiga mansub hodisalarga turli rakurslardan qarashni yuzaga chiqarib, ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi. Ijod erkinligi uchun yaratilgan ob'ektiv sharoit adabiyotni ijodkorning ko'ngil ishiga aylantirdi. Badiiy adabiyot milliy-estetik aktga evrildi. Millat kishisining ruhiyati, hissiyoti, ko'ngli butun murakkabliklari bilan badiiy tadqiq etila boshladi. Insonni asosiy qadriyat sanash, alohida inson shaxsining ma'naviyatini mukammallashtirishga yo'naltirilgan adabiyot shaxsni tadqiq etishga astoydil bel bog'ladi. Badiiy adabiyotimiz qahramonlari o'zining murakkab taqdiri, teran o'y-mulohazalari, nozik kechinmalari bilan o'ziga xos va betakror bo'la boshladi. Badiiy tasvirning chuqurlashgani, inson ruhiyati qatlamlarini nozikroq idrok etish imkonini yuzaga kelgani adabiyotning ommaviylikka emas, yuksak didli kitobxon shakllanishiga xizmat qilishiga olib keldi. Bugungi adabiyotni hamisha ham izohlash, tushuntirish yoxud mantiqiy qoliplarga solish mumkin bo'lmay qoldi. Alohida ijodkorgagina taalluqli bo'lgan badiiy mantiq teran sezimlar va moddiylashtirilgan murakkab kechinmalar bag'rida sizib chiqishi anglab etildi. Ilgarigi bosqichlarga nisbatan tasvirning quyuqligi, inson ruhiyati qatlamlarini aks ettirish miqyosining kengligi va ifoda tarzining favquloddaligi, uslubiy izlanishlarga boyligi bilan 90-yillar nasrini ham milliy adabiyotimiz uchun

o'ziga xos bosqich sanash mumkin.

Zero, istiqlol davri nasri yangi ohanglar hisobiga boyidi. Ifodaning qabariqligi, tasvirning serqatlamligi, mazmunning zalvorliligi, ruhiy holat manzaralarining rang-barangligi, insonni badiiy tadqiq etishga badiiy usullar (bayoni, ifoda etish, ko'rsatish, tasvirlash)ning o'z o'rnini bo'shatib borayotgani bilan alohidalik kasb etadi. Qahramon xayoloti va kechinmalaridagi jarayonlarni tasvir ob'ektiga aylantirish, uni yanada to'laroq ilg'ashga intilayotgani bilan o'ziga xosdir. Millat kishisining fikr tarzi, axloqiy qanoati nafaqat an'anaviy yo'sinida, balki dunyo adabiyotidagi eng so'nggi ifoda usullaridan dadil, samarali foydalanish, an'anaviylik va yangilikni omuxtalashtirish orqali nasrimizga ko'chmoqda. Bir so'z bilan aytganda, istiqlol davri o'zbek nasri «kichik» odamning katta va chigal ichki dunyosidagi behudud poyonsizlikni, turfalikni xilma-xil rakurslarda tadqiq etishga kirishdi. Inson ma'naviyatining serqirra jihatlarini tekshirish, odam ruhiyatidagi ko'z ilg'amas sezimlarni tadqiq etishga urinishda shakliy-uslubiy izlanishlar olib borayotgan o'zbek nosirlarining sezilarli yutuqlari ham, bartaraf qilinishi lozim bo'lgan nuqsonlari ham ko'zga tashlanmoqda. Muhimi, o'zbek nasrida ijodiy uzviylik, davomiylik ustuvor. Milliy nasr taraqqiyotini ta'minlashda turli avlodga mansub ijodkorlar o'ziga xos yo'sinda qalam tebratmoqdalar.

O'zbek nasrining bu bosqichida ijodiy tajribalar qilish, kutilmagan tasvir yo'llarini qo'llash, badiiy ifodaning yangi tamoyillaridan foydalanish etakchi xususiyatga aylandi. Ana shu ilg'or tajriba va yangicha ifoda usullarini adabiy-tarixiy jarayon bilan bog'lab o'rganish ishning dolzarbligini belgilaydi.

Darhaqiqat, istiqlol yillarida falsafiy-estetik tafakkur va adabiy mezonlar tubdan yangilanish yo'liga kirdi. Milliy adabiyotshunosligimiz esa nazariy-metodologik jihatdan yanada teranlasha boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ijodkorning jamiyat hayotidagi o'rni xususida to'xtalib: *“Barchamizga ayonki, XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, biz ilgari ko'rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.*

*Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatning ertangi kunini o'ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zi har qachongidan haroratli har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda*², - degan edi. Bu fikrlar istiqlol yillarida o'ndan ortiq romanlari bilan el ichida tanilgan, Davlat mukofoti sovrindori Omon Muxtor ijodiga ham to'la daxldordir.

Poetikaning muhim kategoriyalaridan biri – badiiy asarning u yoki bu tarzda shakliyl qurilishini belgilovchi umumiy prinsip bo'lgan uslubni o'rganish, keng ma'noda olib qaralganida, alohida ijodkor shaxsini o'rganishdir. Zotan uslub ijodkor shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kategoriya sifatida ijodiy individuallikni belgilaydi. Uslubda namoyon bo'luvchi ijodiy individuallik badiiy asar, demakki roman janrining ham barcha sathlarida, ya'ni badiiy matnning tuzilishi, badiiy voqelikni yaratish tamoyillarida birdek namoyon bo'ladi. Demakki, uslub ritorika va poetikaga daxldordir. Zotan uslub badiiy shaklga xos xususiyatdir. U romandagi shakl unsurlarining muayyan qonuniyat asosida yaxlitlikka birikishini ta'minlaydi. Ayni paytda har bir unurning butun tarkibidagi mohiyati va funksiyasini ham belgilab beradi. Omon Muxtor romanlaridagi jumla tuzish, rivoya tarzi, badiiy detallarning funkcionalligi, syujet qurilishi yozuvchining uslubi, ijodiy o'ziga xosligi bilan izohlanadi. Demak biz ishda individual uslubni tahlil va tadqiq etishni ko'zlaymiz.

SHubhasiz, ishda o'rni bilan Omon Muxtor dunyoqarashi va uslubini shakllantirishga ta'sir etgan ijtimoiy davr, uslubiy yuksalishiga ta'sir etgan badiiy-estetik omillar, yozuvchi bilan adabiy-estetik tamoyillari muayyan darajada yaqin bo'lgan ayrim ijodkorlar uslubi bilan mushtarak jihatlar ham kuzatiladi. Bu hol bizga mustaqillik davri romanlari uslubiga xos xususiyatlarni, ya'ni adabiy jarayon tendensiyalarini ham oydinlashtirish imkonini beradi.

O.Muxtor uslubi adabiy an'analar zaminida tug'ilgan, jahon romanchiligiga

2 Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. Тошкент, Ўзбекистон, 2009.11-12-бетлар

xos ilg'or an'analarni milliy asosda o'zlashtirish natijasida takomillashib borayotgan hodisadir. Binobarin, unda adabiy an'alar davom qilibgina qolmay, muayyan darajada yangilanayotganligi ham aks etadi. Anglashiladiki, O.Muxtor romanlaridagi shakliy-uslubiy o'zgarishlarni o'rganish, pirovardida istiqlool davri adabiy jarayoni, jamiyatimizning badiiy estetik talab ehtiyojlariga alohida ijodkorning munosabati, keng ma'noda esa, zamondoshlarimizning umumma'rifiy va madaniy saviyasi, estetik didlarini o'rganishdir. Tadqiqotning dolzarbligi ana shunday jihatlarida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti: Davlat mukofoti sovrindori Omon Muxtorning «*Ming bir qiyofa*», «*Aflotun*», «*Egilgan bosh*», «*Tepalikdagi xaroba*», «*Ffu*», «*Ayollar mamlakati va saltanati*», «*Uzun yo'lakdagi ikki kishi*» romanlari mavzu tadqiqida material vazifasini o'taydi. Alohida e'tibor Omon Muxtor romanlariga qaratilgan bo'lib, yozuvchining "To'rt tomon qibla" (2000) trilogiyasi va "Navoiy va rassom Abulxayr" (2006) dilogiyasi atroflicha tahlil va tadqiq etildi. Omon Muxtor romanlaridagi shakliy-uslubiy individuallikning namoyon bo'lishi tadqiqot predmetini belgilaydi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat:

- Omon Muxtor romanlari uslubida namoyon bo'luvchi ijodiy individuallikni badiiy asarning tuzilishi, badiiy voqelikni yaratish tamoyillari misolida o'rganish;
- Poetikaning muhim kategoriyalaridan bo'lgan uslubni o'rganishning ijodiy individuallikni belgilovchi omil sifatidagi rolini ko'rsatish;
- Uslubda namoyon bo'luvchi ijodiy individuallikning O.Muxtor romanlari badiiy matnida namoyon bo'lishini kuzatish;
- Uslubning yozuvchi romanlari shakliy unsurlarini yaxlitlikka biriktirish, har bir unurning butun tarkibidagi mohiyati va funksiyasini belgilashdagi rolini aniqlash;
- YOzuvchining ijodiy o'ziga xosligini Omon Muxtor romanlaridagi jumla tuzish, rivoya tarzi, badiiy detallarning funksionalligi, syujet qurilishi bilan

izohlash;

- Omon Muxtor dunyoqarashi va uslubini shakllantirishga ta'sir etgan ijtimoiy davr, uslubiy yuksalishiga ta'sir etgan badiiy-estetik omillarni o'rganish;
- Omon Muxtor bilan adabiy-estetik tamoyillari muayyan darajada yaqin bo'lgan ayrim ijodkorlar uslubini bilan mushtarak jihatlarni qiyosiy yo'sinda tadqiq etish;
- Adib romanlariga xos adabiy an'anaga ergashish va ijodiy individuallikni tadqiq etish;
- Mustaqillik davri romanlari uslubiga xos xususiyatlar misolida adabiy jarayonning ayrim tendensiyalarini oydinlashtirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Ishimizning ilmiy yangiligi Omon Muxtor romanlarining shakl, uslub, an'ana va ijodiy o'ziga xoslik muammolarini poetika va ritorika nuqtai nazaridan ilk marotaba o'rganilayotganida ko'rinadi. Biz mazkur masalani o'rganish orqali adib badiiy mahoratini yoritishga harakat qildik. Ishimizning ilmiy yangiligi shu jihatlarda namoyon bo'ladi. SHuningdek:

- ❖ Milliy-adabiy an'analar va hozirgi o'zbek romanidagi yangi tamoyillar yoritilganligida;
- ❖ Poetik uslub va ijodiy individuallik o'rganilganligida;
- ❖ Epik nasr an'analari va yangicha uslubiy izlanishlar tahlil etilganida;
- ❖ Roman poetikasi va mifopoetik tafakkur masalasi yoritilganida;
- ❖ Mifologik ishonch-e'tiqodlar va epik bayon muammosi tadqiq etilganida;
- ❖ Romanbop rivoyati taraqqiy qildirish tamoyillari o'rganilganligida ko'rinadi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va ilmiy farazlari: Omon Muxtor romanlaridagi ijodiy individuallikni tadqiq qilish orqali yozuvchi poetik mahoratini yoritish imkoni yaratiladi. Omon Muxtor romanlari uslubida namoyon bo'luvchi ijodiy individuallikni badiiy asarning tuzilishi, badiiy voqelikni yaratish tamoyillari, poetikaning muhim kategoriyalaridan bo'lgan

uslubni o'rganish orqali O.Muxtor ijodiy individuallikni belgilovchi omil sifatidagi rolini ko'rsatish tadqiqotning asosiy masalasi bo'lib, quyidagi ilmiy farazlar qo'yildi:

- Ijodiy individuallikning O.Muxtor romanlari badiiy matnida namoyon bo'lishi;
- Omon Muxtor dunyoqarashi va uslubini shakllantirishga ta'sir etgan ijtimoiy davr, uslubiy yuksalishiga ta'sir etgan badiiy-estetik omillar;
- Adib ijodida adabiy an'anaga ergashish va ijodiy individuallik;
- Mustaqillik davri romanlari uslubiga xos xususiyatlarning adabiy jarayondagi ayrim tendensiyalari.

Tadqiqot metodlari: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning milliy g'oya, ma'naviy qadriyatlarga munosabat va ilm fan bilan bog'liq qarashlari ushbu magistrlik dissertatsiyasining metodologik asosini tashkil etadi. Ishda tarixiy-qiyosiy, sotsiologik va analitik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ishlanganlik darajasi: O.Muxtor romanlari adabiyotshunosligimizda M.Qo'shjonov, U.Normatov, S.Sodiqov, Q.Yo'ldoshev, Y.Solijonov, Z.Pardaeva, I.YOqubov, M.Pirnazarova³ singari turli avlodga mansub adabiyotshunoslarimiz tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. SHuningdek, so'nggi yillarda himoya qilingan ko'plab doktorlik va nomzodlik ishlarida muammoning u yoxud bu jihati tadqiq etilgan bo'lsa-da, ularning hech birida muammo ayni tarzda qo'yib, yaxlit tizim sifatida tadqiq etilmagan. SHuning uchun biz ushbu magistrlik ishimizda mazkur masalani tadqiq etishga harakat qildik.⁴

Tadqiqotning ilmiy-nazariy va ilmiy amaliy ahamiyati. Ushbu magistrlik

3 Normatov U. Nasrimiz tamoyillari. –To'şkent: Adabiёт va san'at, 1978; Normatov U. Umidbaxsh tamoyillari. –To'şkent: Ma'naviyat, 2000; Sodik. Sanjar. Ijodning ۇttiz lahzasi. –To'şkent: Sharq, 2005; Pardaeva Z. Ўзбек романи поэтикаси. –To'şkent: Xalq merosi, 2003; Куронов Д. Адабий жараёнда «Мом синдроми», - Тошкент: Академнашр, 2010; Ёкубов И. Ўзбек романи тадрижи. Тошкент, Фан ва технология, 2006.; Ёкубов И. Бадий-эстетик сўз сеҳри. Тошкент: Фан ва технология, 2011 ва бошқалар;

4 Рахимов А. Ўзбек романи поэтикаси. Филол.фанлари д-ри... дисс.автореф. –Тошкент: 1993.; Каримов Х. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар). Филол.фанлари д-ри... дисс.автореф. –Тошкент: 1994.; Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60-80-йиллар). Филол.фанлари д-ри... дисс.автореф. –Тошкент: 1994.; Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Филол.фанлари д-ри... дисс.автореф. –Тошкент: 2002.; Пardaeva З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг тараккиёт тамойиллари. Филол.фанлари д-ри... дисс.автореф. –Тошкент: 2003.

dissertatsiyasi O.Muxtor romanlari uslubini o'rganishga bag'ishlangani bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi. Uning natijalari kelgusida amalga oshiriladigan tadqiqotlar uchun muayyan ahamiyatga ega bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Magistrlik dissertatsiyasining nazariy xulosalaridan oliy o'quv yurtlari va akademik litsey hamda kollejlari, o'rta umumta'lim maktablari uchun "Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti" fani bo'yicha darslik va qo'llanmalar yaratishda, uslubiy tavsiyanomalar tuzishda, talabalarga maxsus kurslar o'qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tajriba - sinov maydoni. Ushbu tadqiqot natijalari va materiallari Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumanidagi akademik litseyda "O'zbek adabiyoti" fanidan, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti «O'zbek tili va adabiyoti» bakalavr ta'lim yo'nalishida "O'zbek adabiyoti tarixi" fanidan ma'ruzalar o'tish jarayonida amaliyotga joriylashtirilgan.

Tadqiqotning sinovdan o'tishi. Dissertatsiya mavzusi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti «O'zbek tili va adabiyoti» fakulteti o'zbek adabiyoti kafedrasida yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi: Dissertatsiyada O.Muxtor romanlaridagi zamonaviy o'zbek va jahon romanchiligiga xos shakliy-uslubiy izlanishlar o'rganildi.

Reja bo'yicha, ilmiy adabiyotlar to'liq yig'ildi, mavjud manbalar bilan tanishildi. Asarlar joriy adabiy jarayon konteksti va adib yaxlit ijodi aspektida o'rganib, tahlil qilindi, shuningdek, kutubxonadan mavzuga oid ilmiy maqolalar topilib, internet ma'lumotlari yig'ildi, ulardan keng foydalanildi.

O'quv rejada belgilangan fanlarni o'zlashtirish asnosida, ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagogik ishlar ham davom qildirildi. Malakaviy amaliyot o'tash jarayonida magistrlik dissertatsiyaga tegishli ilmiy izlanishlarimizni olib borish tajribasini o'zlashtirdik, ilg'or professor-o'qituvchilar tajribasini o'rganib, yuqorida ta'kidlanganiday, kafedraning ilmiy seminarlarida mavzu bo'yicha zamonaviy taqdimot usullarida ma'ruzalar qildik, ochiq darslarda, ma'naviy-

ma'rifiy va tarbiyaviy sohadagi tadbirlarida, majlislarida, ilmiy tadqiqot ishlari muhokamalarida qatnashdik.

Dissertatsiya to'la yozib tugallandi. Dissertatsiyadagi ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar muallif tomonidan e'lon qilingan 4 ta maqolada o'z aksini topgan.⁵

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi: Dissertatsiya tarkibiy tuzilishiga ko'ra kirish, har biri ikkita faslni o'z ichiga oluvchi uchta mustaqil bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

5 Ashirbaeva N. "Omon Muxtorning romanchilikdagi mahorati" // Filologik tadqiqotlar. V Toshkent, Turon Zamin, 2014, 109-111-betlar; Ashirbaeva N. "Omon Muxtor romanlarida uslubiy izlanishlar" // "Salamat bala jilina" bag'ishlangan Jas ilimpazlarning ilmiy maqalalar toplami, Nukus, 2014, 78-79-betlar; Ashirbaeva N. "Omon Muxtor ijodida individuallik" // Istiqol tuyg'usini mustahkamlashda M.Yusuf ijodining o'rni. Ilmiy-amaliy anjuman materillari. Nukus, 2014, 51-54-betlar; Ashirbaeva N. "Omon Muxtor ijodida adabiy mistifikatsiya" // Tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2015, 116-119-betlar.

I-BOB
MILLIY-ADABIY AN'ANALAR VA HOZIRGI O'ZBEK
ROMANIDAGI YANGI TAMOYILLAR

1.1. Poetik uslub va ijodiy individuallik

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston respublikasi Davlat mukofoti sovrindori Omon Muxtor (1941-2013) yili Buxoroda tavallud topgan. O'rta maktabni tugatib, turli gazetalar tahririyatlarida adabiy xodim, O'zbekiston radio va televideniyesi Davlat Ko'mitasi, "O'zbekfilm" hamda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida muharrir, "SHarq yulduzi" jurnalida bosh muharrir o'rinbosari, bosh muharrir lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi.

Uning ijodi o'tgan asrning 50-yillari oxirlaridan boshlangan. SHunga qaramasdan, ijodkorning o'ziga nisbatan nihoyatda talabchanligi, kamtarligi va kamsuqumliligi tufayli bo'lsa kerak, oradan o'n yillar o'tgach, 1966 yilda "CHorlar quyoshli yo'llar" nomli ilk she'riy to'plami chop etildi. O'shandan beri Omon Muxtor shoir, hikoyanavis, qissanavis, romannavis sifatida o'ttizga yaqin kitoblar nashr ettirdi. Jumladan, "Nigoh" (1968), "Qushlar va tushlar" (1971), "SHaharlik kelinchak" (1973), "Buxorolik donishmand" (1973), "Hayot darvozasi" (1978), "Uchqur poezdlar"(1981), "Bolalikka sayohat" (1984), "Vazifa" (1988) singari hikoyalar, qissalar majmualari, "Ohang" (1974), "YOg'du" (1979), "Marvarid" (1985), "SHiddat" (1990) she'riy to'plamlari chop etildi. "Buvim ertak aytadi" (1971), "Kunlardan bir kun" (1985), "Ming yildan so'ng" (1991) singari she'r, ertak va hikoyalar to'plamlari bolalarning sevimli asarlariga aylandi.

Omon Muxtorning romannavis sifatidagi ijodi istiqlolgacha bo'lgan davrda boshlandi. Adib "Yillar shamoli" (1976), "Egilgan bosh" (1989) asarlari bilan mazkur janrning hadisini oldi va ilmiy-adabiy jamoatchilikning nazariga tushdi. Xususan, so'nggi roman o'sha yillardayoq YOzuvchilar uyushmasining yillik mukofotiga sazovor bo'ldi. SHunga qaramasdan, bemalol aytish mumkinki, mustaqillik davrining erkin havolari ijodkor badiiy tafakkur

bulog‘ining mavj bilan qaynashiga, samarali ijodiy izlanishlarining qadrlanishiga sabab bo‘ldi. Zotan, mustaqillikning ilk kunlaridayoq endigina ellik yoshga qadam qo‘ygan yozuvchiga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi faxriy unvoni berildi.

Bunday e‘tibordan beqiyos rag‘bat tuyib ilhomlangan Omon Muxtor “Ming bir qiyofa” (1994), “Ko‘zgu oldidagi odam” (1996), “Tepalikdagi xaroba” asarlarini o‘z ichiga olgan “To‘rt tomon qibla” trilogiyasi (2000), “Ffu” (1996), “Ayollar mamlakati va saltanati” (1997), “Aflotun” (1998), “Maydon” (1999), “Ishq ahli” va “Buyuk farrosh” romanlaridan tarkib topgan “Navoiy va rassom Abulhayr” dilogiyasi (2006), “Odamlar kulishlari kerak” (2008), “Xotin podshoh” (2010) romanlari, sarguzasht-detektiv qissalardan tarkib topgan “SHerlok Xolms Buxoroda” (2008) kabi qator asarlarini kitobxonlarimizga taqdim etdi. Ular mazmunan teran, ko‘lamdor, shakliy-uslubiy izlanishlarga boy, jozibali tilda bitilganligi jihatida g‘oyatda zalvorlidir. SHu ma’noda, biz ushbu bobda adib uslubidagi milliylik va individuallikni alohida kuzatishga intildik. Zotan, uslub va uslubiy izlanishlar mohiyatini teranroq tadqiq etishga intilish, adabiy jarayonni yangicha talqinda o‘rganishdir. Bu esa bizning kunlarimizda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi axborotlar oqimi tezlashgan, san‘atning barcha shakllari muayyan taraqqiyotga erishgan va erishayotgan jadal zamonda inson shaxsi, uning ma’naviy qiyofasi, ruhiyatining butun murakkabliklari-yu, ziddiyatlari, umuman olganda, inson va u bilan bog‘liq bo‘lgan voqea va hodisalarni mukammal tasvirlab berishda adabiyotga hech bir qiyos yo‘q. Qanday davr bo‘lmasin, qay bir ijtimoiy tuzum jamiyatda hokim bo‘lmasin, adabiyotning mavqei, ahamiyati zarracha bo‘lsa-da, tushgan emas.

Hozirgi o‘zbek nasri, xususan, romanchiligidagi har bir ijodkorning o‘ziga xosligini, umuman, badiiy nasr uslubi muammolarini tahlil etish mavjud va yangi uslubiy izlanishlarni sinchiklab kuzatishni talab etadi. Nasrimizdagi shakliy-uslubiy izlanishlarning nazariy asoslarini izlashda romanchiligimizning bugungi qiyofasi va nufuzidan kelib chiqib, adabiy-estetik tajribalarni kuzatish

nafaqat bu sohada dadil izlanayotgan adiblarning mahoratini yoritish, balki, muayyan ma'noda romanchiligimiz istiqbolini chamalashga ham imkon qadar urinishdir.

A.V.Chicherin adabiy asar uslubi zaminida yozuvchi uslubi tug'ilishi, uning o'zligi har bir asarda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi: «...*yo'zuvchining o'zi shunday ko'rsin, shunday o'ylasin, shunday his etsin va uning boshqacha tushunishi, o'ylashi va his etishi mumkin bo'lmasin*».⁶ Darhaqiqat, uslubni aksariyat hollarda oddiy mantiq qoliplari bilan izohlash mushkul va imkonsiz bo'lib qoladi. Bunday hollarda uslub faqat shu ijodkorgagina taalluqli bo'lgan badiiy mantiq qonuniga muvofiq yaratilganligiga diqqat qaratish talab etiladi. Binobarin, chinakam badiiy hodisa o'ziga xos olam va u o'zining qoidalarigagina muvofiq keladi. SHu bois, asl badiiy hodisa bir bor yaraladi, unda takror yo'q. Alohida ruh, muallifning o'zigagina xos nuqtai nazari takrorini taqozo etuvchi qonuniyat qoliplariga sig'maydi.

Badiiy asar uslubi, shakliy-uslubiy izlanishlarning nazariy asoslari bilan bog'liq ayrim masalalar o'zbek adabiyotshunosligida A.Fitrat, I.Sulton, T.Rasulov. B.Sarimsoqov, O'.Nosirov, H.Umurov, H.Boltaboev singari olimlarimizning adabiyot nazariyasidan bahs yurituvchi qo'llanma va risolalarida muayyan darajada yoritilgan.⁷

Rossiyalik adabiyotshunos olimlardan E.Sidorov, M.B.Xrapchenko, G.N.Pospelov, A.N.Sokolov, B.Suchkov, YU.Borev, O.Larmin, L.Novichenko, YU.Surovsev, V.SHklovskiy, V.Dneprov, B.O.Eyxenbaum, P.Medvedov, xorijiy olimlardan Ar.Grigoryan, A.Genis kabi adabiyotshunoslarning qator tadqiqotlarida ijodiy individuallik masalaning u yoki bu jihati o'rganilganligini alohida ta'kidlash lozim.⁸

6 Чичерин А.В. Идеи и стиль. - М.: Сов. писатель, 1968. -287 ст.

7 Фитрат. Адабиёт қондалари. Адабиёт муаллимлари ҳам адабиёт хаваслилари учун қўлланма. - Тошкент, 1926; Султонов И. Адабиёт назарияси. - Тошкент, 1981; Расулов Т. Бадий асар қанотлари. - Тошкент, 1978; Носиров Ў. Ижодкор шахс, бадий услуб, автор образи. - Тошкент, 1981; Умuroв Х. Бадий ижод асослари. - Тошкент, 2001; Болтабоев Х. Наср ва услуб. - Тошкент, 1992; Саримсоков Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. - Тошкент, 2004.

8 Сидоров Е. Время, писатель, стиль.-М.:Сов.писатель,1979; Храпченко М.Б.Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы.-М.:Сов.писатель,1975; Пospelов Г.Н. Проблемы литературного стиля.-М.: МГУ, 1979; Соколов А.Н.Теория стиля.-М.:Искусство,1968; Бoreв Ю. Основные эстетические категории. - М., 1960; Теория литературы. Т.IV (Литературный процесс). - М., 2001; Лармин О. Художественный метод и стиль. - М., 1964; Новиченко Л. Стиль - метод - жизнь // Часть общего дела. - М., 1970; Суровцев Ю. О стилевых течениях и «национальных» стилях в советской

Kezi kelganda shuni ham qayd qilish kerakki, M.Qo'shjonov, H.YOqubov, O.SHarafiddinov, S.Mamajonov, A.Hayitmetov, B.Nazarov, U.Normatov, N.Rahimjonov, N.Xudoyberganov, YO.Ishoqov, I.G'afurov, Q.Yo'ldoshev kabi adabiyotshunos va munaqqidlarning asarlarida ham ijod jarayonining tabiati, psixologiyasi, sirlari o'rganilgan. U yoki bu asarning yaratilish tarixi, poetikasi, yozuvchi badiiy mahorati, uslubi tadqiq etilgan.

SHuningdek, A.Qahhor, Oybek, G'.G'ulom, SHayxzoda, Mirtemir haqida zamondoshlari tomonidan yozilgan xotiralarda ham ijodiy jarayonning xususiyatlari, qisman uslub bilan bog'liq masalalar xususida so'z boradi. H.Qodiriy, S.Ahmad, K.Qahhorova, Z.Saidnosirova, SHukrullo, N.Fozilov, O.SHarafiddinov, R.Inog'omov, E.Vohidov, A.Oripov, O'.Hoshimov qalamiga mansub bir qator asarlar borki, ularda san'atkorning ijodiy tajribalariga xos nazokatlar yoritilgan. YOzuvchi va shoir qismati, iste'dod va talanti, quvvai hofizasi, adabiyot va badiiy ijod haqidagi saboqlari, san'atkorlik mahoratlari haqidagi talay ma'lumot va mulohazalar to'plangan. Bunday tipdagi manbalar ham o'zbek adabiyotshunosligida nisbatan kam o'rganilgan uslub va uslubiy izlanishlar muammosini yoritishimizda bizga yaqindan yordam beradi.

SHuningdek, Omon Muxtor qalamiga mansub publitsistik maqola va qaydlar, davra suhbatlari va xotiralarda ilgari surilgan fikrlar, vaqtli matbuotda ular yaratgan asarlar yuzasidan bildirilgan mulohazalar bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarimizni yoritishda muhim ahamiyatga egadir.

Har bir yozuvchining voqelikni ijodiy o'zlashtirishi uning ijtimoiy-estetik ideali, dunyoqarashi, didi, bilim saviyasi bilan bog'liq zahmattalab, murakkab jarayondir. Professor B.Sarimsoqov san'atkorning o'ziga xos estetik olami haqida to'xtalar ekan: *«Agar u (haqiqiy so'z san'atkori – A.N.) tabiatga uyg'unlikni yo'qotmagan holda o'zining badiiy tabiatini yarata olsa va bu badiiy tabiat real borliqda yaratilishga imkonsiz bo'lsa, bunday ijodkorni*

литературе//Единство. - М.: Худ. лит-ра, 1972; Шкловский В. Связь приемов сюжетосложения с общими приемами стиля//Поэтика. Пг., 1919; Днепров В. Идеи времени и формы времени.- М., 1980; Эйхенбаум Б. О прозе, о поэзии//Худ. лит-ра, 1986; Медведев П. В лаборатории писателя. - Л., 1971; Григорян Ар. Проблема художественного стиля.-Ереван,1966; Генис А. XX асрнинг етакчи услуби//Жахон адабиёти.-2001.-№11. –155-163 б.

haqiqiy san'atkor hisoblash mumkin»,⁹ deb yozadi.

O'zbek adabiyotshunosligida adib uslubi nazariy ob'ekt sifatida teran o'rganilmagan. A.Rustamovning «*Navoiyning badiiy mahorati*» (1979), M.Qo'shjonovning «*Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati*» (1978), S.Mamajonovning «*Uslub jilolari*» (1972), M.Sultonovning «*YOzuvchi uslubiga doir*» (1969), B.Nazarovning «*G'afur G'ulom olami*» (2004) singari asarlarida esa ma'lum bir adib ijodi, uning poetik mahoratini, uslubi hamda tasvirlash san'atini ko'rsatish yo'nalishida tadqiq etilgan. U.Normatovning «*O'ziga xoslik sirlari*» (SH.Xolmirzaev haqida), O.SHarafiddinovning «*Abdulla Qahhor*» singari tadqiqotlarida adib uslubining o'ziga xos tomonlari yoritiladi.

Uzoq yillar badiiy ijodda adib uslubi hamda uning qatida yotgan betakror o'ziga xoslik ma'nolariga, shuningdek, uslubning milliy jihatlariga etarlicha e'tibor berilmagan. Buning o'ziga xos jiddiy sabablari mavjud. XX asrning 20-yillaridan e'tiboran adabiy yo'nalish uslubining o'ziga xos sifatlarini nisbatan kengroq tadqiq qilishga bo'lgan urinishlar kuchaydi. 60-70-yillarga kelib shakliy-uslubiy izlanishlar ham uslubiy yo'nalishlar tendensiyasi orqali o'rganila boshlandi. Davr uslubiga tayyor andozalar asosida yondashildi. CHunki adabiy yo'nalishlar (klassitsizm, romantizm, realizm) haqidagi umumiy fikrlar ham, davr uslubi haqidagi umumlashmalar ham alohida olingan asar uslubi va adibning betakror mahorat qirralarini etarlicha inkishof etishni nazarda tutmaydi.

Muayyan milliy adabiyotdagi uslubiy tajriba va an'ana shu adabiyotga mansub chinakam iste'dodlarning asarlarida, tadqiqotchining istagidan qat'i nazar, zuhur topadi va davom etadi. Zero, individual uslub yorqinligi milliy adabiyot tajribasi, xalq ijodi va o'tmish adabiyoti an'analari, milliy ruh, urf-odat, til xususiyatlariga e'tibor orqali ta'minlanadi.

«Uslub yozuvchining shaxsiy tajribasi, nutq ohangidagi o'ziga xoslikda ko'zga tashlanadi», deb yozadi L.I.Timofeev.¹⁰ U har bir yozuvchi ijodining

⁹ Саримсоков Б.М. Бадийлик асослари ва мезонлари. Тошкент, 2004, 90-бет

¹⁰ Тимофеев Л.И. Основы теории литературы.—М., 1974. —411 ст.

o'ziga xos, betakror g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini, hayot haqidagi konsepsiyasining konkret badiiy ifodasini «uslub» atamasi bilan izohlaydi. Adabiyotshunos S.Mamajonov fikricha, uslub idrok va ifoda qilish mushtarakligida namoyon bo'ladi.¹¹ «*Individual uslub*, deb yozadi N.SHukurov, *ijodkorning voqelikni o'zicha idrok etishi, voqea-hodisalarni o'ziga xos obrazlar va ifoda-tasvir vositalari bilan aks ettirishidir*».¹²

Badiiy asar o'zida ijodkor shaxsini ifodalar ekan, buni uslubda namoyon etadi. YOzuvchining jumla tuzishi, rivoya qilish manerasi, badiiy detallar funkcionalligiga ahamiyat berishi, syujet qurilishini shakllantirishi uslub va o'ziga xoslikka shubhasiz ta'sir ko'rsatadi. Zero uslub yozuvchining o'z davri voqea-hodisalariga faol munosabatini ham qamrab oladi. Bu hodisa o'z navbatida ijodkor originalligiga, uning boshqa yozuvchilardan farqini ko'rsatuvchi omilga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. O'z uslubiga ega muallifgina san'atkor yozuvchi bo'la oladi. Har bir yozuvchi faqat o'z uslubi – o'ziga xos ijodiy qiyofasi, o'z ovozi bilan adabiyotning umumiy xazinasiga hissa qo'shadi. Biroq bu o'ziga xoslik uning o'z davri bir qator ijodkorlari bilan hayot materialini tanlash, uni badiiy idrok ila baholash tamoyillarida, asarning badiiy shakl xususiyatlari, davr uslubi jihatlari masalasida tipologik umumiyliklarga ham ega bo'lish mumkinligini inkor etmaydi. Xuddi ana shu umumiy tipologik xususiyatlar adabiy jarayon va badiiy tafakkur taraqqiyotining muayyan bosqichini anglash, tahlil etish imkonini kengaytiradi.

Adabiy asarning shakl va mazmuniga uslubni belgilovchi xususiyatlar singib ketadi. Bu xususiyat belgilari mavzu, g'oya, syujet, konflikt, kompozitsiya, badiiy til, badiiy tasvir vositalari, poetik sintaksis, ritmik-intonatsion unsurlarda namoyon bo'ladi. YOzuvchining o'zligini uning dunyoqarashi, adabiy-estetik konsepsiyasi, badiiy fantaziyasi, iste'dod salohiyati, estetik ideali, hayot materialini qalb prizmasidan o'tkazish qobiliyati va badiiy to'qimaga singdirish mahorati, janr imkoniyatlaridan foydalana olish,

11 Мамажонов С. Услуб жилolari. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. 80- бет

12 Шукуров Н. Услублар ва жанрлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. 7- бет

soʻz tanlash sanʼati, ifoda usulida kuzatish mumkin.

Adabiyotshunos D.Quronov toʻgʻri taʼkidlaganiday, «roman markazida shaxsning hayoti, uning zaruriyatlari-yu toʻqnashuvlari turadi.. Epik butunlikni tiklashga intilayotgan shaxs deganimiz ijodkorning oʻzi»¹³ dir.

YOzuvchi oʻz mahoratini tinimsiz oshirib borar ekan, tajribalarga tayangan holda, taʼbi va qobiliyatiga muvofiq tarzda uslub, badiiy shakl borasida izlanadi, yangi ijodiy tajribalar qilishga urinadi. Kitobxonning aksariyat hollarda anʼanaviy shakllarga moyilligi yangicha ifoda tarzini birdaniga maʼqullashi, tushunishiyu anglab etishini mushkullashtiradi. Badiiy tafakkur taraqqiyoti kitobxonning oʻsib, yangilanib boruvchi talabi shakliy yangilikni taqozo etadi. Bunday yangiliklar adabiy jamoatchilikda fikrlar xilma-xilligini keltirib chiqaradigina emas, jiddiy bahs-munozaralarga ham sabab boʻladi.

Bugungi kunda anʼanaviy andozalardan qochish, ommaviy kitobxon saviyasidan baland turish, yangicha uslubda qalam tebratishga intilish kuchli. Chunki, bunday izlanishlarni tushunadigan, estetik didi yuksak kitobxonlar shakllangani ijodiy izlanishlar zaruratini kuchaytiradi. A.Qodiriy taʼbiri bilan aytganda, ularning «*ragʻbatini mumkin qadar yangilikka tort*»moq, davr kitobxonining zavqi, saviyasi, adabiy didini hisobga olish nihoyatda muhimdir.

CHinakam isteʼdodli adiblar kitobxon didini koʻtarishga astoydil harakat qilmoqdalar. Hozirgi kitobxon uslubiy-kompozitsion voqea- bandlik, anʼanaviy syujet tuzilishi va izchil tahlil, tasvirning maksimal aniqligidan koʻra borliq ijodkor qalb prizmasidan oʻtkazilib hissiy qabul qilingan, fikr-tuygʻular tasvirida zamon va makon kengligi, muammolar gormoniyasi aks etgan asarlarga koʻproq qiziqmoqda. Adabiyotshunos H.Boltaboevning yozishicha: «*Bu uslubiy hodisaning ildizlari SHarq adabiyotining qadimgi lirizmga boyligi, yuksak romantik talqinda aks ettirilgan xalq ijodi namunalari va boshqalarga borib taqaladi*».¹⁴ Bu fikrga qoʻshimcha ravishda, oʻzbek kitobxoni badiiy didiga Gʻarb va jahon adabiyotidagi tajribalarning taʼsir etishi ham muayyan rol

13 Quronov D. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ НМК, 2004. 216 -бет

14 Болтабоев Х. Наср ва услуб. –Тошкент: Фан, 1992. 15 6-бет

o‘ynamoqda, deb ta’kidlagan bo‘lar edik.

Aksariyat adiblar romanlarda og‘zaki adabiyot an‘analari afsona, rivoyat, ertaklarga xos jihatlaridan, shartli usul va vositalardan unumli foydalanmoqdalar. Badiiy tasvir tizimidagi shartli obrazlilik, majoz va ramz vositalaridan foydalanib yozuvchi niyatining badiiy asarga ko‘chirilishi muhim uslubiy belgidir. U inson ruhiy olamining teran qatlamlarini kashf etish, hayotiy muammolar mohiyatini ifodalashda ulkan ahamiyat kasb etadi.

Milliy ruhdagi axloqiy-ma’rifiy qadriyatlarga yaqinlik adabiyot va san’atimizning rang-baranglashuv yo‘nalishini ham belgilab beradi.

Texnologiya va globallashuv jarayonining shiddati nafaqat turmush tarzini, balki tafakkurning shakl va yo‘nalishlari – olamni idrok etish tarzini ham yangiladi. Inson ruhiy holatining mazmun-mohiyatini botinan idrok qilish ijodkorlarni hayotga yangicha nigoh bilan qarashga undadi. XX asrda yuzaga kelgan modernizm uslubi an’anaviylikdan tubdan farq qiladi. Chunki unda tasvirlanayotgan ob’ektning aynan o‘zi emas, balki unga nisbatan his etilgan kechinmalar aks etadi. Yozuvchining sinchkov nigohi voqelikning shakl-shamoyilini emas, botiniy mazmun-mohiyatini ko‘rib, idrok etadi. Dunyoni an’anaviy fikrlashdan ko‘ra qalban (bavosita) idrok etish yangicha tasviriy vositalar bilan yoritishga da’vat etadi.

Aleksandr Genis ob’ekt emas, balki sub’ekt bilan astoydil shug‘ullanishni *«Modernizm san’atda Kopernikka xos tub burilish qildi»*,¹⁵ deb baholaydi. Modernizm uslubi ob’ektga munosabat va uni ifodalash usullarini tamomila yangilab, muallif tasavvuridagina mavjud voqelikning rang-barang talqinlarini yuzaga chiqardi. U dunyoni turli sub’ektivizmlarning kurash maydoni sifatida aks ettira boshladi. Modernizmning o‘ziga xos idrok etish xususiyati shundaki, bu murakkab san’at kitobxondan faol hamkorlikni talab etadigan zamonaviy ijodiy uslubdir. U tayyor mahsulot emas, balki kitobxon idroki va tasavvurida qayta unib, hosil beruvchi xosiyatli urug‘ taklif etadi.

15 Генис А. XX асрнинг ertaки услуби. // Жаҳон адабиёти. 2001 йил, №11. 157- бет

San'atkor ko'lamining miqyosi bunyodkorlik, yaratuvchilik bilan bog'liq ekan, faqat an'analarga ergashib yangiliklar ijod etish mushkul. Ijodkor jamiyat intilishlari va hayot shafqatsizliklari, olomon izdihomidan farqliroq fikriy ijod va yaratuvchanlik nuqtai nazarida turadi va shu nuqtai nazarni ilgari suradi. Bu hol badiiy fikr talqinida ham muayyan keskinliklarni keltirib chiqarishi tabiiydir. A.Genis ta'biri bilan aytganda: «*SHoir faqat badiiy tafakkurning xayol etmas ufqlari quchog'idagina o'zini bamisoli Yaratgan Egamday his etishi, bamisoli sayyoralariday xayol etmas kengliklar bo'ylab sayru sayohat qila olishi mumkin*».¹⁶

San'at va adabiyot azaliy qadriyatlar tantanasiga ishonch, dunyoni uyg'un holatga keltirishga urinish, turmushdagi boshboshdoqliklarni muayyan tartib-intizomga solish yo'lidagi ijodkor inson qalbining to'liqlanish-tebranishlari tasviri, ifodasidir. SHu bois ham chinakam san'at asari turmush tarziyu o'y-fikrlari yakrang bo'lgan olomon falsafasi bilan hech qachon murosa qila olmaydi, hammaboplikni yoqlamaydi.

G'arb modernizmi o'z badiiy tafakkuri va madaniyati uchun yangi ma'naviy negizni izlash jarayonida XX asrning fojiaiviyligini o'ta teran idrok etib, ilm-fanni din bilan, o'tmishni kelajak bilan bog'lash orqali yangi uyg'onish davriga chiqish, dunyoni muqarrar halokatdan qutqarish yo'llarini qidirdi. Natijada G'arbning yangi qiyofasini kashf etish sari yangi qadamlar tashlandi. Asr talablariga javoban inson qismatining yangi talqinlari berildi. Taraqqiyotga yangi mazmun-mohiyat berish bilan – siyosiy, ijtimoiy, shaxsiy hayotni ma'naviyat, ma'rifat bilan uyg'unlashtirishga astoydil harakat qilindi.

«*Ayni lahza*»ning mangulikka daxldorligi, uning makon va zamondan xoli ilohiy mazmun-mohiyat kashf etishi g'oyasi mumtoz romanchilik asosini tashkil etuvchi yaxlitlikdan voz kechish, kompozitsiyani yangilashga olib keldi, obrazlar tizimini murakkablashtirdi.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, SHarq odami yaralishidan boshlab

¹⁶ Генис А. Уша жойда, 158- бет

taqdirga bandi ekanligini teran anglaydi. Aynan shu jihati bilan o'z taqdirini yaratishga intiluvchi G'arb kishisidan farqlanadi. Bizning adabiyotimiz qahramonlari o'z qismatining Yaratganning qo'lida ekanligini biladi, o'z-o'ziga qismat tayin etishdan ko'ra ko'proq qanoatga, itoatga intiladi. Boshqacharoq aytganda, ularning qalbida Ollohga sobit e'tiqod bor. SHarqona umidvorlik va G'arbga xos insoniy aqlga ishonch bir-biridan keskin farqlanadi. SHu ma'noda G'arb estetik tafakkuriga xos modernistik izlanishlar bizning umidbaxsh gumanizmga tayanuvchi ma'naviyatimizga ziddir. Biroq shunga asoslanib jahon adabiyotiga ko'plab go'zal asarlar bergan modern yo'nalishga ergashib alohida odamning tuyg'ularini teran tahlil etishga intilayotgan o'zbek adiblarining asarlarini inkor qilish ham durust emas. Zero prof. Q.Yo'ldoshev to'g'ri ta'kidlaganiday: «Fikr va ruhning yangilanishi estetik qarashlarning ham tozarishiga olib keldi... Modernizmda oldin orttirilgan tajribalarni takrorlamaslik asosiy belgiga aylanadi».¹⁷

O'zbek modernizmi uchun esa davr kishisi e'tiqodini yangidan to'qiladigan afsona-rivoyat asosida tiklash ehtiyoji yo'q. SHu bois ham o'zbek romanlarida mudroq qadimiy an'analarni tiklash, insoniyatning azaliy makoni bo'lgan koinotga intilish g'oyasi, inson botinini tasvirlash va ifodalashdagi mumtoz adabiyot tasviriy – ifoda vositalarini qo'llash orqali ilgarilash kuzatiladi. Uslubiy o'ziga xoslikni ana shu jihatlardan izlash bizningcha nihoyatda muhimdir. Zero, o'zbek modernizmi keyingi o'n yillikdagina muayyan adabiy hodisa tusini oldi.

Binobarin, uning jahon adabiyotidagi oqimlar bilan mushtarak va o'ziga xos jihatlari bo'lishi tabiiydir. Nasrdagi milliy uslub alohida asarlar, adiblar ijodi timsolida uzluksiz tadrijiy rivojlanishda bo'lgan. Uning taraqqiyotiga davr taloto'plari, adabiy siyosati, mafkurasi ba'zan salbiy ta'sir etgan bo'lsa-da, iste'dodli adiblar o'z estetik prinsiplariga, asosan, sodiq qolib, samarali izlanishlar olib bordilar.

¹⁷ Йўлдошев Қ.Ўзбек модерн адабиёти: илдиэлар, принциплар ва хусусиятлар //Филология масалалари. 2004 йил, №2-3. 4-бет

1.2. Epik nasr an'analari va yangicha uslubiy izlanishlar

Jahon adabiyotshunoslik fanidan ma'lumki, roman janri tabiatan sinkretik xarakterga ega. U folklor an'analari bilan uzviy aloqadorlikda taraqqiy etadi, milliy-adabiy zamindan oziqlanadi. Zero, milliy o'zlikni namoyon etuvchi belgilar badiiy tafakkur taraqqiyotida saqlanishi juda zarurdir. Badiiy adabiyot, xususan, romanchilik o'z ichki qonuniyatlari asosida betakror qiyofasini namoyon etadi. An'ananing janr taraqqiyotiga ta'siri keng va murakkab mavzu. Biroq, milliy romanning bugungi taraqqiyotini ta'minlayotgan shakliy-uslubiy izlanishlar mohiyatini anglashda folklor an'anasining o'rni va roli ularning o'zaro munosabatlarini kuzatish orqali ham oydinlashadi. Mazkur masalani o'rganish nasrning etakchi janri bo'lmish romanning milliy chegarasi, borliqni falsafiy estetik idrok etish imkoniyatlarini shakllantirishdagi fikriy ildizlarini aniqlash imkonini beradi.

Azal-azaldan folklor asarlarida yuksak ma'naviy-axloqiy tuyg'ularni e'zozlash, pok muhabbat, mehr-vafo, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, fidoiylilik, jasurlik, ozodlik, erk g'oyalari ulug'langan. Ayni paytda, jaholat, haqsizlik, jabr-zulm, munofiqlik, xudbinlik, riyokorlik, tanballik, xoinlik singari sifatlar badiiy inkor etilgan. Mohiyat e'tibori bilan badiiy ijodning bunday xususiyati zamon va makon chegaralarini ancha kengaytiradi. Barcha zamonlarda badiiy tafakkur taraqqiyotiga ehtiyoj seziladi. Demak, shu asosda muayyan darajada folklorning ham, yangi davr romanining ham vazifalari ko'lami va mohiyat-mantig'ini aniqlash mumkin. Anglashiladiki, janr badiiy taraqqiyoti, dastavval, milliy adabiyotning ichki imkoniyatlari doirasida ta'minlanadi.

O'zbek romanining shakllanishi va rivojini folklor bilan munosabatda, milliy adabiy zamin bilan aloqadorlikda o'rganish bo'yicha adabiyotshunosligimizda muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan.¹⁸ SHuningdek, yozuvchilar ijodini folklor bilan bog'liq holda tadqiq etilgan, yozma adabiyot va xalq ijodi

18 Мирвалиев С. Ўзбек романи. –Тошкент: Фан, 1969; Абдулхамидов А. Фольклор ва миллий роман.// Ўрта Осиё ва Қозоғистон халқлари адабиётидаги роман жанрини типологик ўрганиш. –Тошкент: Фан, 1991. –30-48 б; Собиров О. Ўзбек реалистик прозаси ва фольклор. -Тошкент, 1979; Мўминов Ғ. Прозамиз тараққиётида фольклорнинг роли// Ўзбек тили ва адабиёти, 1978, №2; Мўминов Ғ. Ҳозирги ўзбек прозасида бадий изланишлар. Китобда: Ҳозирги ўзбек адабиётининг миллий ўзига хослиги. –Тошкент: Фан, 1984. ва бошқалар.

munosabatlari syujet, motivlar va ayrim obrazlarning yaqinligi bo'yicha kuzatilgan, folklorizm muammosi janrlar taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'rganilgan qator maqola¹⁹, risola²⁰ va dissertatsiyalar²¹ yaratilgan. Lekin ancha teran mulohazalar mavjud ekaniga qaramay, ularda bevosita uslubiy ta'sir va aloqadorlik masalasi maxsus va genetik yo'sinda tadqiq etilmaydi. Dissertatsiyamizga ob'ekt qilib olingan adiblar ijodi va romanlari misolida esa bu muammo deyarli tadqiq etilmagan. E'tirof etganimiz ishlarda e'tibor ko'proq katta avlod yozuvchilari ijodiy tajribalariga qaratiladi. A.Qodiriy, Hamza, A.Qahhor, YAshin, G'.G'ulom, Oybek, O.YOqubov asarlari tahlil etiladi. O'rni bilan N.Aminov, T.Murod, Z.A'lam qissalaridagi ijodiy izlanishlar samaradorligini ta'minlagan omillardan biri xalq va uning ijodiga yaqinlik ekanligi qayd etiladi. O.YOqubovning «Ko'hna dunyo» (1983) romani yaratilganiga ham o'ttiz yil bo'ldi. Bu davr ichida o'zbek romanchiligi qator yangi nomlar hisobiga boyidigina emas, shakliy-uslubiy izlanishlarda ham sezilarli siljish sodir bo'ldi, janr imkoniyatlari ancha kengaydi. Uning yangi-yangi qirralari namoyon bo'lmoqda.

Roman janri taraqqiyotida folklor an'anasining ta'siri mavjudligi shubhasiz ekan, bu hol barcha milliy adabiyotlarga xos tipologik hodisa, buni shunchaki tasdiqlashni emas, balki bu masala janr imkoniyatlari va uslub rang-barangligini ta'minlash yo'llari har bir muayyan davrda o'ziga xos kechishini kuzatish, tadqiq qilishni ham talab etadi. Bu, albatta, har bir xalq adabiyotining rivojlanish darajasi bilan, uning ichki imkoniyatlari, ijodkor iste'dodi, folklor namunalari badiiyatini o'zlashtirishi, uning imkoniyatlarini nechog'liq his qilib, amaliyotga tatbiq qila bilish mahorati bilan bog'liqdir. SHu ma'noda adabiyotshunoslikda amalga oshirilgan tadqiqotlar konkret ijodkorlarning xalq og'zaki badiiy ijodidan o'z badiiy-estetik tafakkuri doirasida ta'sirlanishi,

19 Саримсоков Б. Фольклор ва адабиёт муносабатларидаги акс жараёнинг ҳозирги аҳволи.// «Ўзбек тили ва адабиёти», 1988, №6 –24-27 б; Болтабаев Х. Шартлилик табиати ҳақида// «Ўзбек тили ва адабиёти», 1981. №5 –34-38 б; Ёрматов И. Стилизация характеридаги фольклоризмлар.// «Ўзбек тили ва адабиёти», 1984, №3 –31-35 б; Ҳозирги ўзбек лирикасидаги синтезлашган фольклоризмлар хусусида// «Ўзбек тили ва адабиёти», 1985, №2 –35-39 б.

20 Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижоди. –Тошкент, 1974. Собиров О. Сарчашма адиб ижодида. –Тошкент: Фан, 1975.

21 Ёрматов И. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси поэтикаси. Филол. фанл. доктори дисс...автореф. –Тошкент, 1994; Мўминов Ф. Ҳозирги ўзбек адабиётида фольклоризм. Филол. фанл. доктори дисс...автореф. –Тошкент, 1994.

shakliy – uslubiy izlanishlarida aks ettirishi masalasini o‘rganishda o‘ziga xos nazariy-metodologik tayanch vazifasini o‘tashi shubhasiz.

Xalq og‘zaki ijodining epik janrlari: epos, doston va ertaklar romanga xos epik tafakkur shakllanishi uchun zamin bo‘lgan. Bunday an‘anaga asoslanish, yohud undan ta’sirlanish nafaqat XX asr boshlaridagi romanning shakllanishi davriga, balki janr takomilining keyingi bosqichlariga, jumladan, tadqiqot ob’ektimiz bo‘lgan romanlar uslubiga ham xos xususiyatdir. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, romanchilik tajribasida folklor janrlari, xususan ertakning ta’siri uzoq davr davom etishi o‘zbek romanining milliy o‘ziga xosligini ta’minlab, imkoniyatlarini ancha kengaytirar ekan.

Ma’lumki, o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi janrlaridan biri bo‘lgan ertakning yuzaga kelishi va shakllanishida hodisalarni xayoliy shakllarda ifodalash muhim rol o‘ynagan. Dastlabki ertak namunalarida didaktika, keyingilarida esa ijtimoiy ma’no chuqurlasha borgan. Zulm va zo‘rligni qoralagan ertak ijodkorlari muhim ijtimoiy-tarixiy ahamiyatga molik xulosalar chiqara olishgan. Tafsilot va motivlarning xayoliy va hayotiy to‘qimalar qobig‘ida berilishi turli xil zamon qatlamlariga doir axloq va odobni ulug‘lash imkonini bergan. Adabiyotshunoslikda rus ertagi materiali misolida sehrli ertaklarning syujet-kompozitsion tarkibi, shakli, tipologik xususiyatlari V.YA.Propp tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan.²² Uning nazariy xulosalari SHarq ertagi poetikasi va syujet tarkibini o‘rganishda ham yaqindan yordam beradi. O‘zbek ertagining o‘ziga xos janr xususiyatlari va belgilari folklorshunos olimlar M.Afzalov, K.Imomov tadqiqotlarida batafsil yoritilgan.²³ B.Sarimsoqovning ta’kidlashicha, tarixiy-adabiy jarayon dinamikasi ayrim janrlar semantikasining kengayishiga imkon beradi.²⁴ Bu fikrni nafaqat tarixiy-folkloriy jarayonga, balki bugungi adabiy jarayonga nisbatan ham qo‘llash mumkin. SHu orqali barqaror an‘anaviylikning tadrijiy takomili, individual

22 Пропп В.Я. Морфология сказки. –М.: Наука, 1969. (издание 2-е); Трансформация волшебных сказок.–Сб. «Фольклор и действительность» –М., 1976.

23 Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. –Тошкент, 1964; Имомов К. Ўзбек сатирик эртаклари. –Тошкент, 1974; Ўзбек халқ прозаси. –Тошкент: Фан, 1981.

24 Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси. Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. –Тошкент: Фан, 1981. 97- бет

mahorat, janrlararo munosabatlarning ilgarilanma harakatini anglash imkoni tug'iladi. Zero, muayyan janrga xos xususiyatlarni «... poetik strukturasi nisbatan takomillashgan, voqelikni aks ettirish imkoniyati boyroq bo'lgan janrlar o'ziga qamrab olishi, o'z tarkibiga singdirib yuborishi mumkin».²⁵

«Ming bir qiyofa» romanining asosiy mezoni bo'lgan milliylik va umumbashariylik leytmotivi badiiyatning ham, emotsionallikning ham yuksalishiga ta'sir qiladi. Adabiyotimizning o'ziga xos an'anasi bo'lgan ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy kurashda biri ulug'lanib, ikkinchisi rad etiladi.

Ko'zlarida mehr-shafqat nuri yog'ilib turgan, iymon-e'tiqodli oddiy bir inson Burhon SHarif ezgulik himoyasiga astoydil bel bog'laydi. Uning tabiatida kibrlanish, bandasining qarshisida bosh egish, unga sig'inish xususiyatlari yo'q. Burhon SHarif insonlik burchini ado etmoqni muqaddas sanaydi, kam-ko'stsiz ado etmoqqa intiladi. Nosir bu milliy xarakterda haqiqatparvarlik, mardlik, mag'rurlik, haromdan parhez qilish, vijdonlilik xislatlarini jamlaydi. SHu bois ham xarakter xatti-harakatiga munosabatini aniq ifoda etadi.

Darhaqiqat, romanda muallifning xolis nutqi tarixchi-publitsist sifatida, qahramon tashqi faoliyatini, xatti-harakatini, ichki tuyg'ularini, voqealar jarayonini ifodalashda keng o'rin tutadi. Uning yashirin munosabati sezilib turadi. CHunki, O.Odinsov aytganiday, «ob'ektivlashtirilgan neytral nutq-rivoyada yorqin til bo'yoqlari bo'lmasligi, aniq manzaralarda badiiy bo'yoqlarning kamayishiga, ayni paytda muallifning nutqiy faoliyatda munosabatini aniq ifodalashga olib keladi».²⁶ Arastuning ta'kidlashicha, «Komil kishilar bir xil bo'ladi, yomonlar esa har xil bo'ladi».²⁷ Biz shu aqidadan kelib chiqsak, romanda ming xilda evriluvchi yomon kimsalarning kirdikorlarini ko'rsatish maqsadi birinchi planga chiqqanligi oydinlashadi. Biroq O.Muxtor bir-birini rad etuvchi ezgulik va razolat o'rtasidagi kurashni ko'rsatishda turlicha munosabatlar jarayonini ham, ikkala tomonning chambarchas bog'liqligini ham,

25 Саримсоков Б. Ўша жойда. 101- бет

26 Одинцов О. О языке художественной прозы. –М.: Наука, 1973. стр. 28.

27 Юлдашев С. Антик фалсафа. –Тошкент, 1999. 126- бет

ba'zan ularning o'zaro bir-biriga o'tib turishi konkret insonda qorishiq holda uchrashini ham nazardan qochirmaslikka urinadi:

«Menga xiyla qiyin bo'ldi... Men har gal bir-biriga o'xshamaydigan roman yozishga urindim. Va ma'lum darajada bunga erishdim ham, deb o'ylayman. Ularning barchasida inson tafakkurining muayyan qirralarini yoritishga urindim va ayni paytda adabiyotda an'ana bo'lib kelgan ijobiy va salbiy qahramon tushunchalaridan kechdim. Insonning o'zida hammasi – ezgulik va yovuzlik mujassam, degan qadim SHarq falsafasiga tayandim. Mana, eslasangiz, «Ming bir qiyofa»da Abdulla Hakim – gunohlari bor va ezgu ishlari ham ko'p. Burhon SHarif ham xuddi shunday. Hech qaysi bir qahramonim yuz foiz ijobiy yoki salbiy emas»,²⁸ deb yozadi muallif.

Roman qahramonlaridan biri Sadirjon aytganiday, Burhon SHarif «o'zini qo'rqmay ajdahoning og'ziga uradi», «yovuzlikka qarshi ochiqdan-ochiq kurashga chiqadi». U adolatli qonunlarning buzilishiga qarshi jasorat bilan kurashadi, xalq taqdiri haqida qayg'uradi. Nazarimizda, O.Muxtor bu obrazni chizishda xalq eposlariga xos afsonaviy yakka qahramonlar obrazidan ham ijodiy foydalangan. Binobarin, insoniy muhabbat, erksevarlik, do'stga sadoqat, aql-zakovat va iste'dodda yuksaklik, ilm-hikmatni egallashga ishtiyoq, dushmanga cheksiz nafrat, mardonavorlik, fidokorlik kabi tuyg'u-xislatlarning bir kishi tabiatida umumlashishi eposga xos xususiyatdir.

Burhon SHarif odamlarga yaxshilik qilib, ularni ezgulikka da'vat etgan, ularga mehr bilan qaragan, shu yo'lda kurashgan, nopok kimsalarning jazolanishiga erishgan. Biroq u azal-azaldan inson qonida, tiynatida mavjud yovuzlikning qarshisida ojiz bo'lib qoladi. Uning o'zida ham ichki bir alam-adovat, qizg'anish tuyg'usi mavjud. Umrining o'ttiz yilini u o'z-o'zi bilan kurashib o'tkazgan. Umr intihosida Burhon SHarif Abdulla Hakim ruhiga xiyonat qilgani, uning kundaliklarini e'lon qilish imkoni bo'la turib, bu ishni paysalga solganligini e'tirof etadi. So'zda sobit turmaslikni ham xiyonat, yovuz

28 Омон Мухтор. Тўрт томон қибла. –Тошкент: Шарқ НМК, 2000. 418- бет

jinoyat deb baholaydi. Tabiatan olijanob bo'lgani uchun ham: *«Mening har xil yovuzlar, korchalonlardan farqim nima?! Inson qayta tirilib, u dunyoda ko'rishadigan bo'lsa men Abdullaning yuz-ko'ziga qanday qarayman?!»* (162-bet) deb oxiragini o'ylaydi. O'z harakatlaridan tegishli xulosalar chiqarib ogohlikka da'vat etadi. Demakki, dunyoda u ishongan, o'zicha to'g'ri deb o'ylab yashagan e'tiqodidan boshqa haqiqatlar ham borligini anglab etadi.

Abdulla Hakim yoshlikdan ota mehriga zor, beva onasi qo'lida o'sgan yolg'iz farzand. Endilikda onasidan ajralgan, sevgilisiga eta olmagan. Dunyodan ko'ngli sovigan. Hatto bola-chaqa ham orttirmagan. Ijara uyda yashaydigan va eyish-ichishining tayini yo'q. Ba'zan qattiq ichishdan ham tiyila olmaydigan oddiy bir xizmatchi. Biroq shu kishi ikki tomchi suvday Burhon SHarifga qiyofadosh. Bir jihati shu sabab, ikkinchidan, Abdullaga rahm qilib Burhon SHarif uni ukasi o'rnida ko'radi. Uning ahvolini tushungani uchun, ba'zan sahovat ko'rsatib, o'z o'rniga ziyofatlarga borib qorinni butlab olishni maslahat beradi.

Burhon SHarifning haqiqatparvarligidan cho'chigan nopok kimsalar qo'liga yanglishib tushib qolgan qiyofadoshi unga xiyonat qilishni istamaydi. Nohaqlikka nisbatan qalbida tug'ilgan g'azab va nafrat unga jur'at va dadillik bag'ishlaydi. Ezgu ishlar bilan mashg'ul Burhon SHarifni qilgan yaxshiliklari evaziga zolimlardan asrab qolish, umrida biror marta fidoyilik ko'rsatishga ahd qilgan Abdulla Hakim uni Burhon SHarif gumon qilayotganlarga haqiqatni oshkor qilishni istamaydi: *«Sendan hayot umringda, bir marta fidoiylik, mardlik ko'rsatishni talab qilyapti! Tizzang qaltirab o'tirishga haqqing yo'q! Gap shu... kelinglar, hunarlaringni ko'rsataveringlar – men Burhon SHarifman!...»* deydi u (19-bet).

Abdulla Hakim tinimsiz azob-uqubatlarga o'zini tutib bermay, *«Birodarlar, kechirasizlar anglashilmovchilik bo'lyapti. Men Burhon SHarif emasman»*, deyishi ham mumkin edi. Lekin u bunday qilmaydi. O'zini nomardlarcha tutayotgan kishilarga haqiqatni aytishni ep ko'rmaydi. «Dushman»lari irodasiga bo'ysunishni Burhon SHarifga nisbatan xiyonat, vijdon amriga illo nish deb

biladi. Do'stga bo'lgan sadoqatni poymol etib jonni omon saqlashni astoydil istamaydigina emas, dushmaniga bo'lgan cheksiz nafrati tufayli ham sir boy bermaslikka tirishadi.

Abdulla Hakim azob-uqubatlarga chidash uchun jasoratni o'z ruhi va tafakkuridan oladi. SHu bois ham vaziyatga qarab oqilona harakat qila oladi. Uning axloqidagi bu go'zal sifat aniq faoliyat orqali namoyon bo'ladi. Muhimi, u o'z irodasiga qarshi bormaydi. Qolaversa, azobga bardosh berishga bo'lgan ichki intilish ham uni jasur bo'lishga undagan omillardan biridir. Abdulla Hakim qalbidagi or-nomus, g'urur tushunchalari oyoqqa qalqib, *«tomirlariga o'tli bir qon quyulib»* (19-bet), nafaqat nomardlarcha bosh egishni, balki o'zining xarob ahvolini sezdirishni ham nomus deb biladi. Binobarin, u o'zini, o'zligini xor qilmaydigan shaxs.

«U – boshi aylanib, ko'zi tingan, hammayog'i qon edi. Ammo dunyodagi butun-bor nohaqlik, nomardlikka qarshi beixtiyor tug'yonga kelganida, erda yotishni or bilib, o'rnidan turgancha, qaddi-qomatini tiklashga chog'landi. SHu asno uning boshiga to'qmoqdek bir narsa keskin urilgandek bo'ldi. U qaytib erga yiqilib, hushidan ketdi». (23- bet)

Agar u: *«Men birovdan sadaqa olishga ham, harom-harishga ham o'rganmaganman. Men tutgan yo'limdan qaytmayman»* (22-23-betlar) qabilida e'tiqodiga sodiq bo'lmaganida, adolat tantanasi uchun kurashga o'tlanmaganida tor va diqqinafas ijara uyini bog'-hovliga almashtirib olishi, eng yangi zamonaviy mashinaning sohibi bo'lishi, bir dunyo boylikka ham ega bo'lishi juda oson edi. Bu uchun undan *«o't bilan o'ynashmaslik»* talab etilardi.

Abdulla Hakim ruhiyatida sodir bo'lgan o'zgarishlar: sadoqat, vijdon, g'azab, nafrat, or-nomus tuyg'ularining nogahoniy tarzda o'zaro chatishib ketishi uning ruhini beqiyos jilolantirib, jasoratga undaydi. Bu esa uning ma'naviy ustunligini ta'minlaydi:

«U oyog'i erdan uzilib, yana erga tekkandek holatni tuydi. CHayqalib ketdi. Biroq yiqilmadi. Endi o'zi uchun hech narsaning ahamiyati yo'qligini his etib, yigitlar tomon mag'rur o'girildi. To'pponcha ketma-ket qarsilladi. U o'zi

istamagan, kutmagan holda tiz cho‘kdi. So‘ng erga ohista cho‘zildi.

Tipirchilab faqat birgina so‘z – Halima, dedi» (31-bet).

Abdulla Hakim – Burhon SHarif jisman mag‘lub bo‘ldi. SHunga qaramasdan uning o‘limida ham bir ulug‘vorlik borki, bu roman voqealari mazmuniga optimizm, kitobxon qalbiga taskin bag‘ishlaydi. O.Muxtor insoniy buyuklik haqidagi ming yillik adabiy-estetik tafakkurga xos fikrlarni shunchaki nasihat tarzida emas, xarakterlar ruhiyati tahlili, voqealar mantig‘idan keltirib chiqargan holda ilgari suradi. Boshqacharoq aytganda, muallif o‘z fikr-mulohazalarini ertak mazmunidagi, latifalar mantig‘idagi xalqchillikdan foydalanib, real qahramonlar shaxsiyati, ruhiy olami va intilishi mohiyati bilan uzviy tarzda tutashtira oladi.

D.Quronovning ta’kidlashicha, adibning kitobxon bilan muloqoti amalga oshishida hikoya qilinayotgan narsaga muallifning munosabati, dunyoqarashi, ayni paytdagi ruhiy holati muhim ahamiyatga egadir. U esa ko‘proq uslubda namoyon bo‘ladi.²⁹ O.Muxtorning yuqorida kuzatganimiz «*Ming bir qiyofa*» romanida konseptual butunlik ta’minlanganligi asar kompozitsion qismlarining tegishli tartibda joylashtirilganligida namoyon bo‘ladi. Adib o‘rni bilan lirik chekinishlar ham qilib, kitobxonni g‘oyaviy-hissiy baholariga qo‘shilishga undaydi. Ma’lum ma’noda tasvir predmetiga ham goh oshkora, goh pinhona munosabatini ifodalab, kitobxon bilan bevosita muloqotga kirishadi.

Biroq, ayrim hollarda adib kitobxonga quruq axborot tarzidagi tafsilotlarni ham bayon qiladiki, bunday hollarda O.Muxtorning his-tuyg‘ulari to‘lig‘icha o‘quvchi qalbiga etib bormaydi. Tasvir uslubida paydo bo‘lgan bayonchilik tafsilotlarning yorqin jonlanishiga imkon bermaydi. YOzuvchi qahramonlariga to‘la «*evrilgan*» holda emas, balki o‘zi bilan o‘zi tanho qolib, hislarini quvvatlantira olmaydi. Natijada emotsional ta’sirning bir qadar susayishi ham kelib chiqadi.

²⁹ Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Тошкент: Шарқ НМК, 2004. 231- бет

II-BOB

ROMAN POETIKASI VA MIFOPOETIK TAFAKKUR

2.1 Mifologik ishonch-e'tiqodlar va epik bayon

Hozirgi o'zbek adabiyoti an'anaviy ildizlari bilan chambarchas aloqada ekanligi bugungi romanlarimiz qatlariga nazar tashlash orqali ham oydinlashadi. Ajdodlarimiz samoviy tasavvurlari to'g'risidagi mifologik qarashlari muayyan darajada o'rganilgan.³⁰ Ularda mifopoetik tafakkur va olamning tuzilishi haqidagi tasavvurlarga alohida e'tibor qaratilgan, ajdodlarimizning e'tiqodiy tasavvurlari mohiyatini izohlashda muhim xarakter kasb etishini ta'kidlashgan. Folklorshunos olim M.Jo'raev kosmogonik miqlar asosida yuzaga kelgan samoviy afsonalar syujetining tarixiy asoslarini va motivlar tizimini sinchiklab o'rganar ekan, ularning matniga asos bo'lgan birlamchi mifologik tasavvurlarning rudiment (qoldiq- A.N.) holda saqlanib qolgan talay unsurlarini aniqlash, tasnif qilishga muvaffaq bo'lgan.³¹

Olimning ta'kidlashicha, samoviy afsonalar qadimiy e'tiqodlar va mifologik tasavvurlar asosida yuzaga kelgan og'zaki hikoyalar bo'lib, etiologik miqlarning talqinlarini badiiy tafakkur qonuniyatlari vositasida bayon qiladi.³² Badiiy-estetik mohiyat kasb etgan verbal shakldagi samoviy afsonalar o'ziga xos shakllanish hamda takomillashish bosqichini o'tagan. Samoviy asotirlar va mifologik qarashlar asosida yuzaga kelgan e'tiqodiy ishonchlar bugungi kunda nafaqat xalq an'anaviy marosim, rasm-rusumlari, balki uning tafakkur tarzida ham saqlanib qolgan. Xususan, roman poetikasi va uslubida kuzatiladi.

30 Крейнович Е.А. Очерк космогонических представлений гилаков. Сахалин. // Этнография, 1929. №1; Кариновская Л.Э. Представления алтайцев о вселенной. // Советская этнография. 1935 №4-5; Анисимов Л.Ф. Космологические представления народов Севера.

31 Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида «сеҳрли» рақамлар. –Тошкент, 1991. –106-126 б.; Ўша муаллиф. Етти ҳомийнинг мифологик асосларига доир// Адабий мерос. 1989, №2, 65-69-бетлар; Ўзбек халқ самовий афсоналари. –Тошкент: Фан, 1995; Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Тошкент: Фан, 2001.

32 Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналари. –Тошкент: Фан, 1995.9-бет

«Xalqimiz er osti olamiga go‘r, quduq, yoriq-teshik yoki g‘or orqali o‘tish mumkin deb o‘ylagan»,³³ yozadi M.Jo‘raev. Xalq ishonch-e’tiqodlariga ko‘ra Osmon- maloiklarning makoni, er osti- o‘liklar mulki. Bu qadimiy mifologik tasavvurlar asosidagi motivdan hozirgi o‘zbek romanlarida ham foydalanilganligini kuzatish mumkin. O.Muxtorning «Aflotun» romanidan keltirilgan ayrim parchalarni kuzatish fikrimiz tasdig‘iga xizmat qiladi:

«Nihoyat...

quduq boshiga

etib kelishdi.

Bir to‘p kishi engashib, quduq ichiga qarashdi.

Usmon ham qaradi.

Ba‘zan quduqlar ichida oy bo‘ladi, deb eshitgan edi.

Bu quduqning ham tubida nimadir yaltiradi!

Biroq odamlarga oy emas, suv kerak edi!

Pastga chelak tushirishdi. CHelak taraqlab quruq chiqdi.

YAna tushirishdi. YAna, quruq!

Parishonlanib, odam tushirib ko‘rishga qaror qilishdi» (12-b).

SHundan keyin belidan arqon bog‘lab quduqqa tushirilgan birinchi odamning boshi kesilgan, ikkinchisi qilich bilan chavaqlangan, uchinchisi ko‘ksida qo‘rg‘oshin bilan o‘lik holda tortib olishadi. Quduqqa tushishga xech kimning yuragi dov bermagan bir paytda Usmon quduqqa tushish istagini bildiradi:

- Men tushaman,- dedi Usmon,- Ammo meni oyog‘im bilan emas, boshim bilan tushiringlar!

- Nega bosh bilan?!- so‘rashdi odamlar.

- Boshim bilan sho‘ng‘imoqchiman!- dedi Usmon hazillashib. Keyin tushuntirdi.- Bosh bilan tushmasa, oyoq ostini ko‘rib bo‘lmaydi. Men boshni ishlatmoqchiman!» (12-bet).

33 Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналари. –Тошкент: Фан, 1995. 23- бет

Kuzatilgan parchalar bayon uslubi va qisman shakli jihatidan xalq og‘zaki ijodidagi afsona va ertaklarga ancha yaqin turadi. Biz ahamiyat qaratayotgan jihat qop- qorong‘i quduq tagida yorug‘lik manbai bo‘lgan Oyning yaltirab ko‘rinishi motividir. Oyning belgilari, rangi va materiali romanda «kumush rang», «kumush barkash» deb beriladi. Bu jihatdan ham O.Muxtor tasvirida turkiy xalqlarning qadimgi qarashlariga hamohanglik mavjud. Zulmat qa’rida yorug‘likning paydo bo‘lishi ezgulik tantanasiga bo‘lgan ishonchni ifoda etadi. Zero Usmonning quduqqa tushishdan ko‘zlagan maqsadi odamlarga hayot manbai ramzi bo‘lgan «suv» olib chiqish. Ezgulik g‘alabasiga bo‘lgan ana shu ishonchdan kuch olgan personaj «quduq»- ko‘ngil tubiga sho‘ng‘iydi. An’anaviy motivga zid tarzda Usmonning quduqqa bosh bilan sho‘ng‘ishi nosir uslubiga xos ramziylikni kuchaytiruvchi ifoda bo‘lib, tafakkur ila ish tutmoqchi ekanligini anglatadi. Mazkur quduqning ko‘zni tindirar darajada chuqurligi, devorlaridan qadrdon tovushlar chiqib, aks-sado berishlari bir qarashda afsonalarga xos g‘ayritabiiylikni bildirayotganday tuyuladi. Aslida esa personajning qalb tubiga teran nazar tashlab, ichki olamiga quloq solayotganligini anglatadi. O.Muxtor o‘tkinchi dunyoda daryoyu dengizlarni quritgan, zaminni xarob holga keltirgani bois tashnalik azobini chekishga mahkum odamlarga o‘z-o‘zini halok qilgan olomon deb qaramoqda. Ayni bir onning o‘zida go‘yoki yalang sahroda Usmon bir vujudida ikki kishiga aylanadi. Ulardan biri quduqning tepasida, ikkinchisi esa quduq ichida. Ana o‘sha yolg‘izlik holatidan o‘z- o‘zini qismat iskanjasidagi tashna olomonning biri deb taftish etish orqali muallif etakchi fikrni ilgari suradi. Agar kitobxon ana shu holatni tuysagina roman uslubini teranroq idrok eta biladi, uning mohiyati oydinlashadi. Er ustiyo er ostidagi Usmon ruhining sayohati Olloh bilan yuzma-yuz turib, qismat etovidagi yaxshi va yomon amallariga banda sifatida javob izlash tarzida kechadi.

O. Muxtor «*Aflotun*»da ma’naviy- axloqiy tubanliklarning tubsiz chohidan asranish mushkulotlari, beozor va miskin kishining mo‘minlik yo‘li haqida so‘zlaydi. Uning qahramoni tagi teshik tuyulgan dunyoning bema’ni

jihatlarini ko‘rib iztirob chekadi. Ming yillik tarixni chok-chokidan so‘kib yuborgan XX asr fojialari mohiyatidan ogoh etishga urinadi. Donishmand ajdodlar ruxsoriga intiqlik Usmonni tubsiz choh qa‘ridan yuksaklikka ko‘tarilishga undaydi. U o‘z odamiylik qiyofasini saqlab qolish uchun barcha mashaqqatlarga bardosh berish, intilib-kurashib yashash lozimligini anglab etadi. Usmon umr bo‘yi sog‘ingan Ruxsora, ya‘ni ruxsoriga intizor bo‘lgan Sanam «*Aflotun*»da moddiylashtirib tasvirlanadi. Usmonga quduq devorlaridan xazin qiroat tovushi eshitiladi. Adib taxayyuli va butun roman aslida ana shu xazin ohang asosiga qurilgan. Bu ohang qahramonga yoshlik xotiralarini eslatadi. Ota etaklab borgan davralarda bot- bot nomi tilga olingan ko‘ngliga yaqin, aziz insonlarni xotirlaydi:

«SHohlar (*Ismoil Somoniy*),
avliyolar (*Bahouddin Naqshband*),
me‘morlar (*Usta SHirin*),
san’atkorlar (*Domla Halil*),
qo‘g‘irchoq yasagan oddiy kampir (*Hamro bibi*) gacha! SHu safda:

Ko‘ngli yorug‘, ko‘zlari yorug‘, hammani o‘zidek xayrixoh deb o‘ylagan – Soddadil *Fayzulla Xo‘ja*; har narsaga MEZON bilan qaragan, bu kunni tushungan va ertangi kunni BASHORAT qila olgan – *Rauf (bizning Suqrot)* Ko‘p o‘tmay, yana oldingi safar oydek ko‘ringan, quduq tubida yaltirab yotgan kattakon mis laganga uning ko‘zi tushdi. U ovozi do‘rillab:

- *Assalomu alaykum, qadrdonlar!*- demoqchi edi, lekin «*assalomu alaykum*»deb g‘o‘ldiraganicha, to‘xtab qoldi». ³⁴

O.Muxtor Oyning xalqda mis barkashga o‘xshatilishi an‘anasiga ergashib, quduq tagidagi yaltirab yotgan narsani moddiylashtirib tasvirleydi. Bu mis lagan uy-ro‘zg‘or buyumi ma‘nosida olib qaralganda ham, mehmonlar oldiga aziz eguliklar qo‘yiladigan jihati namoyon bo‘ladi. Uning shakli dumaloq ekanligi, rangi yaltirashi oyni eslatadi. Eng muhimi esa mis lagan atrofida ko‘ngilga yaqin

34 O.Мухтор. Афлотун. –Тошкент: Маънавият, 1998. 79- бет (Келтирилган парчалар шу манбадан олиниб, кавс ичида романинг саҳифаси кўрсатилган).

kishilar davra qurib o'tirishadi, dildan suhbatlashishadi. Mazkur suhbat Usmonning ongida kechishi, o'z aqidasiga asoslanishi, xayoliy jarayonlarni aks ettirishiga ahamiyat qaratish zarur. O. Muxtor badiiy tafakkuri mahsuli bo'lgan quduq va Oy bevosita mif bilan bog'liqdir. Chunki tasvirdagi konkret narsalarning bajaradigan funksiyasi reallik kasb etmaydigina emas, qadimgi insonning samoviy tushunchalariga asoslanadi. Usmon ovozinig «*do'rillab*», «*g'o'rillab*» chiqishi Ismoil Somoniydan Rauf (Abdurauf Fitrat.- A.N.) gacha bo'lgan el-yurt va millat qayg'usida yashagan ajdodlardan ancha uzoqlashgani «*qadrdon*» emasligiga ishoradir.

Demak, roman qahramoni o'tmish ajdodlar va bugungi avlodlarni o'zaro taqqoslamoda. Bu o'rinda mifning yashash shakli va mazmunida xarakter jihatidan sof asotirlik xususiyati saqlanmaydi. Uning badiiy tafakkurdagi qoldiqlarigina roman janriga singib o'tishi sodir bo'ladi. Mazkur jihat bugungi o'zbek romanlari taraqqiyoti insoniyatning turli bosqichdagi tushuncha va aqidalari bilan uzviy tarzda tutashish orqali ham ta'minlanayotganligini ko'rsatadi. Shubhasiz, o'zbek romanining murakkab tabiati uslubiy izlanishlar mohiyatini anglash orqali oydinlashadi.

O. Muxtor tasviridagi «*dasturxon*» - insonning bilimlari. Dasturxonning «*quroq*» (ulab- qurab tikilgan.- A.N.) ligi, yaxlit gazmoldan qilinmaganligi (91-bet) esa bu bilimlar bugungi kunda «*bo'ltak-so'ltak*» tarzda o'zlashtirilganligiga ishoradir. O. Muxtorning badiiy talqinicha, dunyomiz qadimgi davrlardan buyon unchalik katta o'zgarishlarga yuz tutmagan. Ayniqsa:

«Inson kam O'zgardi, deyish mumkin!

BAXTGA TASHNALIK. EZGULIK bilan YOVUZLIK...» (91-bet)

Butun-butun avlodlar Turkiston qayg'usi, hasrati, armon va iztiroblari bilan yashashga mahkum qilingan XX asr fojialari ma'lum ma'noda bir ipga tiziladi. Mif mazmuniga ishora qilishdan ko'zlangan maqsad ham aslida hayotda insonning o'z qiyofasini saqlab qolmoq uchun intilib, kurashib yashashi zarur ekanligini uqtirishdan iborat. O'z- o'zidan norozilik sezgan qahramonlar «Dunyo muhabbatdan boshqa narsaga yaramas ekan!» degan qarorga kelishadi.

(59- bet)

O'tgan asr to'fonlarida surilib- sirg'alib «suvsiz chuqurlik»ka tushib qolgan Usmon (47-bet) o'sha xalq g'am- tashvishlari bilan yashaydi. Uning ruhi «OLIY BIR MAQOM» (46- bet) kasb etadi. SHu boisdan ham Usmon avlodlari etisha olmagan olisdagi nur jilvasi- guldek SANAM ruxsoriga erishadi. Boshqacharoq aytganda, jaholatni ma'rifat bilan mahv etadi:

«Mis lagan yonida barvasta, ko'zlari katta-katta kishilar emas, Rayhon pari degandek egnida harir oq ko'ylak, boshiga ham harir oq ro'mol tashlagan Qizmi, Kelinchakmi?!- o'tirar edi!..

*Qiz unga qo'lida paydo bo'lgan piyolada
choy uzatdi». (79-80-betlar).*

«Oq harir ko'ylak», «oq xarir ro'mol»ga ahamiyat qaratsak, boshdan-oyoq oqlikka burkangan sanam ustidagi harir (yupqa va nozik) mato ko'chma ma'noda tozalik va musaffolikni anglatadi. O.Muxtor badiiy tafakkurning eng qadimiy vositasi bo'lgan rang bilan bog'liq ramzlarga ahamiyat qaratib, poetik mushohadaning badiiy-estetik qimmatini oshirishga erishadi. Zero oq rang azal-azaldan ezgulik, yorug'lik, farovonlik ramzi sanalgan. «Rang bilan bog'liq ramzlar xalqning ko'p asrlik tarixida u yoki bu rang haqida yuzaga kelgan e'tiqodiy, kosmogonik tasavvurlariga asoslanadi»,³⁵-deb yozadi yosh olim N.S.Jumatova.

Demak, O.Muxtor barqaror ramzlar qo'llash orqali ham voqea-hodisalar mohiyatini ifodalashga erishgan. Bunday usul adabiyotimiz uchun nihoyatda xarakterli bo'lish barobarida, ayni o'rinda mif mazmuniga asoslanilgani uchun nihoyatda mos tushgan. Usmonning ezgulik ruxsoriga etib, uning qo'lidan choy olishi, suv ilinjidagi tashna qalbning qonishiga ishonch tug'diruvchi ishoradir. Quduqning tagida mis lagan atrofida o'tirgan odamlar ham, qiz ham Usmonga suv yo'lini ochish uchun Raufni yoki mo'jaz bir sandiqni izlash kerakligini aytishadi. Hajmi qalinroq kitobdek keladigan bu sandiq shunchaki uy-ro'zg'or

35 Жуматова Н.С. Хозирги ўзбек шеъринида ранг билан боғлиқ рамзий образлар. Филол. фанл. номзоди дисс... автореф. –Тошкент, 2000. 12- бет

buyumi emas. Biroq unda saqlanayotgan bisot roman mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sandiq - ko'ngil, undagi bisot tarixiy xotira ekanligi anglashilsa, Usmonning ham, xalqning ham kelajagi aynan shu sandiqqa bog'liqligidan ko'zlangan ma'no oydinlashadi.

Tariximiz sahifalaridan nomlarini sho'rolar o'chirishga intilgan Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jaev kabi o'nlab siymolar, aslida milliy ong, milliy g'urur tuyg'usi kuchli, tobelikka qarshi isyonkor shaxslar edi. O'zbek xalqi bunday ajdodlarini unutmadi, hamisha yuragida, qalb to'rida saqladi.

*«Usmon o'rnidan turib,
quduqning bir chetida ochilgan qopqadan
indamay ichkariga yo'naldi».*(80- bet).

Er osti olamiga quduq orqali o'tib, ajdodlar ruhi bilan yuzlashgan, ularning ko'rsatmasi bo'yicha quduq chetidagi qopqadan ichkari kirib *«daryodek keng ko'cha»*dan chiqib qolgan Usmon sarguzashtlari mifologik ishonch-e'tiqodlar asosida bayon qilingan. Ulug'vor tariximiz va buyuk ajdodlarimizga munosib bo'lishga da'vat etilgan. Uning sandiqni topishi va suv yo'lining ochilishi roman optimistik echimini ta'minlaydi.

2.2. Romanbop rivoyani taraqqiy qildirish tamoyillari

XX asr oxirlariga kelib, katta janrda ijod qila boshlagan Omon Muxtor o'zbek romanchiligiga yangi badiiy talqin ruhini olib kirishga intilib, har bitta romanida yangicha shakllar qidirib topishga urinadi. *«Ming bir qiyofa»* romanidagi Kultepaga borishga shahd etgan Nasriddin va uning eshagi bilan bog'liq *«Afandining bolaligi»* hikoyati, *«Egilgan bosh»* romanidagi *«Mullaning boshi bormidi?»* ertagi, dengizdagi sayyoh haqidagi naql, *«Ko'zgu oldidagi odam»*dagi tilsimli oyna bilan bog'liq voqealar, *«Aflotun»*dagi sirli quduq bilan bog'liq motiv-epizodlar, *«Tepalikdagi xaroba»*dagi tepalikdagi xarobada sodir bo'luvchi xotira va xayol parvozlari bilan bog'liq g'aroyibotlar, *«Ffu»* romanidagi hashamatli saroyning kutilmaganda g'oyib bo'lishiyu Haydar Maxsum *«tilsim»*lari tasvirlangan o'rinlar, *«Ayollar mamlakati va saltanati»* romanidagi *«Bir yolg'onda qirq yolg'on»* ertagi ta'siri, Afandining o'z

yolg'oniga ishonishi bilan bog'liq latifa, bayon ohangidagi ertakka xoslik o'rinlarni kuzatsak, nosirning folklor an'alariga faol murojaat qilayotganligi oydinlashadi.

O.Muxtorning zamonaviy nasrda xalq og'zaki ijodi an'alaridan samarali foydalanishi adabiyotshunos SH.Doniyorovanning ham diqqatini tortadi. U «*Aflotun*» romanida qo'llanilgan xalq ertaklarining qadimiy motivlarini ayrim lavhalar misolida tahlil etadi.³⁶ Professor U.Normatov esa O.Muxtor romanlari xususida to'xtalar ekan: «*Bu asarlar sharqona milliy ruh, falsafa bilan yo'g'rilgan... xalq og'zaki ijodi namunalari-rivoyat va ertaklar syujetining qayta hikoyasi, xususan «Bir yolg'onda qirq yolg'on» ertagi bayoni asar matniga ajoyib fayz va jilo baxsh etgan... Omon Muxtor romanlari shakl-shamoyili, syujet tuzilishi, ifoda tarzi jihatidan yangicha*»,³⁷ deb yozadi. Olim o'z e'tiborini «*Ffu*», «*Ayollar mamlakati va saltanati*» romanlariga qaratadi. I.YOqubov va M.Pirnazarovanning ayrim kuzatishlarida O.Muxtor nasrida adabiy an'alarining o'zni, nosirning adabiy mistifikatsiyadan badiiy vosita sifatida foydalanish mahorati singari masalalarga e'tibor jalb etilgan.³⁸

Badiiy tasvir usullaridan biri bo'lgan adabiy mistifikatsiya hodisasi milliy adabiyotimizdagi yangiliklardan hisoblanadi. Biror narsaga ataylab sirli tus berish, yo'q narsani bor deb, kitobxonni ishontirishga urinish adabiy mistifikatsiyadir. Odil YOqubovning «*Ko'hna dunyo*» romanida ilk bor qo'llanilgan bu tasvir usuli ijobiy natijalar bergan edi. YOzuvchi o'z ko'zlagan badiiy niyatiga erishishda obrazni yorqinroq ochish maqsadida qahramonlardan birining kundaligi detalidan muhim hujjat sifatida foydalanadi.³⁹ Juzjoniy xotiralari badiiy to'qima bo'lsa-da, kitobxonni ishontirishi, roman voqealari hayotiyligini ta'minlash jihatidan xarakterlidir. Mumtoz adabiyotimizda «*tajohili orifona*» deb yuritiluvchi bu usul nosirning o'zini bilib bilmaslikka olishiga asoslanadi. Mazkur shartli vosita zarur hayotiy detallar, vaziyat va

36 Дониёрова Ш. Омон Мухтор ижодида фольклор аънаналари. // Ўзбек тили ва адабиёти журнали. –Тошкент, 2001. №5. 64-67- бетлар

37 Норматов У. Умидбахш тамойиллар. –Тошкент: Маънавият, 2000. 59-60- бетлар

38 Екубов И., Пирназарова М. Адабий мистификация бадий восита сифатида. Илм сарчашмалари (УрДУ ахборотномаси), 2001, №4. 31-32-бетлар; Пирназарова М. Омон Мухтор насрида миллий – адабий аъналарнинг ўрни. Филологик тадқиқотлар. –Урганч, 2001. 46-50- бет

personajlar taqdiri bilan uzviy bog‘lansagina obraz haqqoniyligini ta’minlay oladi.

O.Muxtor ham «*Ming bir qiyofa*» romanida to‘qima obraz bo‘lgan Abdulla Hakim she’rlar daftari orqali qahramonlar taqdirini o‘zaro tutashtiradi. Adib adabiy mistifikatsiya hodisasidan romanbop rivoyani taraqqiy qildirish tamoyillaridan biri sifatida foydalanadi. Romanda she’rlar daftari qahramon fikr-o‘ylari, taassurotlarini tahlil qilish imkonini beradi.

«*Ming bir qiyofa*» romani qahramonlaridan biri Abdulla Hakim oddiy bir xizmatchi bo‘lsa-da, qanoatli inson, iste’dodli shoir. Uning Nasriddin afandi haqida yozganlari she’riy va nasriy o‘y-mushohadalardan iborat. Bu shoir uchun Nasriddin hech kimga bo‘yin egmay, dunyoga ko‘ngil bermay, abadiy yashayotgan xalqning Tirik Kulgisi. Egnidagi odmi yaktagi, boshidagi kichik sallasi va ostidagi qirchang‘i eshagi uning darveshona hayotidan nishona. Uning zaharxandasi mohiyatidagi yaxdek sovuq haqiqatni anglagan Abdulla Hakim qalb va ruh erkinligiga erishgan har bir kimsa inson umrining bir epkin yanglig‘ o‘tkinchiligini anglagan sari xalq dahosining ulug‘vorligiga topinadi. O‘z qalbida yashayotgan, vijdon amrida barhayot Nasriddin ruhidan quvvat olib hayotdagi razilliklar ustidan kulib yashashni o‘ziga baxt, iqbol deb biladi. SHundagina inson o‘tkinchi dunyoning hoyu-havaslariga ortiqcha mahliyo bo‘lmay, ruh mustaqilligini qo‘lga kiritadi:

Kimdaki,

qalb

erkin,

ruh erkin –

U sizni, albatta, topadi. (126-bet).⁴⁰

«*Ming bir qiyofa*» romanidagi har bir hikoyatni boshqa yozuvchi bitta roman qilardi. Biroq mening maqsadim – ixcham holda kattaroq bir gaplarni tashlash edi, iloji boricha»,⁴¹ deb yozadi yozuvchi O.Muxtor. Romanchilikda hajm qisqaligi, mavzu va mazmun teranligiga intilgan nosir har bir asar ohangi

39 Раҳимов З.А. Одил Ёкубовнинг «Кўхна дунё» романи поэтикаси. Филол. фанл. номзоди дисс...автореф. –Тошкент, 2000. 14-15- бетлар.

40 Омон Мухтор. Тўрт томон қибла. –Тошкент: Шарқ НМК Бош тахририяти, 2000. (Кейинги мисоллар шу манбадан олиниб, саҳифа кўрсатилди. А.Н.)

41 Мухтор О., Отабой А. Ҳар кимнинг ўз замин, ўз осмони бор (давра суҳбати). О.Мухтор «Тўрт томон қибла» –Тошкент: Шарқ НМК, 2000. 423- бет

ko'targanicha hajm va yakunini belgilash yo'lidan borardi. Bu jihatdan «*Ming bir qiyofa*» romanidagi Abdulla Hakimning nasriy «Uzindi o'ylar»i ayniqsa xarakterlidir.

Omon Muxtor talqinida tulki – *qozi*, ayiq – *mirshab*, toshbaqa – *arbob*, ilon – *vazir*, arslon – *shoh* ekanligi bilan bog'liq xalq ertaklaridagi majoziy obraz yaratish tasviriy usuli romanning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Aytish mumkinki, romanning ushbu bobi majoz asosiga qurilgan o'ziga xos mozaikadir. Bobga kompozitsion tarzda singdirilgan g'aroyib afsona-latifalar Gulxaniyning «*Zarbulmasal*» asarini ham esga soladi. Zero, nafaqat ertaklarning maxsus turi, balki masallar ham majoziy tasvirga asoslangan. Nosir bu an'anani yangi bir janr doirasida muvaffaqiyat bilan ijodiy uslubiy davom qildiradi.

Ko'pincha oddiy, faqir kishilarning kuniga yarab, odamning xizmatini qilib yurgan eshak xalq ijodida Nasriddinning doimiy hamrohi. Romanda ham Rahim Ikkinchi muzofotining g'arib bir qishlog'ida yashovchi Xo'ja Badriddin – dunyo ko'rgan, ziyoli kishi. Uning kenja o'g'li ham ziyarak, dono, ayni paytda nihoyatda soddadil yigit. Ayolmand oilaning supraqoqdi farzandi bo'lgan Nasriddin qalbidagi bolalikka xos ishqibozlik tufayli sartarosh Mulla G'ulom afsona – latifalariga maftun – mahliyo bo'ladi. Bu borada u soddaga qishloqdoshlaridan farqlanmaydi. El ichra tanilish orzusida Mulla G'ulomga taqlidan «ming yillik ashula»ga jo'r bo'lib, shohning odilligi haqida bayonsiz bir muhabbat bilan latifalar to'qiydi. Biroq u o'z o'y-xayolini o'g'irlagan Rahim Ikkinchini umrida hech qachon ko'rmagan, qandayligini to'laroq tasavvur qila olmagan hukmdordan muayyan xizmat qilish to'g'risida topshiriq ham olmagan edi.

Dunyo ko'rish istagida otasidan oq fотиha olib, eshagi bilan yo'lga chiqqan Nasriddinning shahdini ko'rgan eshagi arqonini uzib qochib qoladi. Hamrohidan ayrilgan Nasriddin eshagini izlab yo'lga ravona bo'ladi. Ilk tundayoq insoniy harorat kutgani sayyoh ovchi qiyofasidagi Sulton va

Mo'ltinning firibgarligi va muttahamligiga aldanadi. CHopon va safar xaltachasidan ajralgan Nasriddin gangib qolib, boshi oqqan tomonga qarab keta boshlaydi. Katta umid va ishonch bilan odil shoh va vijdonli hakam izlab yorug' kunlar ilinjida yo'lga chiqqan hamda aldangan Nasriddin bepoyon va yalang'och sahroda diydirab, titrab-qaqshab, oyoqlarini tikanlarga shildirib, yuragi qon bo'lib olg'a intiladi. U zahil rangli bolalar, kampirsifat o'ttiz yoshli ayollar, og'ir mehnat zalvorini itoatgo'ylik bilan ko'tarib yurgan «yigit»lar, nochor ahvoldagi «qilichday» chol-kampirlarga duch keladi.

Nasriddin eshagidan ranjib, uni qidirganicha, atrofdagi qanchadan-qancha qishloqlarni poyi-piyoda kezib muzofotdagi loyshuvoq tom, paxsa devorli, bir-birining pinjiga tiqilgan pastak uylarning g'arib holini ko'radi. Tirikchilik ilinjida mardikorlik, hammollik qilib yurgan oddiy odamlarning mashaqqatli va ayanchli ahvoliga guvoh bo'ladi. Hashamatli qasru saroylar, koshonalarda yashayotgan yurt darg'alari, puldorlar, korchalonlarning, bezori va o'g'rilarning bechora xalq ahvoliga qayg'urmayotganligiga guvoh bo'lar ekan, ko'nglida Mulla G'ulom gaplariga ham, Rahim Ikkinchining buyukligiga ham shubha paydo bo'ladi. Biroq u «shohimiz bu ahvolni tuzatmoq, vaziyatni o'nglamoq uchun qattiq qayg'urayotgandir, barchaning boshini silashga balki qo'li qisqalik qilayotgandir», degan xayollarga boradi. Sarson-sargardonlikda shu boisdan o'zi bilgan afsona-latifalarni aytib yurib ust-boshini butlaydi, besh-o'n tanga choychaqa yig'adi. «*Eshagim mendan oldin shaharga yo'rtib qolmaganmikin?! Eshak bo'lgandan keyin, undan har narsani kutish mumkin!*» (154-bet) degan fikrga kelgan Nasriddin nihoyat shaharga ham etib keladi.

Nasriddin shaharda ham ikki xil manzaraning guvohi bo'ladi. Bir tomonda xuddi qishloqdagidek tuprog'i bilqillagan tor va uzun ko'chalar. Tomi odamning bo'yidan ham past katalakdek kulbalar. Eshak mingan chollar, boshiga tog'ora qo'ndirgan xotin-xalajlar, bo'z yaktaklar. Ikkinchi tomonda g'isht yotqizilgan katta yo'llar. Oltin, kumush qubballi gujum darvozalar o'rnatilgan bolaxonali uylar. Qator yashil-zangor ustunlarda yulduz shaklidagi besh qirrali yapasqi fonuslar. Foytunlar, otliq sarbozlar yonidan eldek uchib

o'tadi. Jun chakmonlar, adras, kimxob, banoras to'n kiygan aslzodalar. «*Odam. Odam. . . Birovning afti-angorini ilg'amaysan*», (159-bet) deb yozadi O.Muxtor. Nasriddin guvohi bo'lgan insoniy qiyofasizlik aro shaharda o'zini yolg'iz sezib, biror erda qo'nim topish, jo'yaliroq maslahat olish uchun Mulla G'ulomni izlaydi. Ko'cha bo'ylaridagi daraxtlar ham mevali-mevasiz. Tovuslar bemalol elpig'ichdek patlarini yoyib yurgani holda, to'ti, mayna, bedana kabi qushlar qafasda. Til-zabonli va sayroqi qushlarning miskin holi ham g'arib manzaralarga vobasta. Bu hol daraxtlar taqdirida ham oshkor.

Personajning nuqtai nazari va nigohi o'ziga xos vositachi hikoyanavisni yuzaga chiqaradi. Uning bayon shakli muallif obrazini bevosita va aynan takrorlamaydi. Berilayotgan bayonda hikoyachi obrazi adib nutqiga ham, personajlar tasviri va muhit ifodasidagi haqqoniylikning yuzaga chiqishiga ham o'z uslubi va hayajonini yuqtiradi. Natijada roman tilining qudrati va mazmunning rivoji muallifning asar personaji orqasiga yashirinishi estetik kategoriyasi orqali ta'minlanadi. Muallif obrazi romanning g'oyaviy–uslubiy markazida muvofiqlashtiruvchilik vazifasini bajaradi.

SHaharda ulug' bir qo'rquv hukmron. Odamlar Nasriddin surishtirayotgan zotni ko'rmagan, eshitmagan, tanimaganga solishadi o'zlarini. Kechalari hammomlar go'lahida yotib, etti kun davomida «amaki»si G'ulomjonni kunduzlari qiynalib-azoblanib izlaydi. U Rahim Ikkinchining yo'ldan o'tganini uzoqdan ko'radi. Sovuqqon va badjahl soqchilar, bekлар, sarbozlar xalqni haydashgani bois uning aft-angorini ham ilg'ay olmaydi. Saroyga kirish uchun esa jo'yaliroq sabab topa olmaydi. Tasodifan Nasriddin bechora ikki ulfatning suhbatlari orqali yovuzlik rasmga aylangan jamiyat illatlarining boshida Rahim Ikkinchining o'zi turganiyu G'ulomjonning sirli o'limidan xabar topadi. Ikki kimsaning tasodifiy suhbatlari tufayli yosh Nasriddin daf'atan ulg'ayganini sezadi. Mulla G'ulomning aslida yolg'onga yo'l ochgan, bu bilan xalqqa xiyonat qilib, o'zining boshiga ham etgan muttaham va tovlamachi ekanligini tushunib etadi. O'tgan hayotini eslab ko'nglida g'ashlik sezgan Nasriddin otasi va G'ulomjon o'rtasidagi suhbatdagi otasining g'amgin qiyofasini xayolan jonlantiradi.

Donishmand otasini qaytadan kashf etadi. O'shanda G'ulomjonning afsona-latifalaridan o'pkalangan Xo'ja Badriddin bilan shunday suhbat bo'lib o'tgandi:

«- *Ashulangiz yangimi, jo'ra? Oldin eshitmagan ekanman. . .*

- *Ey, bu ming yillik ashula, -siniq jilmaydi G'ulomjon. –Har zamonda kimdir chiqib, aytib turarkan. Aytyapmiz!*

- *Bir kuni qoq o'rtasida uzilib qolmaydimi?*

- *Bo'lishi mumkin,- dedi G'ulomjon ko'zlarining tub-tubi qandaydir yilt etib.- Avvaldan noma'qulning nonini eb, qo'lingga soz oldingmi, uzilgunicha aytaverasan-da!»(148-bet)*

Bu haqiqatni anglamoq uchun Nasriddin talay sinov manzillarini kezadi. Muhimi, u G'ulomjonga o'xshab «soz *uzilguncha*» qo'shiq aytavermaydi. Tezda shaharni tark etishga ahd qiladi. O'z qishlog'i, oddiy va pokdil odamlar mehrini, ota-ona bag'rini sog'inadi. Vijdon amriga zid borib dunyo yolg'onlariga jo'rovoz bo'lishdan ko'ra, o'z birodarlariga jabr-zulm qilgan kishidan yiroqroq yurishni ma'qul topadi. Bu yo'lda o'zini mardona va mag'rur tutib ezgulikni himoya qiladi. Demak, Nasriddin yoki G'ulomjonning Rahim Ikkinchi fuqaroparvar va saxovatpeshaligi, ziyrak va donishmandligi, rahmdil va mehribonligi haqidagi afsona-latifalari O.Muxtorga shoh atrofidagi olimu shoirning maqto'v va nazmbozligi, xonandayu sozandaning «*karnaychi*»ligi, hunarmandning yaltoqiligi haddan oshganini fosh etish uchun vosita vazifasini bajaradi. Muqimiy ta'biri bilan aytganda, «*turfa sulloh bachchag'ar*»larga nisbatan achchiq kesatiq bayoniga imkon yaratadi.

Nasriddin kezgan manzillarda uning nigohi bilan real hayot manzaralarini ko'z o'ngimizda gavdalantirar ekan, qahramon beixtiyor oddiy xalqning vijdoniga aylangan, bir qarashda sodda, samimiy, mehnatkash, ertadan umidvor, ishonuvchan, jaydari bir odam sifatida ko'zga tashlanadi. Uning qalbidagi ishonch o'rnini asta-asta ishtiboh, keyinchalik esa nafrat egallaydi. Bu alam va nafrat esa istehzoga aylanadi. Hayot mantig'i va odamzod taqdiri mohiyatini anglagan oddiy xalqning ming yillik qismatiga shunchaki achinib qo'ya qolmaydi. Chunki Nasriddin - baribir Nasriddin-da! Uning nomiga bekordan-

bekorga «*Afandi*» epiteti qo‘shilgan emas. Demak, Nasriddinda keskin rad qiluvchilik sifatining bo‘lishi tabiiy. Aksar ertak-latifalarda u shoh bilan yuzmayuz bo‘lishi kerak:

«Nasriddin qasri-saroyga yo‘naldi.

Sarkarda-beklar uni orqasidan sekin turtib, salomxonaga kiritib yuborishdi.

Rahim Ikkinchi taxtda boshini egib, poshnali etigi bilan negadir er chizib o‘tirardi.

Nasriddinni ko‘rib o‘rnidan irg‘ib turganicha, nima uchundir xonada yugura boshladi.

Bu, o‘zi-ko‘zlari ichga botgan oriq-ozg‘in, pitirak bir odam... badbashara bir maxluq ekan.

CHayon chaqqandek, bir oz yugurib-tipirchilagach, Nasriddinga imo qilib, buni kim bu yoqqa kiritdi, yo‘qot, deb telbaga o‘xshab baqirishga tushdi. Keyin, Nasriddinga tikilganicha, baqirdi:

- *Nega kirding bu yoqqa? Yo‘qol!...* Nasriddin sodda, osoyishta kuldi...

Nasriddin nomi bilan minglab latifalar yaratilgan! Biroq o‘sha kuni unga tegishli chinakam birinchi latifa to‘qildi.

- *Ko‘p baqiraverma, shoh, -dedi Nasriddin. – Mening eshagim yo‘qolgan edi. SHu erda emasmikan, deb kirgan edim...»* (158-159-betlar)

Aytar so‘zini aytib, shoh oldida ham o‘zini osoyishta tuta bilgan Nasriddin chinakam ma’noda xalq qahramoni «*Tirik kulgi*» va abadiy haqiqat, adolat ramziga aylanadi. Jur’atli va mard Nasriddinning o‘z vaqtida jafokash xalq ichiga qaytishida ham folklorga xos ruh ifodasini topadi.

Rahim Ikkinchini tabiiy pitirak-serharakatligi emas, balki haq so‘zning qudrati, Nasriddinning jur’ati va shiddati talvasaga tushirib, tipirchilatadi. Uning xuddi «*chayon chaqqandek*», yohud «*telbaga o‘xshab*» qolishi shundan. Nasriddinga kuch bag‘ishlagan narsa esa vijdon amri va haqiqatga sadoqat edi.

Nasriddin kezgan qishloqlar: *G‘altak, SHo‘ra, Kal-Bek, Qonli, Qoraqozon*, shaharning *Kultepa* kabi hech qanday or qilinmay nomlanishida kitobxon etini

seskantirar darajada g'ariblik mujassam. Ular qaysi makonda va qaysi zamonda bo'lgan? O.Muxtor uchun aniq zamon va makondan ko'ra masalaning ma'no-mohiyati ko'proq ahamiyat kasb etadi. Zukko kitobxonning ko'z o'ngida romandagi g'arib qishloqlarga qo'yilgan nomlar tagiga yashiringan zalvorli fikr namoyon bo'ladi. Bu loyshuvoq va pastak uylarning bir-birining pinjiga tiqilgandek ko'rinishi, ojiz va notavon, qo'rqib-pisib qolgan, og'ir mehnat ostida ezilgan, och-yupun bo'lsa-da irodasi bukilmagan «*gulday bolalar*», «*Alpomishday yigit*», «*qilichday chol*»lar ahvol-ruhiyasi, turmush tarziga vobasta ekanligini ilg'ab oladi. U o'z hayoli va shuurida shu g'arib shahru qishloqlar bilan hashamatli qasr va saroylarni, ularda yashayotgan ikki tip odamlarni chog'ishtiradi. Dunyoda haqiqat, adolat, diyonat, tenglik tushunchalarining bu qadar oyoq osti qilingani xususida o'ylaydi, fikrlaydi. Uzoq va yaqin tariximizni, xalq taqdirini, bechora el g'amini yurak-yurakdan his qiladi.

Agar o'z vaqtida Gulxaniy ham ijtimoiy hayot mohiyatiga diqqat qaratib qishloq va ovullarning nomlarini ramziy atamalar bilan nomlaganligini eslasak, mazkur romanda nafaqat xalq og'zaki ijodi, balki mumtoz adabiyot janrlariga xos juda ko'plab xususiyatlarni kuzatish mumkin ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

O.Muxtor folklor asarlariga xos xalqona ruhni ifoda etishda Nasriddin afandi obrazi tabiatiga xos mardlik, mag'rurlik, ezgu amallarga moyillik, haq so'zning qudratiga ishonch, jur'atlikdan unumli foydalanadi. Bu esa makon va zamon chegaralarini ming yilliklarga qadar kengaytirish, ijtimoiy hayot mohiyatiga yanada teranroq nazar tashlash, fikr zalvorini oshirish imkonini beradi. Muhimi, adib Nasriddinni jonli bir inson sifatida romanga olib kirib, sinov manzillari orqali o'tkazadi. U aldaydi, aldanadi, ishonadi va ishonchlari real hayot bilan to'qnashib, tafakkuri ulg'ayadi.

Binobarin, realistik romanda qo'llanilayotgan afsona-ertaklarga xos ruh va obrazlar, syujet tuzilishidagi mushtaraklik kabi jihatlar ijtimoiy illatlarni fosh etish uchun kesatiq va istehzo bayoniga yo'l ochuvchi uslubiy vosita vazifasini

bajaradi. Bu vazifani uddalashda O.Muxtor shartli ramziylikka asoslanuvchi uslubdan unumli foydalana olgan.

Muhimi shundaki, fantastik makon va zamon zamonaviylikdan yiroq emas. Kitobxon adabiy asar qahramonlarining qay birlariga xayrixoh bo'lish barobarida, qay birlariga nisbatan nafrat ham bildiradi. «*Ming bir qiyofa*» romanining o'ziga xos olami bor. Unda O.Muxtor dunyoqarashiga xos hayotsevarlik o'z ifodasini topgan. Nosir uslubiy qarashida insonga ishonch kuchli. Roman nechog'liq g'amgin va o'ychan ohang asosiga qurilib, qahramonlar mushkul kechinma va fojialarni boshidan kechirmasinlar, asarning yakuni yorug' kunlar umidi talqini bilan xotima topadi.

O.Muxtorning o'zi bu holatni fe'l-atvoridagi, tabiatidagi, qolaversa kayfiyatidagi «*ezgin odam emas*»ligi; sharqona muhitda o'sib-ulg'aygani, tarbiya topgani, qahramonlarining esa «*Baland Odamlar*», «*Katta va Butun*» shaxslar ekanligi bilan izohlaydi:

«Men BUTUN ODAM bo'lgan joyda tushkunlik bo'lmaydi, deb o'ylayman. Insonning ko'rgan-kechirgan fojialarini qo'rqmay ko'rsataverish mumkin. Qahramon butun bo'lsa, asarning qora tomonlari unutiladi, eng muhimi, o'quvchi ergashishi, ibrat olishi kerak».⁴² Demak, muallifning o'zi zamonlar osha ezilgan, xo'rlangan va irodasi bukilmagan xalqqa qalbining tub-tubida yaqinlik, qarindoshlik, birodarlik tuyg'ularini sezadi. Asarni tushunishda o'quvchini qiynab qo'ymaslik maqsadida publitsistik uslub unsurlarini ham romanga kiritadi:

«Azaldan sening qismating shumidi, xalq ?! Kimlar boshman, deb sening boshingga chiqmadi. . . Bechora xalq! Tarix bo'yi ko'rgan kuningda yilt etgan oftob yo'q! Teng bo'laman, deding, baxtli bo'laman, deding, dunyoda haqiqat bor, adolat albatta o'rnatiladi, deding, biroq shohmot taxtasidagi singari, barcha ot surdi, sen oyoq ostida qolib ketding, hammadan oldin qurbon bo'lding!

⁴² Мухтор О. Тўрт томон қибла, Шарқ, НМК, Тошкент, 2000, 423-бет

Sen hamon ishonasan, bechora xalq! Ertangi kunga umidlanasan! Odil shoh izlaysan. Biron vijdonli hakam bordirku, deysan! YAna aldanasan...» (Roman, 153-bet)

Anglashiladiki, nosir yaratgan «*Ming bir qiyofa*» romani uslubi umuman O.Muxtor nasriga xos uslub taraqqiyotida o'ziga xos halqani tashkil qiladi. Chunki u muallif iste'dodining umumiy yo'nalishidan kelib chiqadi. Badiiy idrok qilish va ifoda tarziga muvofiq bo'lib, badiiy xarakter yaratishdagi o'ziga xosligini, binobarin romanning til xususiyatlarini ham belgilaydi. Yuqorida keltirilgan publitsistik murojaatnoma muayyan ma'noda muallif va kitobxonning o'zaro muloqotini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq asardagi bu kabi publitsistik uslub unsurlari roman badiiyatining susayishiga olib kelganligini ham ta'kidlash lozim. Nosir uslubining shakllanishi va rivojida folklor va mumtoz adabiyot ta'siri ham nihoyatda kuchli bo'lganligi ayon bo'ladi. Bu hol, kuzatganimizday, fikr tasdig'i va qahramon ruhiyatini ochishda qo'llangan asosiy syujet liniyasiga hamohang tarzda mazmunni teranlashtirishga xizmat qilgan qisirma syujetlar misolida ham o'z tasdig'ini topadi.

O.Muxtor nazarida asrlar bo'yi xalq taqdiri fojiasining bosh sabablaridan biri uning tirikchilik tashvishlari bilangina ovvorayu sarsonligi, hayotidan nolishdan nariga o'tmay, balandparvoz va'dalarga ko'r-ko'rona ishonib kelgani, yohud mashaqqatli hayotidan chiqargan xulosasi: «*bariga qo'l siltash*»dan iborat ekanligi, siyosiy hushyor emasligidan kelib chiqadi.

SHu boisdan ham nosir faqat hayotiy ehtiyojlarni qondirishgagina intilish jamiyatning ravnaqini ham, baxtli hayotni ham ta'minlay olmaydi, deb biladi. U yakkahokimlikning har qanday turini qoralaydi, adolat va demokratiyani ulug'laydi. O'zini va so'zini qonun deb bilgan yakka shaxs (*romanda Rahim Ikkinchi*) bo'ysundirish va zulm o'tkazish siyosatini olib boradi, degan fikrni ilgari suradi. Bu jihatdan u Fitratning serqatlam ramziylik va teran falsafiylikka yo'g'rilgan «Abulfayzxon» fojiasini eslatadi. Aka-ukalari, amir-amaldorlari, hatto o'z onasiga ham shubha-gumonlar bilan qarashi, aksariyatini qatl ettirib, bir qismini qamoqda saqlashi, yurti xarob qilishi, saroyda yolg'izlanib qolishi,

xuddi Abulfayzxon va Ulfat kabi, Mulla G‘ulom maslahatlari bilangina ish tutishi, ma’naviy qashshoqligi kabi juda ko‘p parallelliklar ko‘zga tashlanadi. Qalbida bir olam kek va adovat borligi Rahim Ikkinchini ham tubsiz girdob qa‘riga tortadi. Unga nisbatan adovat kuchayadigina emas, saltanati ham ich-ichidan chirib, halokat yoqasiga borib qoladi.

Agar Abulfayzxon tanazzulini sotqinlik, razolat, tuhmat, chaqimchilik va o‘zaro nizolar ta‘minlagan bo‘lsa, Rahim Ikkinchi fojiasini qo‘rquv dahshatidan tug‘ilgan tilyog‘lamalik, oshirib-toshirib maqtab, haqiqatdan ko‘z yumish keltirib chiqaradi. Fitrat real tarixiy voqealarga asoslansa, O.Muxtor shartli ramziylik asosida ish ko‘radi. Har ikkala muallif ham istibdodni tanqid qiladi, amir-amaldorlarni fosh etadi. Agar Fitrat Afrosiyobdan Rahimxongacha, Siyovushdan Abdumo‘minxongacha bo‘lgan ulkan bir davrdagi millat fojiasini nazarda tutib, drama fojiaviy pafosi mohiyatida XX asrning 20-yillaridagi Turkiston hayotiga ishora qilsa, O.Muxtor katta tarixni ko‘zda tutib idrok etadi. Rahimbek va Rahim Ikkinchi haqida gapira turib, tarix fojialarini lirik chekinish orqali ifoda etadi. Kinoyaviy ishorani so‘z va ish birligi buzilgan, maqto‘v va dabdababozlik avj olgan davrga qaratadi. Mualliflar uzoq tarixdagi boshqaruv usuliga nisbatan munosabat bildirishar ekan, insoniyat dunyosini ogohlikka da‘vat etish konsepsiyasida sobit turadilar.

Fitrat «dunyomizni murdor» (iflos, A.N.) qilgan kishilar fikrini «*yarim chaqaga arzimaydir*» deb baholaydi. Mavjud illatlarni inson tabiatidagi shaytoniy kuchlar tadqiqi bilan uyg‘unlashtirib, tasvirlab berishga harakat qiladi. Bu holatni «Ming bir qiyofa» romanida ham kuzatamiz. Har ikkala asar janr e‘tibori bilan farqlansa-da, ularda ko‘tarilgan muammolar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning aynan shu bosqichigagina taalluqli emasligi, inson zoti mavjud bo‘lgan barcha makon va zamonlarga tegishli ko‘pdan-ko‘p jihatlarni o‘zida mujassamlashtirishi bejiz emas. Mazkur jihat, bizningcha, umuminsoniy mavzularning qamrab olinishi, xalq ideallarining ifodasi bilan bog‘liq. Ezgulik, insof, adolat, shaxs erki singari masalalarning hokimiyat uchun kurash yo‘lidagi chirkin vositalarga zid qo‘yilishi bilan izohlanadi. SHubhasiz, bu o‘rinda

O.Muxtorning Fitrat ijodini teran o'rgangani, natijada muayyan darajada ta'sirlangani, hatto unga bag'ishlab «Aflotun» nomli maxsus roman yozgani kabi faktorlarni ham chetlab o'ta olmaymiz. Qolaversa, XX asrning boshlari va nihoyaga yaqini ma'naviy-ruhiy jihatdan ko'p mushtarakliklarga ega. Mustaqillik va milliy mafkura nuqtai nazaridan Fitrat ijodining zamondosh adiblarga ta'sir etishi, yangi shakliy-uslubiy izlanishlarga ilhomlantirishi XXI asr adabiyotida ham porloq sahifalar ochilishiga muayyan darajada turtki bo'ladi.

«*Ming bir qiyofa*» romanidagi zolim Rahim Ikkinchida iroda bo'shligi, qo'rqqulik, vahimalar iskanjasida qolish, nomardlik xususiyatlari bo'rtib ko'rinadi. Taxtni asrab qolishdan ko'ra muhimroq narsaga aql-farosati etmagan shoh qalbidagi hadiksirash uni qasos sari etaklaydi. Bir guruh mansabparast kimsalar muqarrar fojiaga zamin hozirlaydilar: «*Olimlar itning orqa oyog'i bo'lgilari kelmadi*» (144-bet), «*..ba'zan shoirlardan ahmoq xalq bo'lmaydi. Ular hech tap tortmay, faqat Xudoga tegishli sifatlarni ham Rahim Ikkinchiga taqashga tushishdi*», «*... karnaychilar uning qasri-saroyi eshigiga kelib, bir-birlarini turtishgancha, har kim o'z karnayining ovozi ko'proq eshitalishiga harakat qilardi*» (145-bet). Bunday shon-shuhrat hatto shohning ham joniga tegib, «*bizdan aqlli odam bo'lmasligi kerak*» (145-bet) istiholasida Mulla G'ulomning ham bahridan o'tadi. Taassufki, bunday o'rinlarda muallifning bevosita bayoni axborot tarzidagina beriladi. Obrazlar ruhiyati esa teran ochilmay qoladi.

Garchand iste'dod va tafakkurini to'g'ri yo'naltira olmagan bo'lsa ham, Mulla G'ulom to'qigan afsona-latifalar katta kuch-qudratga aylanadi. SHu ma'noda Nasriddin bilan bog'liq sarguzashtlar ta'sir kuchi xalqona mazmuni nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi:

- *Eshagingiz bir joyga borib, qozi bo'lmaganmikin?* – hazillashdi o'zini Mo'lton deb tanishtirgan yigit.

- *Ehtimol, shundaydir, Mo'lton aka,* - kuldi Nasriddin ham. – *Odamlar gaplashayotganda, qulog'ini dikkaytirib, eshitib turadigan odati*

bor edi. (151-bet).

Qahramonlarning hazil va kulgulari tagida teran xalqona ma'no mujassam bo'lib, Afandi latifalaridan samarali foydalanish orqali bunga erishilgan. O.Muxtorning bunday o'rinlarni «chinakam latifa» deyishi bejiz emas. Rahim Ikkinchini eshak bilan tenglashtirgan Nasriddin jasorati va mardligi, to'g'riso'zligi va shakkokligi aslida latifalar mehvariga singib ketgan. Ularni romanga hazm qildirib yuborish purma'nolikni yuzaga chiqarmoqda. O.Muxtorning yaxshilik va yomonlik kurashida umuminsoniy muammolarni o'ziga xos ifodalashga erishishini ta'minlamoqda.

Darhaqiqat, zolim shohda qo'l ostidagilarning manfaatlarini himoya qilish mas'uliyati bo'lmaydi. U kishilarning erki, xohish-irodalarini cheklab qo'yadi. Ma'naviy fazilatlardan yiroq bo'lgan beshafqat shohdagi irodasizlik kayfiyati o'zaro ishonchsizlik tuyg'usini keltirib chiqaradi. Zolimlik uni siyosiy qudratdan mahrum etadi. Davlatni boshqarishga nomunosib bo'lgan kishining qo'lidagi hokimiyat faqat izzattalab kishilarning manfaatlariga xizmat qilib, xushomadgo'ylar va safsatabozlarni yuzaga chiqaradi. Bunday hokimiyat esa parchalanishga mahkumdir. Romandan kelib chiquvchi bunday xulosalar mustaqil O'zbekiston tanlagan ijtimoiy adolat va demokratiya tamoyillari naqadar to'g'riligini yana bir bor tasdiqlashga xizmat qiladi.

III BOB

OMON MUXTOR IJOD LABARATORIYASI SIRLARI

3.1. Navoiy ijod psixologiyasining poetik inkishofi

Taniqli adib, O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori Omon Muxtorning *“Uzun yo‘lakdagi ikki kishi”*⁴³ kitobi biz uchun adibning ijodiy laboratoriyasini ochish, xususan Alisher Navoiy ijod psixologiyasini kashf etishdagi poetik ikonsepsiyasini aniqlashda o‘ziga xos kalit vazifasini o‘tovchi tadqiqot, badiiy-estetik kuzatuvlar yig‘indisi vazifasini o‘tadi.

Kezi kelganda, ta’kidlash o‘rinliki, adabiyotshunosligimiz keyingi bosqichida yozuvchi va shoirlarimizning ayni tipdagi, inja kuzatuvlarga boy asarlari ancha kamayib ketmoqda. SHuni unutmasligimiz kerakki, qalam ahli samimiy e’tiroflari ular ijod laboratoriyasiga kirib borishning eng optimal yo‘llaridan biridir. Qolaversa, bunday asarlar ijod lazzatidan tuyilgan oniy lahzalar tarovatiga xos go‘zallikni kitobxonga yuqtirishi jihatidan ham qadrlidir.

Afsuski, “Navoiy” romanini qanday yozdim” (Oybek), “Kitob shavq bilan o‘qilishi kerak” (A.Qahhor), “Oybegim mening” (Z.Saidnosirova), “CHorak asr hamnafas” (K.Qahhorova), “Tundaliklar” (A.Muxtor), “Nazm chorrahasida”, “Yo‘qotganlarim va topganlarim” (S.Ahmad), “Oybek va Zarifa” (N.Karimov), “G‘afur G‘ulom olami” (B.Nazarov), “Badiiy asar biografiyasi” (N.Rahimjonov), “Yo‘l odami” (Q.Yo‘ldoshev), “Uzun yo‘lakdagi ikki kishi” (O.Muxtor), “Haqiqat og‘riqlar zaminida tug‘ilar” (A.Dilmurod) singari qalam

43 Omon Muxtor. Uzun yo‘lakdagi ikki kishi. “Ўзбекистон” НМИУ, 2011.

ahli ijod laboratoriyasiga olib kiruvchi bitiklar bizda nisbatan kam. Ustoz soʻz sanʼatkorlari mahorat maktabi va eʼtiroflariga boʻlgan ehtiyoj esa gʻoyat beqiyosdir.

“*Uzun yoʻlakdagi ikki kishi*” kitobiga kirgan bitiklarning aksariyat qismi respublikamizning “*Xalq soʻzi*”, “*Turkiston*”, “*Tong yulduzi*”, “*Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati*”, “*YOzuvchi*” singari gazetalari; “*Oila va jamiyat*” haftaligi, “*SHarq yulduzi*”, “*Tafakkur*” singari nufuzli jurnallarida ilk oʻquvchisi bilan yuzlashgan. Biroq, adib hayotiy kuzatuv, oʻy-suhbat, xotira va adabiy manzara-tasvirlarining bir jild ostida jamlanishi, yaxlit holda eʼlon qilinishi adabiy hayotimizda muhim voqea boʻldi. Zotan, muallif butun bir davr adabiyoti: S.Joʻra, Gʻ.Gʻulom, Oybek, A.Qahhor, M.Osim, SHayxzoda, S.Akbary, Zulfiya, SHuhrat, H.Gʻulom, A.Muxtor, O.YOqubov, S.Ahmad, S.Zunnunova, Oʻ.Umarbekov, M.Jalil, N.Aminov, SH.Xolmirzaev, E.Samandar, E.Aʼzam, S.Barnoev, M.Boboiev, H.Saʼdulla, T.Murod, T.Malik singari ijodkor ziyoli insonlar qiyofasi bilan bogʻliq, gʻaroyib-antiqa voqealarni nozik chizgilar orqali aks ettiradi.

“*Uzun yoʻlakdagi ikki kishi*” kitobida F.Xoʻjaev, Y.Oxunboboev singari davlat arboblari qismati aks etgan. M.Qoʻshjonov, Q.Yoʻldoshev kabi adabiyotshunos olimlar, B.Zokirov, B.Ixtiyorovga oʻxshagan sanʼat ahllari qiyofasiga xos goʻzal kuzatishlar oʻrin olgan. A.Otaboy, A.Yoʻldosh, Y.Solijonov, K.Mingboev, YU.Muxtorova kabi olimu adiblar bilan suhbatlar, shuningdek hayot va ijod haqidagi hikoyatu xotiralar ham uning oʻqishli boʻlishida oʻziga xos oʻrin tutadi.

Kitobning nomi S.Ahmad va S.Zunnunova bilan koʻp yillar oldin boʻlib oʻtgan voqeani aks ettiruvchi moʻʼjaza xotiradan olingan.Unda inson ruhiyati va holi teran his etiladi, qalbida tugʻyon urgan goʻzalligʻu nafasat tuyiladi. Bir soʻz bilan aytganda, shogird va ukalik maqomida turib, yozuvchi- shoir ijodi bilan bir qatorda uning odamiy xislatlari, insoniy qiyofasi ham ulugʻlanadi. Qisqa va azob-uqubatli yoʻlni mardona bosib oʻtgan S.Zunnunova shaxsiyatiga ehtirom va eʼtibor, bizda ayni shunday munosabat uygʻota olish barobarida,

O.Muxtor ijod laboratoriyasiga chuqurroq kirib borish imkonini ham beradi. Chunki, adib o'z ko'ngli ichkin tuyg'u-kechinmalarini ochishda g'oyatda samimiy, munosabat bildirishda esa o'ta xolis, beg'araz pozitsiyada turadi. Nazarimizda, ayni shu hol uning badiiy nasri – hikoya, qissa va romanlariga munosabat bildirishda muhim kalit vazifasini o'tay oladi.

O.Muxtor akademik shoir, faylasuf va mutafakkir inson G'.G'ulom turmush tarzi qizg'in hayot quchog'ida kechganini qayd etadi. Bu *“kayfiyat odami”* tabiatiga xos beg'ubor soddalik, samimiyat, iqtidorida kuzatiluvchi badihago'ylik, *“kosa tagida nimkosa”* qo'yib so'zlash salohiyati singari muhim qirralarga diqqat qaratadi. O.Muxtor nafaqat G'.G'ulom, balki Oybekni ham o'z davridan ajratib tahlilga tortmaydi. SHunga qaramasdan, Oybek inson va ijodkor sifatida tengqurlaridan ancha yuksak turishini e'tirof etadi. O.Muxtor tarixiy haqiqatga sadoqat tamoyiliga sodiq qolarkan, G'.G'ulomga nisbatan Oybek o'z imkoniyatlarini to'la namoyon eta olgan edi, degan xulosaga keladi. A.Qahhorni esa, *“o'lik so'z va ezmalik”*ni xushlamaydigan, *“tilga oro”* bergan, shaxs sifatida esa: *“qahri bor”* adib va inson sifatida eslaydi. A.Qahhor ijodiy prinsiplariga to'xtalar ekan: *“Uning yuragida hayotiy qusur-illatlarga qarshi nafrat tug'ilib, bu nafrat kuydiruvchi qahr o'tiga aylandi”*, deb yozadi.

Ko'rinadiki, O.Muxtorni badiiy nasrga etaklagan omillar sirasiga G'.G'ulom, Oybek va A.Qahhorga o'xshagan katta avlod faylasuf ijodkorlariga bo'lgan ayricha mehr, ular ijodining muhibi bo'lishni ham kiritish lozim. Bu o'rinda ham O.Muxtor kamtirin va xokisor shogird maqomida turar ekan: *“Oybek bir tog' bo'lsa, biz shu tog' etagidagi bir tosh”*, deyishdan zarracha iymanmaydi. Binobarin, adib nasrini G'.G'ulomu Oybek, A.Qahhor uslubiy mahoratlari ijodiy o'zlashtirilishi fonida ham kuzatish mumkin.

O.Muxtor olisdan ko'ringan manzaralardan INSON va IJODKOR degan ikkita sifatni ajratib olib, shunga ko'ra tasvir palitrasini kengaytiradi. Uning bir qarashda jo'n, ammo tarix sinovlaridan o'tgan falsafasiga ko'ra: *“Dunyo karvonsaroy, biz barchasmiz sayyohlarmiz.”* Anglashiladiki, olis va yaqin tariximizni baholash asnosida O.Muxtor pozitsiyasi har bir insonni o'z qismatiga

ko'ra idrok etishga asoslanadi. Bu hol adib romanlarida kuzatiluvchi: Amir Temur, Husayn Boyqaro, Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Nodira, Fayzulla Xo'ja, Bayron, Mirza G'olib, SHermuhammadbek va ularni qurshagan o'nlab boshqa tarixiy shaxslar obrazini qismat etovidagi bandalar sifatida anglash konseptual jihatdan o'zini to'la oqlashini ko'rsatadi.

Adib yaratgan asarlar orasida "Ishq ahli" va "Buyuk farrosh" romanlaridan tarkib topgan "Navoiy va rassom Abulhayr" dilogiyasi (2006) alohida ajralib turadi. Bu dilogiya ilgari Navoiy haqida yaratilgan asarlarni takrorlamaydi. YOzuvchi ularga taqlid qilmaslikka intiladi va ulug' mutafakkir ijodidan mantiqli umumlasmalar, favqulodda go'zal ma'nolar topadi. O'rni bilan Payg'ambarlar va sahobalar tarixi, shuningdek "CHor darvesh" tipidagi asarlar, YAssaviy hikmatlariga ham murojaat qiladi. Navoiy asarlarida ifoda etilgan ruh, qorishiq tuyg'ular silsilasidan uning shaxsiyatini keltirib chiqarishga, "men"ligini kashf etishga urinadi. SHu ulug'vor ruh ma'rifatidan bahramandlik tuyadi.

Oybekning "Navoiy" dostonida ijod psixologiyasini ko'rsatish, shoirning o'y-fikrlariyu xayollariga diqqat qaratish; "Guli va Navoiy"da xalq afsonalariga tayanish; Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy" dramasida Navoiy obraziga ko'chgan aksariyat sifatlarning shoir asarlaridan olinganligiyu xalq og'zaki ijodiga tayanilganligi qahramon va mualliflar qarashlari birligini yuzaga keltirgani singari roman-dilogiyaga mushtarak talaygina jihatlarni kuzatish mumkinki, bunday hol Omon Muxtorning Oybek, L.Bat, Uyg'un, Izzat Sulton T.Fayziy, X.Vamberilar qalamiga mansub dostonu drama, tarixiy qaydlar tajribasidan ijodiy bahramand bo'lganligini ko'rsatadi. Asarni yozish asnosida Navoiyni yaqindan bilgan muarrixlar Mirxond va Xondamir bitiklari, xalq afsona, rivoyat va ertaklari mazmunidan ham barakali foydalanilgan. Romandagi nosir mulohaza-mushohodalari teran mazmundorlikka ega. Asarda voqealar tasviri va psixologik tahlil mutanosibligi ta'minlangan, talqin jarayonida badiiylik va ilmiylik uyg'unlashgan.

YOzuvchining roman yaratishdan ko'zlagan maqsadi Navoiy ijod

psixologiyasini ochib berishdan iborat edi. Alisher Navoiydek daho shaxsiyatining badiiy talqini og‘zaki va yozma adabiyotda ulkan qatlamni tashkil etadi. Adabiyotshunosligimizda real tarixiy shaxs xarakterining badiiy talqiniga yondoshish qonuniyatlari tahlili hanuzgacha munozarali bo‘lib kelmoqda. *Navoiyning badiiy siymosini yaratish* masalasi qamrovining kengligi boisidan bo‘lsa kerak, Omon Muxtor qalamiga mansub “*Ishq ahli*”⁴⁴ romani turlicha munosabatlarga sabab bo‘ldi. Masalan, S.Sodiqovning “*Romanmi yoki risola?*”⁴⁵ maqolasida asarni: “...ko‘proq adabiy esse janri namunasini yodga soladi... falsafiy risolaga yoki publitsistik tadqiqotga yaqin”, - deb baholar ekan, *roman talablariga etarlicha javob bermaydi*, -deb hisoblaydi.

“*Ishq ahli*”ning janri masalasi muallif talqinida badiiylik va ilmiylik uyg‘unlashganligiga asoslanib, Zulfiya Pardaeva tomonidan ham “esse” deb belgilangan edi.⁴⁶ Akademik M.Qo‘shjonov esa “*Ishq ahli*” asari haqida to‘xtalar ekan, shunday deb yozadi: “YAngi romanni yozuvchining yuqori va ancha mukammallashgan uslubiy yutug‘i deb hisoblash mumkin. Omon Muxtorning Navoiyga bag‘ishlangan asari faqat navoiyshunoslik, navoiyxonlik olamida o‘ziga xos badiiy tajriba bo‘lmay, balki o‘zbek adabiyotining taraqqiyotida ko‘zga tashlanadigan muhim yangilikdir”⁴⁷

S.Sodiqovga “*Ishq ahli*”dagi “*Odil va Abulxayrga taalluqli tafsilotlar asarda butkul ortiqcha*”, “*muallif asosiy voqealardan chalg‘igan*”, “*voqealar va xarakterlar mutanosibligi*” e‘tibordan chetda qolgan, “*janr asosi butkul chetlab o‘tilgan*”dek tuyuladi. U nosir tafakkur tarzida romandan ko‘ra “*ilm-fanni eslatuvchi ohang*”ni ko‘radi. Muarrihlarga xos yozish, tafsilot va dalillarning ko‘payishi kompozitsiyaning nomukammallashuviga sababchi bo‘lgan, deb biladi. Asardagi ilmiylikni sof tarixiy asarlarga xos deb hisoblaydi. Omon Muxtorning Navoiy she‘rlaridan topgan ayrim ma‘nolariyu xulosalariga munozarali va cheklangan, hatto shubhali deb qaraydi. Asosiy g‘oya badiiy

44 Qarang: Omon Muxtor. *Ishq ahli*. Roman // *Sharq yulduzi*. 2001. Birinchi fasl, 17-69 b. (Romandan keltilirilgan kўchirmalar shu nashrdan olinib, kavs ichida sahifa kўrsatib borildi)

45 Sodiqov S. *Romanmi eki risola? Ўзбекистон адабиёти ва санъати*, Т.: 2004, 30-январ.

46 Пardaeva З. *Бадий-эстетик тафаккур ривожі ва ўзбек романчилиги*. Т.: 2002, 45- бет

to'qima vositasida ifodalanmagan. Bayonchilik, publitsistikaga xos otashin ko'tarinkilik ruhi bilan sug'orilgan, kabi jiddiy ayblar qo'yadi.

Adabiyotshunos olim I.YOqubovning fikricha, S.Sodiqov Omon Muxtorning roman yaratishdan ko'zlagan maqsadini "*Navoiyning sevgi tarixi to'g'risida roman yaratish*" - deb muayyan darajada biryoqlama belgilagan. Chunki, akademik M.Qo'shjonov ham, filologiya fanlari doktori Z.Pardaeva ham asarning *Navoiy ijod psixologiyasini ochib berishga bag'ishlanganligini* qayd etishgan edi. Ikkinchidan, olim asardagi syujet qurish usullariga etarlicha ahamiyat qaratmaydi. Hozirgi asarlar syujetida ko'zga tashlanib turadigan bir muhim xususiyat – assotsiativlikni e'tibordan chetda qoldiradi. SHuningdek, kompozitsion qoliplash usuliga ham etarlicha ahamiyat bermaydi. Romanning tabiatan o'zgaruvchanlikka moyil, san'atning boshqa turlarini sintezlashtira oladigan, "*zuvalasi pishiq*" (M.Baxtin) janrligini e'tiborga olmaydi. Natijada "*Ishq ahli*" asariga turg'un aqidalar asosida yondashiladi.

Bugungi kunda syujet qurilishi qat'iy qoidalar bilan cheklanmaganidek, tasvirlanayotgan voqealar dinamikasi, san'atkorning ular mag'zini chaqishi muhim sanalmoqda. Tashqi omillar: rivoyaning xronologik tartiblanishi va voqealarning makonda o'zgarishi, xarakterlarni tadrijiy ko'rsatish va izchil mantiqiy dalillashga unchalik zarurat sezilmaydi. Sub'ektiv omillarning kuchayishi shaxsning ichki olami, fikr-o'ylari dunyosiga e'tiborni kuchaytirdi, asosiy diqqat uning qalb dialektikasiga qaratilib, an'anaviy tamoyilga xos hayot hodisalarini zamonda sababiy ketma-ketlikda joylashtirish o'rnini muallif xotiralarida jonlangan voqealar egalladi. Boshqacha aytganda, epik voqealar ichki hissiy jarayonlar hisobiga yanada boyidi.

S.Sodiqov esa "*Ishq ahli*" asari oldiga shunday talablar qo'yadi: "*...YOzuvchi o'z oldiga Navoiyning sevgi tarixi to'g'risida roman yaratish maqsadini qo'yar ekan, asosiy e'tiborini o'sha muhabbat ko'lamini, tug'ilish kurtaklariyu gullagan onlarini, oshiq-ma'shuqlarning tanishuviyu*

uchrashuvlarini, bir-biriga talpinishdan qalblarda uygʻongan cheksiz tuygʻularu onglarini zabt etgan oʻylarini va nihoyat, buyuk insoniy ehtiros tufayli boshlariga tushgan fojiani butun tafsilotlari bilan aks ettirishga qaratishi zarur edi”.

Dotsent I.YOqubov fikricha, bu fikr roman matni bilan hisoblashilmaganidan kelib chiqqan. Darhaqiqat, S.Sodiqov Omon Muxtoni Oybek, Uygʻun, Izzat Sultonlar qalamiga mansub dostonu dramalardan *“oʻtkazib nimadir deyish, ifodalash”* vazifasini uddalay olmagan, deb baholaydi. Oybekning *“Navoiy”* dostonida ham ijod psixologiyasini koʻrsatish, shoirning oʻy-fikrlariyu xayollariga diqqat qaratish; *“Guli va Navoiy”*da xalq afsonalariga tayanish; Uygʻun va Izzat Sultonning *“Alisher Navoiy”* dramasida Navoiy obraziga koʻchgan aksariyat sifatlarning oʻz asarlaridan olinganligiyu xalq ogʻzaki ijodiga tayanilganligi qahramon va mualliflar qarashlari birligini yuzaga keltirgani singari talaygina *“Ishq ahli”* romaniga mushtarak jihatlar negadir qiyoslarda inobatga olinmaydi.

Omon Muxtor *“Tepalikdagi xaroba”*da Lutfiy, Mashrab, Bayron, Mirza Gʻolib; Amir Temur, Bobur, Akbar; *“Ayollar mamlakati va saltanati”* asarida Nodirabegim, *“Aflotun”*da esa Bahovuddin Naqshband, Fayzulla Xoʻja, Abdurauf Fitrat, Ismoil Somoniy singari tarixiy shaxslar siymosini tiklash, fozil odamlarga intiqlik, sogʻinch, ajdodlar bilan mustahkam shajaraviy bogʻliqlikni, *“Turkiston qaygʻusi”* degan armon va iztiroblarga munosib voris boʻlishga intilishni namoyon etgan edi. Tomirlarida ajdodlar qoni oqqan, zamona dardiga malham izlagan, nosirning bobolar *“tuproqʻidan surma olgʻali”* (Fitrat) borgani, ulardagi jurʻat va ishonchdan ruh olgani shubhasiz.

Demak, Omon Muxtor ruhiyati, ijodiy konsepsiyasi, shakliy-uslubiy izlanishlarida ichki mantiq asosida mustahkam rishtalar bilan bogʻliqlik mavjud. Bu uslubla asar yaratish nosir uchun dastlabki qadam emas, balki sinovdan oʻtgan yoʻl. Uning yaxlit uslubiy yoʻnalishini belgilashda voqelikni idrok qilish tarzi, badiiy ifodalashda qoʻllaydigan usullari, oʻziga xos pozitsiyasi, yozish manerasiga diqqat qaratish juda muhim. SHundagina asardan-asarga oʻtib

turuvchi belgilar, tobora yangilanib borayotgan alomatlar yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

“*Ishq ahli*”da Odil tomonidan Barnoga jo'natilgan Abulxayrning daftari bilan bog'liq tafsilotlar o'ziga xos qoliplovchi hikoya. Barno- fikr-mulohazali, yig'iq, ozoda qiz. Ayni paytda, u shu xislatlarga ega har bir kitobxonga murojaat qilish vositasi hamdir. Muallif va kitobxon o'rtasidagi jonli muloqotni ta'minlab turadi. Demak, uning Abulxayr daftariga tegishli voqealardlarda bevosita ishtirok etishi mumkin emas. Qolaversa, Odil kundaliklarni jo'natayotgan Barno nosirning tahayyulidagi har kuni bir qirrasini bilan ochilib, yangidan fath etilayotgan muhabbatning timsoli. Uning protatiplari hayotda qanchadan-qancha ekan. Mushkullarni engishda unga qalbda yashayotgan muhabbat panoh bo'lganligiga ishora, ezgu insonlar bilan ruhiy yaqinlik belgisi. O'tgan yillar davomida o'z yo'lini qidirib, izlanib, o'zgarib, o'zlikni anglab borishi uchun ko'makdosh.

Shu ma'noda Abulxayrning daftarlari ham aslida, Omon Muxtorning kuzatishlaridan bo'lak narsa emas. Agar ana shu mantiqdan kelib chiqiladigan bo'lsa, S.Sodiqovning: “*Odil va Abulxayrga taalluqli tafsilotlar asarda butkul ortiqcha . Ammo yozganlarini bu xilda taqdim etish usuli adib uchun ko'proq voqealar, o'y-xayollar tasviridagi uzuq-yuluqlikni, tartibsizlik va parokandalikni niqoblashga xizmat qiladigan vositadek ko'rinadi*”,- degan fikrlariga qo'shilib bo'lmaydi. Go'yo Abulxayrning (aslida muallifning) betartib yozib borgan kundaliklarini “*bir jildga solib, aniq joyga qo'yish*”(35) istagi beparvolikdan asranishga intilishdan kelib chiqqan tuyg'udir.

Odilning Barnoga ta'kidlashicha: “... bu daftardagi yozuvlarni adiblarning asarlari yoki olimlarning kitoblariga qiyoslash uncha to'g'ri emas. Buni bir kishining, rassomning kuzatishlari deb qabul qilgan durust... Daftarlarni u bahs tariqasida to'ldirgani ham yo'q. Aksincha, shu insonlarning (Oybek, I.Sulton, Uyg'un, T.Fayziy, X.Vamberi, L.Bat nazarda tutilmoqda) yozganlaridan foydalangan! Bundan tashqari u arabiy va forsiy qo'lyozmalarni ko'rib chiqqan.” (61) Odil: “...hech kimga ko'rsatmay yuribman. Uylanadiganga

o‘xshayman”,- degan Barno (69) ni tushunmoq uchun, aniqrog‘i, his etmoq uchun romandagi Abulxayr tuyg‘ulari bilan bog‘liq ikkita holatni nazarda tutish kerak.

Birinchi holat: Birinchi daftarning ilk satrlarida yoziladi:

“Bolaligimda, sandalda yonma-yon o‘tirib, buvim menga Mir Alisher g‘azallarini o‘qib bergan, ajib rivoyatlaor so‘zlagan edi. SHundan buyon Hazratning bo‘y-bastini ko‘rgim keladi. Izlanaman. Lekin, bundan qachondir biron natija chiqadimi, yo‘qmi?!—bilmayman.

YOshim 60 ga yaqinlashdi.

SHoirning butun umri!

O‘zimni tog‘ etagidagi chumolidek sezmoqdaman.” (17).

Ikkinchi holat: Romanning nihoyasi, ya’ni beshinchi daftarda bitiladi:

“Xudoga shukr! Izlanishlarim nihoyasiga etgandek.

*Men uni tasvirlayman, albatta. **Lekin...***

CHeksiz Osmon ni ko‘rgandek bo‘ldim.

CHeksiz Ummon yoqasiga borib qoldim.

Bu “yuk” bilan dunyoda endi qanday yashayman” (68).

Abulxayr ko‘rgandek bo‘lgan Osmon va Ummon cheksizligini umuman tasvirlash mumkinmi? *“Lekin”* va *“uch nuqta”* nimani bildiradi? Romanga Sulton Husaynning Alisher qabrini ziyorat qilishi haqidagi rivoyat nega ilova qilingan?

Bizningcha, rivoyat adabiyotdagi g‘oyatda noziklikni his etish kerakligini alohida ta’kidlash uchun keltirilgan. Husayn xotiralaridagi bolalikka talpinib, Dehlaviy nazokatini, Lutfiy hayratini, Navoiy xushholligining boisini e’tirof etadi. CHunki u kayfiyat kishisi edi. Ruhiy holatlarni ilg‘ay olardi. Muallif Abulxayrni “kuchga to‘lib, yashargan” holatda ko‘rmoqni istaydi. Zero, buyuk ajdodlar ruhi madadkor kuchga ega deb biladi.

Alisher Navoiydek SHAXS siymosini yaratish Omon Muxtorning ruhiy ehtiyojiga aylangan. U ongu tasavvuri, idrok qatlaridagi hayratdan tug‘ilgan o‘ta nozik, yorqin mayllarni o‘z tabiati, iste’dod yo‘nalishiga mos, bisotini to‘laroq

namoyon etadigan janr – shaklda tasvirga aylantirishga uringan. Navoiy shaxsiyati rasmiy andazalardan chetga chiqqani, to‘rt ilmiy mijoz doirasiga sig‘magani uchun nosirning qalb tubidagi tuyg‘ular ham rasmiy munosabat – qarashlardan farqlanadi. O‘ziga xos ifoda, ohang, tuyg‘u va ranglar tovlanishi, muallif - hikoyachi siymosining epik bayon tarzi, xarakterlar yorqinligi bilan ajralib turadi. Muallif Ollohning irodasi – taqdir hukmiga rizo bo‘lgan g‘ussalarni sabr bilan engib, olg‘a intilgan taqdir kishisiga xos daholik va fojiaiviylikni uning qalbiga nigoh tashlab, “bekaslig‘da zor” o‘tgan umr bayoni va ko‘ngil manzaralarini , his-tuyg‘u rasmini topishga uringan. His-tuyg‘ular olamidan tasavvurlar tomon borar ekan, SHarq hayoti, madaniyati va odob-andisha doirasida fikrlagan, oddiy holatlardan ham teran hayotiy ma’no topgan. Tafakkurida yashab kelayotgan ruhiy voqelikni so‘zlab berishga uringan. Uni shuurdagina tuyish, sezish, anglash mumkin. Buning uchun esa savqi tabiiyga suyanmoq talab etiladi. CHunki Omon Muxtor talqini yangicha tafakkur, shakliyl islohot, tadqiqot va tahlil orqali kenchadi. Inson hayoti va kechmish romanda ong va ruhiyatda aks etadi.

Omon Muxtor alohida olingan insonning davri, o‘zi va atrofini qurshagan kishilarga munosabat bildirishni uning falsafasini teran anglashga intilishdan boshlashi bejiz emas. “*Ahli zuhd ichra maqsadg‘a yo‘l*” topmagan Navoiy ishq ahlidan edi. Navoiy tanlagan ustozlar, topgan do‘stlar, tayangan piri komillar, valiylar falsafasidan ajratib, undagi qat’iyat va keskinlikni, hayotsevarlik va insoniy erkni, asarlaridagi ramziy-kinoyaviy mazmunni tushunish, sir-sinoatning tagiga etish mumkin emas.

Zohiran asar markazida Alisher Navoiy turgandek tuyuladi. Uning Mashhad, Iroq, Sabzavor, Hijoz, Tus, SHeroz, Samarqanddagi hayotiga bir qur nazar tashlanadi. Amir Ahmad Hoji (Vafoiy) kabi hokimlar, Hoji Fazlulloh Abullaysiy singari xonaqoh sohiblari, ota-onasi, ukasi Darvesh Ali, jiyani Amir Haydar, yaqinlari Sayyid: Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad, Amir SHayxim Suhayliy, Amiri Maxdum Barlos, Xoja Afzal kabi mehribon, g‘amxo‘r insonlar, ustozlar, tengdoshlar, maslakdoshlar haqidagi mulohazalar ham

romanda aks etganligini inobatga olsak, asarda chindan ham ishq ahli tasvirlanganligining guvohi bo'lamiz. Umuman esa, romanda yaralish va yashashning mantig'i to'g'risida so'z boradi.

Muallif Navoiyning xalq va mamlakat hayotidagi o'rnini tayin etish uchun Ismoil Somoniy, Amir Temur davrlaridagi kuchli markazlashgan mamlakatdagi yuksalish, taraqqiyot, obodonchilik, ilm-fan, san'at va madaniyat gullab yashnaganiyu xalq osoyishtaligini keyingi shahzodalar davri bilan qiyoslaydi. Alisher qismatini Husayn taqdiridan ajratib qaramaydi. Uni Sulton Husaynning doimiy ishonchli maslahatchisi, mamlakat osoyishtaligining garovi deb biladi. Inqiroz jarayonidagi o'ttiz yildan ortiqroq davr osoyishtaligi nafaqat Sulton Husayn iqtidori, balki uni xayrli amallarga undagan Navoiy salohiyati bilan chambarchas bog'lab talqin qilinadi. O'rni bilan keltirilgan Yuliy Sezar va Mark Brut, Seneka va Neron o'rtasidagi do'stligu shogirdlik bilan bog'liq qiyoslar ikki inson o'rtasidagi sharqona mehr-oqibat, olijanoblik, sadoqat tuyg'ularini ulug'lashga, mamlakatdagi fayzli holatning o'sha go'zal do'stlik mevasi ekanligini ko'rsatishga imkon beradi.

Omon Muxtor davr sharoiti, qismat o'yinlari, toju taxt talashlari, kutilmagan xastaliklar, bir-birini ko'rolmaslik, dunyoqarashlarning turfa xilligi, intim mayllardagi farqlanish kabi o'nlab jihatlarni inobatga olib, xolis hukm-xulosalar chiqarishga intilar ekan, unga temuriyzodalarning har biri o'zicha baxtsiz, hayoti foje tuyuladi. Nosir YAzdiy hayotini izohlash, Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarini tushunish, Mirzo Ulug'bek va shahzoda Abdullatif munosabatlariga oydinlik kiritish, hatto Kamoliddin Ali va Alisher bilan bog'liq o'zaro tegishishlarni izohlashda ham xolis yo'l tutadi. Na dushmanlik, na g'ayirlik, na-da rashk, balki oddiy insoniy munosabatlarni kuzatishga muvaffaq bo'ladi.

Romanda muallif tasavvuridagi fikr tasdig'i uchun keltirilgan Navoiy g'azallari shoir devonlarida berilgan tartibga ko'ra emas, ohangi va ifodalagan holatiga ko'ra farqlanadi. Omon Muxtor e'tibor bergan ayrim holatlar:

- *Ishq va Zuhd ahli orasida parishonlanib, ikkilanib turishlik;*

- *shunchaki bir jaydari odam sifatida yashashni istab qolish;*
- *dunyo tashvishlarini unutishni ixtiyor etish;*
- *ovunish ilinjida bo'lish;*
- *g'oyatda toliqish, ruhan ezilish;*
- *o'z-o'zidan xijolat chekish;*
- *og'rinish va hamdardlik;*
- *yolg'izlik, hijron, sog'inch va umidvorlik;*
- *javobgarlik, ishonch;*
- *tinimsiz o'qish-o'rganishdan so'ng tug'ilgan o'n sakkiz ming olam hayrati;*
- *tabiatiga xos keskinlikdan tug'ilgan haqli e'tiroflar;*
- *Oллоhga YAqinlikdan yuzaga kelgan Erkaliklar;*
- *Ogohlikdan maqsadlariga kuch, faoliyatiga SHiddat olish;*
- *shukronalik, qismatga rizolik va sabr-qanoatlilik;*
- *entikish, iftixor, minnatdorlik va qarzdorlik;*
- *jo'mardlik, komillik, pokdomonlik;*
- *mehr-shafqatlilik, g'amgusorlik;*
- *samimiy do'stlik va sadoqat;*
- *insonparvarlik va xalqchillik..*

Omon Muxtor Navoiyning o'y-xotiralari, muhokama-mulohazalari, tug'yonlari orqali borliq va inson, moddiy va ma'naviy qimmatlarni tahlil etadi. Zuhd va ishq ahli haqidagi qarashlar esa adabiy-falsafiy konsepsiyani ifodalashning **shartli vositasi** rolini bajarsa ajab emas. Insonning ruhi va tafakkurida kechgan jarayonlarni qalamga olgan nosirning bosh qahramoni aslida **tafakkur** va **kechnmadan** boshqa narsa emas.

Omon Muxtor romanlarining badiiy-estetik tabiati, "*Ishq ahli*"ning falsafiy-estetik mehvari shunday deyishimizga asos beradi. Tatimli emotsional tafakkur tajribasidan kelib chiqib, tariximizdagi ulug' saltanatlarning barqarorligi va emrilish sabablarini tahlil etgan Omon Muxtor (jumladan, Navoiy) ko'nglidagi kechinmayu tafakkuridagi mushohadadan etakchi fikr kelib

chiqadi. Romanda inson taqdiri va qismati orqali uning ruhoniyyatini aks ettirish negizida jamiyat qiyofasi hamda ruhini namoyon etish, zamondoshimizning mas’ullik tuyg‘usini kuchaytirishga intilish tamoyili kuzatiladi. Badiiy-siyosiy g‘oyani falsafiy idrok etish, talqin qilish orqali jamiyat ruhiyati ochilgan, tarix va qismat orqali ibratli xulosalar chiqarilgan.

Omon Muxtor badiiy zamindan hayotiy mantiq izlagan. Navoiy yaratgan rubobiy she’riyat bag‘ridan ko‘ngil timsolini topa olgan. Bu SHAXS haqidagi tasavvurlar tugalligini shoir yaratgan lirik obrazlar sharhi orqali Navoiyning mushohada olamiga kirib, xayoliy muhabbat falsafasi, lirik-dramatik lavhalar bag‘ridagi jozibali ruhiy holatlar-ko‘ngil manzaralarini aniq ko‘ra bilgan. Real odamning shikasta ruhi, murakkab kayfiyatiyu fuzun dardlarini mutasavvuf-valiylar e’tiqodi bilan chambarchas bog‘lab idrok etgan. Navoiy suvratini taxayyulda yaratishdek mushkul vazifani ishtibohu hayronlik, umidu ishonch hislari qorishiqligida uddalagan. Misralar talqinidan komil va solim ma’nolar topgan. SHuning uchun ham Navoiy kitobxonning ko‘z o‘ngida go‘zal xayolotiyo istak-mayillari, shirin xotiroti va mujrimona tazarrulari bilan namoyon bo‘ladi.

Asarda tuyg‘ular, o‘ylar, xotiralardagi jilvalar tasvir ob’ekti ekan, ruhiy olamdagi behudud poyonsizlik, shubhasiz, tadqiqni talab etadi. Agar bugungi o‘zbek adabiyoti, xususan, nasri ham inson ma’naviyati qirralarini tekshirish, ruhiyatidagi ko‘z ilg‘amas sezimlarni tadqiq etish sari intilayotgan ekan, romanda o‘ychil inson tafakkuri va hissiyoti to‘la namoyon bo‘lgan. Asar Navoiyni to‘laroq anglash, uni fikr tarzi, axloqiy qanoati, e’tiqod yo‘sini jihatidan his va idrok etish imkonini beradi.

Bizningcha, Omon Muxtorning aksar xulosalari sub’ektiv tasavvur va tahminlarga asoslansa-da, dastlabki mulohazalar ekanligi bilan muayyan qimmat hamda zalvor kasb etadi. Qolaversa, badiiy talqinlar ilmiy da’vo ham emas. Binobarin, muallifning hech kimni bahsga chorlash niyati ham yo‘q. U o‘z ko‘ngli istagini qondirish barobarida, dunyoviy talqinlar doirasini mumkin qadar kengaytirish, kitobxon tafakkuri va ruhini erkin havolarga etaklash niyatida.

Pokiza bir insonning samimiy kechinmalari, ezgu xayollari, aziz xotiralari, o'kinch-armonlari, maqsad –muddaolari, intilish-kurashlari, qat'iyat-ulug'vorligi dunyosiga oshno etmoqchi bo'ladi. Uning ifodasi kitobxonning tafakkurini harakatga keltirgan, tuyg'ularini ezgulikka yo'naltirgan ekan, ko'zlangan maqsadga erishilgan. Zero, tarixiy o'tmishning o'zi ko'lamli nigoh va mushohadakorlikni talab etadi.

Navoiyning jorubkash ya'ni farrosh ekanligi bir qarashda g'ayritabiiyday tuyuladi. Ma'lumimgizkim, dunyo g'avg'olaridan kechishni tilasa-da, o'z o'rnini saltanat va jafokash el orasida deb bilgan Alisher Navoiy hayotsevar inson bo'lgan. Ammo o'z hayoti poyonida uning oxirat to'g'risida chuqur o'ylarga tolгани, g'animat umrini ibodat va ijod bilan o'tkazishni orzulagani ham rost. Ulamoning oddiy ishlarni bajarib, faqirona yashashni or deb bilmasligi, aslida to'g'rilik va halollik, iymon va shukronalik belgisi. Osiy bandaning e'tirofi, olamdagi barcha sahvu gunohlar uchun javobgarlikka mas'ulligi, jaholatga qarshi turishining tub mohiyatini ham belgilaydi. Oxirat hisobiga chora izlayotgan kishining xayollari esa o'kinch va armon barobarida mahzunona umidvorlik hamda taskin qorishiqligida kechadi. Navoiy dunyoviy muhabbat havasidan xalos bo'lishga intilar ekan, Olloh ishqini uning ko'nglini zabt etadi. Binobarin, ichki ehtiyoj shoir nigohini erdan ko'kka ko'chiradi ya'ni ruhini yuksaltiradi. Demak uning ishq haqidagi iqrorlari ham eru osmon orasida.

Xoja Abdulla Ansoriy mozori jorubkashi sharafiga musharraf bo'lish aslida anashu muborak ostonani supurish – ozoda saqlash bahonasida ajdodlar ruhidan bahramand bo'lmoqdir. Demak, “farrosh” Navoiyning buyukligi tarix va zamon mujassamlashgan makon – qabristonda turib olamni poklash tilagida, shukrona keltirib, ertadan umidvor bo'lib yashashidagina ko'rinmaydi. Uning ezgu amaliy ishlari: ulkan ziyoratgohning mas'ul va mutasaddi rahbari sifatida olimlar va xodimlar, zaif hamda miskinlarni siylash; ma'naviy pirlarga baland e'tiqod; bu ostonani obod qilish – ramziy-majoziy ma'noda zamonasining barcha bedodliklarini zamindan supurib tashlashga bel bog'lash; o'zini xokisor tutib ruhini yanada poklash; odamlar qalbiga yo'l topib, ularga shafqat nazari

bilan qarash; umuman esa mamlakatda ozodalik va obodlikni ta'minlashga intilishdan iboratdir.

Demak, romanda toat-ibodat va ijod Navoiyning asosiy yumushi bo'lib qolmaydi. Muayyan muddatdan keyin u yana siyosat maydoniga chiqadi. Tadbirkorlik va shijoat ko'rsatadi. Saltanatni emirilish halokatidan asrab, ozodlikni orzulaydi, nur va ziyo ulashadi. Ko'ngli g'oyatda nozikligi bois ba'zan injiydi, ranjiydi. Ammo hech qachon aniq maqsaddan chalg'imagi. Sevadi, seviladi, hijron azoblarida o'rtanadi. Mehnatda fidoyilik ko'rsatadi. O'ziga qattiq ishongan murosasiz haqiqatparvar, isyonkor ruh egasi sifatida jur'at va jasorat bilan haqiqat va adolatni himoya qiladi. Asarlarida ilgari surilgan fikr-qarashlarni yagona fokus –YOr (ishq) dardi atrofida jipslashtira oladi. Garchand SHarqona odob yuzasidan sevgilisining ismini pinhon tutsa-da, muhabbat tug'yonlarini oshkor etadi. YOzuvchining nazdida Navoiy tasavvurdagi yornigina emas, balki ko'ngil armonlari va hayotiy holatlarni ham tasvirga olgan. Bag'rikeng va olijanob shaxs bo'lgan Navoiyning oddiy inson sifatidagi hayoti hukmdorlik va faqirlik orasida kechgan. SHubhasiz, u Ollohnin qalbida tanigan. Ammo bu yo'l insonni sevish orqali ulkan muhabbatga erishish tarzida kechgan.

Ko'rinadiki, romandagi Navoiy ma'naviy pirlarga e'tiqodi baland, xayr-sahovatli binokor, himmati baland mehribon inson sifatida fuqaroga shavqat nazari bilan qarab, uning qalbiga yo'l topuvchi kishidir. YOzuvchi qalb va qiyofa birligini ta'minlash yo'lidan borib, o'tgan umrini sarhisob qiladigan xokisor e'tiqod kishisi, o'z maqsadlarini aniq belgilab olgan fidoyi insonning shiddatli ruhi, adolat va haqiqat tantanasi uchun kurashdagi mehr-shavqatini ulug' darajasiga munosib tarzda tasavvur qiladi hamda tasviray oladi.

Bizningcha, Omon Muxtorning aksar xulosalari sub'ektiv tasavvur va tahminlarga asoslansa-da, tarixiy o'tmishni ko'lamli nigoh hamda mushohadakorlik asosida ifoda etgan dastlabki mulohazalar ekanligi bilan muayyan qimmat hamda zalvor kasb etadi. U o'z ko'ngli istagini qondirish barobarida, dunyoviy talqinlar doirasini mumkin qadar kengaytirish, kitobxon

tafakkuri va ruhini erkin havolarga etaklash niyatida. Demakki, bizni pokiza bir insonning samimiy kechinmalari, ezgu xayollari, aziz xotiralari, o'kinch-
armonlari, maqsad-muddaolari, intilish-kurashlari, qat'iyati va ulug'vorligi dunyosiga oshno etmoqchi bo'ladi. Uning ifodasi kitobxonning tafakkurini harakatga keltirgan, tuyg'ularini ezgulikka yo'naltirgan ekan, ko'zlangan maqsadga erishilgan.

Muallif Navoiyning xalq va mamlakat hayotidagi o'rnini tayin etish uchun Ismoil Somoniy, Amir Temur davrlaridagi kuchli markazlashgan mamlakatdagi yuksalish, taraqqiyot, obodonchilik, ilm-fan, san'at va madaniyat gullab yashnaganiyu xalq osoyishtaligini keyingi shahzodalar davri bilan qiyoslaydi. Alisher qismatini Husayn taqdiridan ajratib qaramaydi. Uni Sulton Husaynning doimiy ishonchli maslahatchisi, mamlakat osoyishtaligining garovi deb biladi. Inqiroz jarayonidagi o'ttiz yildan ortiqroq davr osoyishtaligi nafaqat Sulton Husayn iqtidori, balki uni xayrli amallarga undagan Navoiy salohiyati bilan chambarchas bog'lab talqin qiladi. Ikki inson o'rtasidagi sharqona mehr-oqibat, olijanoblik, sadoqat tuyg'ularini ulug'lab, mamlakatdagi fayzli holatning o'sha go'zal do'stlik mevasi ekanligini ko'rsata oladi. Asarda tuyg'ular, o'ylar, xotiralardagi jilvalar tasvir ob'ekti ekan, ruhiy olamdagi behudud poyonsizlik, shubhasiz, tadqiqni talab etadi. Romanda inson taqdiri va qismati orqali uning ruhoniyyatini aks ettirish negizida jamiyat qiyofasi hamda ruhini namoyon etish, zamondoshimizning mas'ullik tuyg'usini kuchaytirishga intilish tamoyili kuzatiladi. Badiiy-siyosiy g'oyani falsafiy idrok etish, talqin qilish orqali jamiyat ruhiyati ochiladi, tarix va qismat orqali ibratli xulosalar chiqariladi.

Agar bugungi o'zbek adabiyoti, xususan, nasri ham inson ma'naviyati qirralarini tekshirish, ruhiyatidagi ko'z ilg'amas sezimlarni tadqiq etish sari intilayotgan ekan, romanda o'ychil inson tafakkuri va hissiyoti to'la namoyon bo'lgan. Asar Navoiyni to'laroq anglash, uni fikr tarzi, axloqiy qanoati, e'tiqod yo'sini jihatidan his va idrok etish imkonini beradi. Bu roman-dilogiya yozuvchining yuqori va ancha mukammallashgan uslubiy yutug'i bo'libgina qolmay, navoiyshunoslik, navoiyxonlik olamida o'ziga xos badiiy tajriba,

shuningdek, o'zbek adabiyoti taraqqiyotida ko'zga tashlanadigan muhim yangilik hamdir. SHuning uchun ham bu dilogiya O'zbekiston respublikasi Davlat mukofotiga munosib deb topilgan edi.

3.2. YOzuvchining badiiy syujet yaratish mahorati

Asardagi personajlararo aloqa, munosabatlar kelib chiqadigan voqealar tizimiga yoki qatoriga syujet deymiz. Taniqli adabiyotshunos olim T.Boboevning «Adabiyotshunoslikka kirish» kursi bo'yicha o'quv qo'llanmasida syujetga shunday ta'rif beriladi: «Syujet (fransuzcha *sujet* – predmet, mazmun) – adabiy asarida tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi voqealar sistemasi, kengroq ma'noda konkret voqealar tizmasida namoyon bo'ladigan xarakterlar tarixidir».⁴⁸

YUqoridagi keltirilgan syujetga bog'liq ta'riflarning hech birini ham Omon Muxtor romanlaridagi syujetga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Mazkur romanlar yangi uslub asosida yozilgan. Romanlar syujetida qahramonlar hatti-harakatlari tasviridan ko'ra ularning ongi, tafakkur tarzi, o'y-fikri, hayoli, ma'naviy qiyofasi tasviri ustun turadi.

«Ayollar mamlakati va saltanati» romani shaklan o'ziga xosligi, ohanglarning rang-barangligi bilan boshqa romanlardan ajralib turadi.

Asarning qisqacha mazmuni quyidagicha; «Olim ismli bir yigit bo'ladi. mana shu odamning hayoti va uning hayollari aks ettirilgan bu roman juda o'z vaqtida paydo bo'lganligi bilan o'quvchining e'tiborini tortadi. Olim oilali bir o'g'li va qizi, sevikli Hurriyat ismli ayoli bor.

YAkshanba kuni.

Dam olish kuni. Olim Zebo bilan uchrashuv belgilagan. SHunga bormoqchi edi. Lekin ayoli Hurriyatning gaplari uni ikkilantirib qo'ydi.

Hurriyat. Ertaga yakshanba. Bolalar bilan siz ham o'tirsangiz?! YOki bunday bir ko'chaga olib chiqasizmi?! – degan mazmunda g'udrandi.

Bunga javoban Olim ertaga ishim ko'p, zarur ishim bor edi deb

48 Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. Тошкент, 1979, 107-110 бетлар

to'ng'illaydi.

Xullas er-xotin orasida bo'lib o'tgan gap-so'z shu.

Olim yakshanba kuni ertalab uyidan chiqib ketadi! Yo'lida kelayotib, Olim uyida bo'lib o'tgan janjalni o'ylaydi. Agar Olim Zeboni bog'-hovliga taklif qilmagan – mehmonga chaqirmaganida, shubhasiz! – bolalarini ko'chaga aylantirar, ularning ko'nglini olish bilan shug'ullanar edi. Yo'lda ketayotib Olim juda qiziq manzaraga duchor bo'ladi. Olim yuzlashgan xalqa yo'lni qoq o'rtasidan jarlik kesib o'tgan: jarlik ustida ko'prik ham ko'zga tashlanar edi.

Jarlik tubida, suv bo'yida – sochlari elkalarida yozilgan, lekin elkalari ochiqmi? Nima balo?! – badanlari ham oz-moz ko'ringan – bir to'p ayol tizilib o'tirishar edi!

Bular ko'rinishidan qishloq ayollari emasdi.

SHahrlik, desang, quyosh endi nayza bo'yi ko'tarilgan ertalabki, choqda bu erda noma'qulning nonini eyishyaptimi?! – aql bovar qilmasdi.

Olim o'yildi: -ayollar- boshqa, katta bir olam ekan-ku!

O'sha kuni uni negadir hijolatmi, vahmchami o'xshagan –xissiyot cho'lg'agan edi?

-U zardo'zlik artelida ham qo'llarini «CHumchuq cho'qigan» ayollarni uchratdi.

Olim nazarida o'sha jar yoqasida ko'rgan ayollar tanish edi».

Roman mana shunday davom etadi. Asarda juda ko'p tasviriy ifodalar berilgan. Ayollar mamlakati va saltanati»- deb nomlangan bu asarida asosan qishloq ayollariga e'tiborni ko'proq qaratadi. Nega deganda qishloq ayollari ertalab dalaga chiqadi. Kelib bolalariga qaraydi, ro'zg'or yugur-yuguri deganday uning orasida uy yumushlari, elchilik maraka, to'y-hasham degandek. Dalaga chiqib ketmon chopadi, paxta teradi. Oftobda qop-qora bo'lib dehqonchilik qiladi. Asarda shularga qarata bir jumla berilgan.

Olim ichkariga kirib, ularni tomosha qiladi:

Gardish ichida ilondek buralgan. Ayol haykali...

Tosh ko'targan Ayol haykali...

To'p tepayotgan Ayol haykali...

Kombayn mingan Ayol tasviri...

Mashina, paxta terayotgan Ayol tasviri...

Kran ustida osmonu-falakdagi qutida o'tirgan Ayol tasviri...

Dalada ketmon chopayotgan Ayol tasviri...

Haykal va tasvirlar ostida «Ozodlik», «Baxt -saodat», «Kamolot» degan so'zlar yozib qo'yilgan edi!

Asarda Hurriyat, Zebo, Malohat, Nazira, Baxtigul, Hamida, Olim Toji aka, Ergash, Ismoil kabi qator obrazlar berilgan. Asarda mana shu obrazlar uning syujet yo'nalishini belgilaydi.

Vaholanki inson - bu inson. U xato qilishi mumkin. Ezgulik ham, yomonlik ham qilishi mumkin. «Bir yaxshining bir yomoni» deganlaridek eng yomon odam har bir ezgulik qilishi mumkin-ku! Romanchiligimiz otasi Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlari»da O'zbekoyim, Zaynab, Xushro'ybibi, «Mehrobdan chayon»da Solih Mahdum, Sultonali, CHO'lponning «Kecha va kunduz»idagi Miryoqub, Noib To'ra obrazlari chin ma'nodagi hayotiy-realistik obrazlardir. Omon Muxtorning «Ffu» romani qahramoni Toshpo'lat obrazi ham yuqoridagi asarlardagi qahramonlar kabi murakkab karakterlidir. Omon Muxtorning «Ffu» romani rivoyat roman bo'lib, uni 1996-97 yillarda yozib tugatadi.

«...Ustida jonda, boshida quloh bir to'p qalandarlar: «Haq do'st, yo Olloh»- degancha bozorni aylanib, karvonsaroyga bormay, to'g'ri qabristonga borib, tamaddi qila boshladi. Biro, nega bunday qildinglar, deb qiziqqanida, ular kulishdi: - hammaning ham axiyri keladigan joyi shu.. »⁴⁹ -deb yozilgan epigraf ostida boshlangan bu asar falsafiy mazmunga ega asarlardan biri.

Asarning mazmuni haqida to'xtalsak. Toshpo'lat ismli hunarmand kishi bir kuni bozorga borib, insonlarning hayotini zumdan kuzatadi. Hamma nima bilandir mashg'ul. Kimdir olayapti, yana kimdir sotayapti. Xullas, bozorga

49 Мухтор О. Ффу. роман, Тошкент, 1997, 3-бет

kimdir xarid qilgani keladi, kimdir sotgani. Toshpo‘lat qarasa, chekkada oldida hech vaqosi yo‘q bir kishi mung‘ayib o‘tirganini ko‘radi. Usta Toshpo‘latni mana shu odam qiziqtirib qoladi. Keyin bir ikki marta bozorga borib uni zimdan kuzatadi. Va bir kuni uning oldiga boradi. U kishi nima qilib o‘tirganini so‘raydi. O‘sha kishi shunday javob qiladi: « - Mening sotadigan hech vaqoyim yo‘q. Men sotmoqchi bo‘lgan narsa senga kerak emas, bu yuz ko‘zingdan ko‘rinib turibdi»- deydi. Toshpo‘lat: «-Menga kerak bo‘lmasa o‘g‘limga kerak bo‘lar o‘sha narsa»,- deb juda qiziqib yana so‘raydi. O‘sha kishi «Men aqlimni, sotmoqchiman» – deydi. Bu gapni eshitgach usta hunarmand hangu mang bo‘lib qoladi... xullasi bu ikkisi hisob-kitob qilishadi.

Toshpo‘lat uyiga keladi. Bir kuni u o‘g‘li bilan choy ichib o‘tirsas, bir to‘ti kelib Toshtemirning kaftiga qo‘nadi. Keyin yana uchib ketadi. Avvaliga shunday chiroyli to‘tini ko‘rib juda quvonadi, lekin to‘ti uchib ketganidan jahli chiqib «Ffu» deydi. SHu voqeadan keyin uning hayoti tubdan o‘zgaradi.

Toshtemir Toshpo‘latning yakkayu yagona o‘g‘li bo‘ladi. Onasi vafot etgach, u juda kamgap bo‘lib qoladi. Faqat 3ta so‘zni aytar edi xolos. YA’ni biror narsadan quvonsa «oh-oh», biron narsadan ajablansa «iyi», norozilansa «Ffu» deb qo‘yardi. Toshtemir o‘sha bo‘lgan voqeadan keyin juda ko‘p gapiradigan, ko‘p ishlaydigan bo‘lib qoladi.

Umuman, roman mana shu tahlitda boshlanadi. Roman voqealari birgina Toshtemir obrazi atrofida rivojlanib boradi. Asarning shakli va mazmuni birgina Toshtemir obrazi bilan bog‘liqdir. Uning qarashlari, fikrlari, bo‘layotgan voqealarga munosabati asarning o‘zak nuqtasini tashkil etadi.

Badiiy ijodda mazmun va shakl dialektik birlikda va bir-biriga o‘tuvchi xodisa sifatida qaraladi. Haqiqatan ham mazmun va shakl bir-biri shu qadar uzviy bog‘liqki, ularning biri ikkinchisiz yashay olmaydi: shakl biror narsa (mazmun)ning shakli, tashqi ko‘ranishisiz shaklni anglash mumkin emas. Mazmun ham biror shaklda namoyon bo‘ladi- shakl mazmunga aniq tashqi ko‘rinish bo‘ladi, unga go‘zallik bag‘ishlaydi. SHunga ko‘ra, mazmun va shakl bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Biroq bu birlikda mazmun etakchilik qiladi-o‘zi

o'zgarishi bilan shaklning o'zgarishiga sababchi bo'ladi. SHakl esa mazmunga nisbatan bir muncha sekinroq o'zgaradi. SHu sababli, badiiy ijodda yangi mazmun bilan eski shakl o'rtasida ziddiyat kelib chiqishi ham mumkinki, u albatta, shaklni o'zgartirishga olib keladi.

Voqelik, ijtimoiy turmush muommalari san'at asarining mazmunini, mohiyatini tashkil qiladi. O.Muxtorning «Ffu» asarining mazmuni deganda biz asarda tasvirlangan Toshtemirning qismatini ko'z o'ngimizga keltiramiz. San'at asarida voqelik ijodkorning nuqtai nazarini, ya'ni dunyoqarashi taqozosiga ko'ra tasvirlanadi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchining dunyoqarashi san'at asarining mazmunida o'z ifodasini topadi, unda chuqur iz qoldiradi. San'atda ijodkor tomonidan anglashilgan voqelik tasvirlanadi. SHunga ko'ra, san'at asarining mazmuni deganda biz muayyan asarda ifodalangan g'oyaviy mazmunni tushunamiz. «Ffu» asarining g'oyaviy mazmunini tahlil qilar ekanmiz, biz shu jarayonda yozuvchining hayotni qanday tushunganini va unga qanday baho berganini aniqlaymiz. YOzuvchining hayotga munosabati - unga bergan bahosi asardagi obrazlar tizimida o'z ifodasini topadi. Asarda Toshtemir obrazi orqali yozuvchi ikki xil kishi qiyofasini yaratgan. YA'ni biri xalqni o'ylaydigan, birovga yomonlikni ravo ko'rmaydigan inson bo'lsa, ikkinchisi xalqni o'ylamaydigan, faqat o'zini o'ylaydigan, hurmat, mehr-shafqat kabi insoniy tuyg'ularni bilmaydigan, boy obraz sifatida tasvirlanadi.

Asardagi obrazlarning ismlari ham o'zgacha. Masalan, Toshpo'lat, Toshtemirning dadasi. Boshiga qanchalik musibatli kunlar tushmasin, barisin sabr-bardosh bilan engib kelgan shaxs. SHuning uchun ham joni po'latdek mustahkam, toshdek qattiq. Mening nazarimda bu obrazdagi mana shu xislatlarni hisobga olgan holda yozuvchi Toshpo'lat nomini bergan bo'lsa ajabmas.

Romanda Toshtemir tilidan insonga shunday ta'rif beradi. *«Men uchun inson olamning gultoji, borliqning shohi! O'z aqli, o'z kuchiga ishonadi! Osmondan marhamat, ehson kutmaydi! Dunyoning to'rt kunlik ekanini biladi.*

Bir marta berilgan hayotni mashaqqatlardan qarqmay, rohat-farog'atda o'tkazadi»

Asarning rivoyat - roman deb atalishi ham o'ziga xos bir xususiyat. YA'ni shakl va mazmun jihatidan rivoyatga o'xshaydi. Muxtor Omon bu asarni yaratayotib, o'quvchilarga ongli turda o'qishni ham-bu hayotning turli so'qmoqlari, past-baland yo'llari ham bor ekanligini ta'kidlab turadi. Mulla Toshpo'lat va Toshtemir obrazlari adabiyot maydonida takrorlanmas bir mo'jiza deb atasa bo'ladi. Asarda Mulla Toshpo'lat, dadasi, marhuma onasi, afsungar, avliyo Haydar Maxsum, Ilyos va Toshtemir, Nigor obrazlari keng yoritilgan. Omon Muxtor o'zining «Ffu» romanida rivoyat aralash hodisalar xarakterini yaratadi. Omon Muxtor romanlari shakl-shamoili syujet tuzulishi, ifoda tarziga ko'ra yangicha.

Xulosa qilib aytganda, Omon Muxtor romanchiligimiz an'analarini boyitishga xizmat qilib kelayotgan, ayni paytda Qodiriy, CHO'lpon, Qahhor kabi adiblarimizning milliy qahramoni yaratish an'analarini kelajak avlodga etkazuvchi halq hamdir. Omon Muxtor romanlaridagi qahramonlar XX asrdagi milliy qahramon yaratuvchilarga o'ziga xos maktab vazifasini o'tashga shubhamiz yo'q.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi davr o'zbek romanchiligi, xususan O.Muxtor ijodida shakliy-uslubiy izlanishlar faol davom etib, yuksalib kelmoqda. Bizningcha bu:

Birinchidan, o'zbek romanchiligida mavjud tajribalardan butkul uzilgan hodisa bo'lmay, uning zaminida tug'ilgan va davom etayotgan jarayondir.

Ikkinchidan, har bir asarda muayyan yozuvchi uslubi o'ziga xos bo'lganidek, u yoki bu yozuvchi uslubini to'la shakllangan deyish, yanglish xulosalarga etaklashi mumkin.

Uchinchidan, romanchilikdagi uslubiy izlanishlar yangilanayotgan tafakkur va davr talabi, kitobxon ma'naviy-ruhiy ehtiyoji tufayli yuzaga kelmoqda.

To'rtinchidan, alohida yozuvchining iqtidori, salohiyati, ma'naviy-ruhiy qiyofasi, izlanishdagi faolligi, qiziqish doirasi kabi ko'plab omillar individual uslubni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman, dissertatsiyada ilgari surilgan fikr-mulohazalarimizni quyidagicha umumlashtirish va xulosalash mumkin:

1. Har bir asarda yozuvchi o'zligi: o'y-tushuncha, his-tuyg'ulari namoyon bo'ladi. Muallif betakror iste'dodining tabiati, ijodiy qiyofasini aks ettiruvchi uslubiy tamoyillari mavjud bo'lib, shu asosda asarni tashkil etuvchi unsurlar tizimi bir-biriga tutashadi. Binobarin, chinakam badiiy hodisa tabiatan betakrordir.

2. Adabiy yo'nalish uslubi tamoyili muayyan bosqichga (davrga) xos

umumlashmalar chiqarish imkonini bersa-da, individual shakliy-uslubiy izlanishlar: alohida olingan asar uslubi va adib mahoratini etarlicha inkishof etishni nazarda tutmaydi.

3. Individual uslub yorqinligi milliy adabiyot tajribasi, xalq ijodi va o'tmish adabiyoti an'analari, milliy ruh, urf-odat, til xususiyatlariga e'tibor orqali ta'minlanadi. Uslubiy izlanishlar samarasini adib iste'dodining tabiati, hissiy tafakkur tarzi va ularni ifodalash yo'sini belgilaydi. Demak, uslubiy individuallik yozuvchining poetik fikrlashi va hayotni ifodalash xususiyatlari majmuidir. U badiiy asarning barcha qatlamlarida (badiiy matnning tuzilishi, ritorika, badiiy voqelikni yaratish prinsiplari-poetika) namoyon bo'ladi.

4. Badiiyatning qonuniyatlaridan kelib chiqishgina uslub tabiatini to'g'ri tushunish imkonini beradi. Uslubiy izlanishlar samarasini ijodiy, ijtimoiy-psixologik sharoitning etilishi va yozuvchining ma'naviy-ruhiy olamidagi tebranishlardan, jahon adabiyoti tajribalariga hamohanglikdan izlash lozim. O'zbek modernizmi millat ruhidagi axloqiy-ma'rifiy qadriyatlarga yaqinlik jihatidan o'ziga xoslik kasb etadi.

5. O'zbek nasridagi milliy uslub tadrijiy tarzda uzluksiz rivojlangan. Bugungi o'zbek romanchiligidagi uslubiy izlanishlar mavjud tajribalar zaminida tug'ilib, shakllanmoqda. U davr talabi, yangilanayotgan tafakkur, kitobxon ma'naviy-ruhiy ehtiyoji, alohida yozuvchining iqtidori, salohiyati, izlanishdagi faolligi, qiziqish doirasi kabi ko'plab omillarga bog'liqdir.

6. Tarixiy-adabiy jarayon dinamikasi roman janri semantikasining kengayishiga imkon bergan. Poetik strukturasi nisbatan takomillashgan va voqelikni ifodalash imkoniyati boy bo'lgan roman latifa, ertak, doston va boshqa janrlarga xos xususiyatlarni o'z tarkibiga singdira oladi.

8. Omon Muxtorning «*Ming bir qiyofa*» romani uslubi muallif iste'dodining umumiy yo'nalishidan kelib chiqadi. Badiiy idrok qilish va ifoda tarziga ko'ra roman uchun tanlangan uslub uning nasriga xos uslub taraqqiyotida o'ziga xos halqani tashkil etadi. Romanda xalq latifa va ertaklaridan xalq eposidagi afsonaviy yakka qahramonga xos bir kishi tabiatida turfa tuyg'u-

xislatlarning umumlashtirilishi, Gulxaniy va Fitrat asarlariga hamohang serqatlam ramziylik va teran falsafiylik, kinoyaviy ishoralar hamda umuminsoniy mavzularning qamrab olinishi, xalq idealini ifodalash kuzatiladi. Tasviriy ifoda usullari badiiy maqsad mohiyatini o'ziga xos tarzda yoritish imkonini beradi. O.Muxtor o'z fikr-mulohazalarini ertak mazmuni, latifalar mantig'idagi xalqchilikdan foydalanib real qahramonlar shaxsiyati, ruhiy olami va intilishlari mohiyati bilan uzviy tarzda tutashtira oladi.

9. Omon Muxtor odamga bo'lgan munosabatda uning insoniy mohiyatiga qarab hukm chiqarishga, idrok etishga urinmoqda. Real hayotiy voqealar tasviri bilan turli-tuman rivoyat va afsonalarning o'zaro chatishib ketishi, taxayyulga erk berilishi jihatidan bunday izlanishlar CH.Aytmatov va Markes uslubiga yaqin turadi.

10. YOzuvchi hikoya qilish samimiyatini ta'minlashda o'tmish manzaralari va xalq donishmandligi pardasiga o'ralgan real voqelik lavhalaridagi o'ziga xos uslub u yaratgan romanlarning ishonchlilik darajasini oshiradi. XX asr jahon adabiyoti ilg'or tajribalarining milliy zaminga tayanib, roman konsepsiyasiga singdirilishi, o'zlashtirilishi o'zbek romani poetik imkoniyatlari doirasining yanada kengayayotganligini ko'rsatadi. An'anaviy jihatdan folklor va mumtoz adabiyotdan uzilmagan holda jahon adabiyoti ilg'or tajribalariga hamqadam bo'lish O.Muxtorning romanchilikdagi uslubiy izlanishlari mustahkam negizlar asosida boyib borayotganini ko'rsatadi.

11. Asotirlar va mifologik qarashlar asosida yuzaga kelgan e'tiqodiy inonchlar O.Muxtor tafakkur tarzi orqali «*Aflotun*» romani bayon uslubi va qisman shakliy jihatiga ko'chgan. An'anaviy folklor motiviga ijodiy yondashish orqali nosir uslubida ramziylikning kuchayishi ta'minlagan. Mif o'zining yashash shakli va mazmuni xarakter jihatidan sof asotirlik xususiyatini yo'qotgan holda roman janriga singib o'tgan. Bu hol bugungi o'zbek romanlari taraqqiyotidagi ayrim tamoyillar insoniyatning turli bosqichdagi tushuncha va aqidalari bilan uzviy tarzda tutashish orqali ham ta'minlanayotganligini ko'rsatadi. O.Muxtorning mif mazmunini qayta o'zlashtirishi, rang bilan bog'liq

barqaror ramzlarning mif mazmuni bilan muvofiq va uyg'un chiqishiga ahamiyat qaratishi poetik mushohadaning badiiy-estetik qimmatini oshirgan va konkret roman uslubidagi o'ziga xoslikni keltirib chiqargan.

12. YOzuvchi etakchi fikr badiiy ta'sirini yanada kuchaytirishga erishgan. Roman dramatizmi va syujet dinamikasini teranlashtirish imkonini topa olgan, o'ziga xos uslub yaratgan. Adib rivoyat mazmunini roman to'qimasining uzviy bir bo'lagi sifatida talqin qilib, ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga erishgan. Natijada real davr muammolarini falsafiy-psixologik jihatdan umumlashtira olgan. Kompozitsion mukammallik va syujet izchilligini ta'minlab, ijtimoiy hayotga bo'lgan o'z munosabatini majoziy usulda ifodalashga erishgan. Ko'rinadiki, O.Muxtor romanlarida adabiy mistifikatsiya romanbop rivoyani taraqqiy qildirish tamoyillaridan biriga aylangani, u yaratgan asarlar poetikasida bu tipdagi kiritmalarning o'rni salmoqli ekanini ko'rsatadi.

13. O.Muxtor kiritmalardan foydalanar ekan, goh uning shakl va mazmunini to'la saqlaydi, gohida esa bunday kiritma mazmuni orqali o'z falsafiy fikr-o'ylarini izohlaydi, to'ldiradi. Ijodiy fantaziyaning boyitish, taxayyul ufqlarini kengaytirishga erishadi. U roman konsepsiyasida shartli ramziy uslubni teranlashtiradi. YOzuvchi rivoyatlar mazmuni bilan qahramon shaxsiyati, ruhiyat iqlimi, intilishlari mohiyatini uzviy tarzda tutashtira oladi.

Demak, bugungi o'zbek romani o'ziga xosligini ta'minlash, undagi sharqona ruhni kuchaytirish, falsafiy fikr salmog'i va ta'sirchanlikni oshirish, ifoda jilosini yangilashda milliy-adabiy an'analar bilan bir qatorda O.Muxtorning tinimsiz izlanishlari, yangi shakliy uslubiy tamoyillarga murojaat etib, SHarq va G'arb adabiyotlarining muayyan sintezlashuvidan yuzaga keluvchi uslub salmoqli o'rin tutadi.

MAVZUNING AMALIYOTGA TATBIQI

Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, ta'lim tizimiga alohida e'tibor berilmoqda. *“Ta'lim to'g'risidagi Qonun”*, *“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”*, Respublika Prezidentining farmonlari va hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar o'quv predmetlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda boshqa o'quv-metodik vositalarni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonun qabul qilingandan so'ng o'rta umumta'lim tizimida o'qitiladigan fanlardan davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari ishlab chiqildi va hukumat tomonidan tasdiqlandi. Mamlakatimizda ta'limning huquqiy asoslari, istiqbollari qonun bilan, uning mazmun va sifati standartlar bilan, tashkiliy-amaliy jihatlari o'quv dasturlari bilan belgilangan, o'quv-metodik tadbirlar darslik va qo'llanmalarda tavsiya etilgan. Demak, jamiyatda sohaning qonuniy, huquqiy, tashkiliy asoslari yaratilgan, tizimga solingan. Endi bu yog'i ana shu “belgilab qo'yilgan” larni amalga oshiruvchi muassasalar, ta'lim amaliyotining ishtirokchilari: pedagoglar, soha rahbarlari, shuningdek, o'quvchilar va ularning ota-onalariga bog'liq.

Ta'lim bosqichlarida o'qitiladigan hamma predmetlar uchun bir xil shart-sharoit, o'quv, moddiy-texnik baza yaratilgan. Ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan muvaffaqiyatlar, qo'lga kiritilgan yutuqlar ham bor. Lekin har bir predmet bo'yicha ishlar sarhisob etilganda turlicha natijalar qayd etilayotganligiga guvoh bo'lamiz. Ilmiy-nazariy asoslari deyarli barqaror, o'zgarmas bo'lgan tabiiy-matematik fanlar bilan jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy,

mafkuraviy qarashlariga aloqador bo'lgan ijtimoiy-gumanitar fanlarga yondashuv o'rtasida tafovut bo'lishi tabiiy bo'lganidek, ularni o'qitishda duch kelinadigan muammolarda ham ayrichaliklarning bo'lishi turgan gap. Chunki mustaqillikdan keyin nazariy mohiyati tubdan qayta ko'rib chiqilgan ijtimoiy fanlarning ilmiy-pedagogik, o'quv-metodik asoslariga yangicha yondashuvni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Barkamol shaxsni shakllantirish nafaqat adabiy ta'lim, balki O'zbekiston maktablaridagi barcha fanlarni o'qitishdan ko'zlangan bosh maqsaddir. *“Barkamol avlod orzusi”* kitobida mamlakatimiz rahbari I.A.Karimovning fikrlari, o'y-mulohazalari bilan tanishgan odam barkamol shaxs tarbiyasiga davlat miqyosida nechog'liq jiddiy ahamiyat berilayotganligiga amin bo'ladi.⁵⁰ Ta'lim tizimidagi har bir predmetning bu borada muayyan imkoniyatlari bor. Lekin ularning har biri shaxs komilligining qaysidir bir sifati, muayyan jihatini shakllantirishda alohida mavqega, imkoniyatga ega. Adabiyot esa o'quvchi shaxsiyatida ruhiy poklik, ma'naviy yuksaklik sifatlarini tarbiyalashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ma'naviyat insonda yaxlit holda namoyon bo'ladigan fenomendir. YUrtboshimiz ta'kidlaganidek, *“Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta”*⁵¹.

Endilikda o'zbek adabiyoti tarixi yangilanayotgan badiiy tafakkur talablari asosida qayta idrok etilmoqda, bu davrda yaratilgan asarlarning asl mohiyatini ochishga harakat qilinmoqda. Adabiyotshunoslik uzoq vaqt mobaynida badiiy asarlarni asosan ijtimoiy nuqtai nazardan tekshirishga moslashgan bo'lsa, endi mavjud qoliplarni tark etaroq, badiiy matnga estetik talablar asosida yondashishga, har qanday xulosani matndan keltirib chiqarishga urinmoqda. Natijada, ko'plab bitiklarning asl badiiy qiymati, bir qator adiblarning millat

50 Баркамол авлод орзуси. -Т.: “Шарқ”, 1999.

51 Ислон Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Т.: “Маънавият”, 2008. 136-бет.

estetik tafakkuri taraqqiyotidagi tarixiy o'rni xolisona belgilanayotir.⁵²

Adabiyotshunoslik ilmida ro'y berayotgan yangilanishlarni adabiyot o'qitish jarayoniga tadbiq etish o'tgan asr 90-yillarining birinchi yarmidan boshlab yaratilayotgan dastur, darslik va qo'llanmalarda aks etib, bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Bu o'z navbatida Respublika maktablaridagi adabiyot o'qitish ishiga ijobiy turtki berdi. Uzliksiz ta'lim tizimi dastur va darsliklarini yaratish ishlariga respublikamizning taniqli olimlari va metodistlarining jalb qilinishi sohada muayyan yutuqlarga erishishimiz uchun zamin hozirladi. Bu borada Q.Yo'ldoshev, B.To'xliiev, S.Matchon, M.Mirqosimova, Q.Husanboeva, V.Qodirovlarning olib borgan tadqiqotlari, yaratgan monografiya va qo'llanmalari alohida e'tiborga molikdir.

Istiqlol davri adabiyoti tub sifat o'zgarishlarini boshidan kechirdi. YOzuvchilar olam, odam haqida avvalgidan o'zgacharoq fikrlash mumkinligini angladilar va o'zlari ham shunga ko'nika boshladilar. Istiqloldan oldingi yillarda jamiyat faqat sinfiy kurashlar asosidagina taraqqiy etishi mumkin bo'lganidan asarlarning qahramonlari, kimga bo'lsa-da qarshi kurashib turishi joiz edi. Kurashganda ham, albatta, ijobiy kuchlar, ya'ni mehnatkashlar yoxud boyonlarning mehnatkashparvar vakillari engib chiqishlari zarur bo'lardi.

Endilikda olamni, odamni, uning tuyg'ularini turlicha ifodalaydigan asarlar paydo bo'lmoqda. Bir xil asosdagi xilma xillikdan chin badiiy turfalik yo'liga o'tila boshlandi.

Istiqlolga erishilganidan keyin yaratilgan ko'pgina asarlarda oliy rutbaga ko'tarilgan, dunyo yaralishining sababi, adoqsiz ilohiy nur ila yo'g'rilgan zot deb qaralgan insonning hayvoniy va shaytoniy nafsı bois gunohga moyil hamda o'sha gunohlar tufayli qabihliklar ham qilishga qodir, ayni paytda qilgan gunohlari sabab qiynaladigan o'ta murakkab mavjudot ekani tasvirlanmoqda.

Istiqlol adabiyoti insonni jo'nlikdan, to'porilikdan, anchayinlikdan qutqardi. Uni murakkablashtirdi, noziklashtirdi, bir xil qarashlar tizimi bilan

52 Қозоқбой Йўлдош. Ёник сўз. -Т.: "Янги аср авлоди", 2006. 94-б.

tushunib ham, tushuntirib ham bo'lmaydigan injiqroq ekanligini ro'y-rost aks ettira boshladi.

Umumta'lim maktablarining dastur va darsliklarida istiqlol davri adabiyotiga muayyan o'rinlar ajratilgan.

Umumta'lim dasturlarining 9-sinfi dasturida *“Mustaqillik davri adabiyoti”* mavzusiga 4 soat ajratiladi.

Unda XX asrning 90-yillardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot, O'zbekistonning Mustaqil davlat deb e'lon qilinishi, o'zbek adabiyoti tarixida mustaqillik davri adabiyoti degan yangi bosqichning boshlanishi haqida ma'lumotlar keltiriladi. SHu davr adabiyotining o'ziga xos tamoyillari, mavzular ko'lami, obrazlar olami tahlil etiladi. SHe'riyat, nasr va dramaturgiyada yangi tarixiy davr hayotining haqqoniy tasvir etila boshlashi, tarixiy mavzu va tarixiy shaxslar obraziga murojaat, tarixiy o'tmishning milliy istiqlol mafkurasi asosida o'rganilishi, sotsialistik realizm metodining o'z kuchini yo'qotishi haqida so'z boradi. Adabiyotda haqqoniylik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik g'oyalarining ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi, bu davr adabiyotida yangi badiiy izlanishlar haqida muxtasar holda ma'lumotlar beriladi.

Q.Yo'ldoshev, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekovlar tomonidan nashr etilgan 9-sinf *“Adabiyot”* darsligining 385-396 betlarida *“Mustaqillik davri adabiyoti”* mavzusi keltiriladi.⁵³ Unda Mustaqillik davri adabiyotining etakchi tamoyillari haqida so'z yuritiladi. SHe'riyat, nasr va dramaturgiya sohasida ro'y berayotgan yangilanishlar xususida ma'lumotlar beriladi. Istiqlol davrida yashab ijod etayotgan bir qator ijodkorlarning asarlariga muayyan darajada munosabatlar bildiriladi. Ushbu mavzuning *“Nasr”* qismida N.Eshonqul, X.Do'stmuhammad, L.Bo'rixon, S.Vafo singari bir qator adiblar bilan bir qatorda Omon Muxtor ijodi haqida ham so'z yuritiladi. YOzuvchining *“Ming bir qiyofa”*, *“Ko'zgu oldidagi odam”*, *“Tepalikdagi xaroba”*, *“Ffu”*, *“Ayollar saltanati va mamlakati”*,

53 Қараиғ: Ёўлдосшев Қ. ва б. Адабиёт. – Т.: Янги йўл полиграф сервис, 2006. 385-396-бетлар

“Maydon” romanlari tamomila yangicha usulda yaratilgan asarlarning namunalari sifatida tilga olinadi.

Akademik litseylarning 3-bosqichi dasturida Mustaqillik davri adabiyotiga 6 soat ma’ruza va 4 soat amaliy mashg’ulot darslari belgilangan.

Unda Mustaqillik davri romanlariga 2 soat ajratilgan. Mustaqillik davrida yaratilgan romanlar haqida ma’lumotlar beriladi.

“*Hozirgi adabiy jarayon*” mavzusida Mustaqillik davri adabiyotiga xos xususiyatlar, bu davrda adabiyotning hayot bilan aloqasi chuqurlashgani va zamonaviy mavzu hamda muammolarning adabiyotda aks etishi haqida so’z yuritiladi. Adabiy jarayonni tashkil etuvchi *ijodkor-badiiy asar-o’quvchi* munosabatlariga urg’u beriladi. Adabiyotda ijobiy va salbiy obrazlar emas, butun murakkabligi bilan inson obrazi turganiga e’tibor beriladi. Mustaqillik davri qissachiligi XX asr o’zbek adabiyotining xalqimizga xos qadimiy meros ekani tahlil etiladi. T.Murod qissalari. “*Ot kishnagan oqshom*”, “*Yulduzlar mangu yonadi*” qissalari o’rganiladi.

Ushbu dasturning “*Mustaqillik davri epik asarlari tahlili*” mavzusida SH.Xolmirzaev, O’.Hoshimov, Muhammad Ali, X.Do’stmuhammad, Tog’ay Murod singari adiblar bilan birga O.Muxtorning nasriy asarlariga ham o’rin ajratilgan.

Akademik litseylarning 3-bosqichi “Adabiyot” majmuasida “Mustaqillik davri adabiyoti” namunalari ham o’rin ajratilgan. O’.Umarbekov, SH.Xolmirzaev, O’.Hoshimov, T.Malik, T.Murod, M.M.Do’st, H.Sultonov, E.A’zam, SH.Bo’taev, N.Eshonqul singari ijodkorlar asarlari mustaqil o’qish uchun tavsiya qilingan.⁵⁴ Ammo Omon Muxtor romanlariga ushbu majmuada o’rin ajratilmagan.

Ko’rinadiki, Istiqlol davri adabiyoti uzluksiz ta’lim tizimida atroflicha o’rganilmoqda. Dastur va darsliklarda bu davr adabiyotining ayrim

54 Qarang: Адабиёт (Мажмуа) Академик лицейларнинг 3-босқич ўқувчилари учун. 2-нашри / Тузувчилар: Тўхлиев Б., Шермуродов Т., Исаева Ш. – Т.: Чўлпон номидаги нашриёти, 2010. 672-673-бетлар

namunalariga e'tibor berilgan.

Istardikki, kelajakda yaratiladigan dastur va darsliklarda Omon Muxtor romanlariga ham nisbatan kengroq o'rin ajratilsa yaxshi bo'lardi.

Amaldagi Davlat Ta'lim Standartlarida belgilangan va «Akademik litsey va kasb –hunar kollejlari uchun adabiyot fanidan o'quv dasturi»ida keltirilgan **«Mustaqillik davri adabiyoti»** mavzusiga 2-soat ajratilgan bo'lib, bu mavzuni to'liq va yuksak pedagogik mahorat bilan etkazishni nazarda tutgan holda biz uni quyidagi texnologik xarita asosida o'qitishni ma'qul deb hisoblaymiz.

«Mustaqillik davri adabiyoti» mavzusidagi darsning texnologik xaritasi.

Mavzu	«Mustaqillik davri adabiyoti»
Maqsad va vazifalar	Istiqlol davri o'zbek adabiyotining o'ziga xos qirralari. Jahon adabiyoti saboqlari, xalq ijodi va mumtoz adabiyotimiz ilg'or an'alaridan oziqlanish zamonaviy adabiyotni harakatga keltirib turuvchi omillar ekanligi. Badiiy ijodda voqelikni badiiy talqini va tasvirida yangi-yangi shakllarning yuzaga kelganligi. - o'quvchilarni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ma'naviy dunyoqarashlarini kengaytirish; - o'quvchilar qalbida ezgu insoniy fazilatlarni uyg'otish. - o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, kengaytirish; - mavzuga oid materiallarni, berilgan topshiriqlarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh tarzida, slaydlar, ko'rsatma qurollar vositasida qay darajada

	o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.
O'quv materiali mazmuni	Mustaqillik davri o'zbek she'riyatiga xos badiiy xususiyatlar. SHoiralar ijodida el-yurt go'zalligi, Vatan madhiga doir she'rlarning etakchi xususiyatlari. Sirojiddin Sayidning "Vatanni o'rganish" she'ri tahlili. Hozirgi o'zbek nasrida inson ma'naviyati sarhadlarini tasvirlashda yangicha qamrov, yangicha estetik hodisalarning maydonga kelishi. Istiqlol davr nasrida mavzu ko'lam, tasvir rang-barangligi. Abduqayum Yo'loshning "Puankare" hikoyasi tahlili. Hikoyada insonning orzu-umidlarining badiiy talqini.
O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi	SHakl: interfaol mashg'ulot: suhbat-ma'ruza, yakka va guruhlarda ishlash. Metod: "Aqliy hujum", matn bilan ishlash, savol-javob, fikr almashuvi Vosita: darslik, slaydlar, Sirojiddin Sayidning "Vatanni o'rganish" she'ri va Abduqayum Yo'loshning "Puankare" hikoyasi matni, kartochkalar, videoproektor. Usul: ifodali o'qish, bahs-munozara. Nazorat: kuzatish, nazorat savollari, nazorat mashqlari. Baholash: rag'batlantirish, o'z-o'zini baholash, ball tizimi.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: mavzuni barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. O'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otadi. O'quvchilar tomonidan mavzuni mustaqil o'rganish va uni xotirada saqlashga, boshqalarga etkazish, savol berish va savollarga javob berishga o'rgatadi. O'quvchi: yangi bilimlarni egallaydi. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotini o'rganish orqali o'quvchida ezgulik, iroda, jasorat kabi ahloqiy fazilatlar shakllanadi, ma'naviy barkamollik tushunchasi kengayadi.
Kelgusi rejalar	O'qituvchi: navbatdagi suhbat uchun mashg'ulot materiallarini qaytadan ko'rib chiqish, mashg'ulotni tahlil qilish, mavzuni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitish,

	mashg'ulot metodikasi va texnikasiga o'zgartirish kiritish, pedagogik texnologiya usullarini darsda tatbiq etishni takomillashtirish, pedagogik mahoratini oshirish, keyingi mashg'ulotni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish. O'quvchi: Sirojiddin Sayidning "Vatanni o'rganish" she'ri va Abduqayum Yo'loshning "Puankare" hikoyasini yana bir marotaba o'qib, ular yuzasidan taassurot yozish.
--	---

Mashg'ulot bosqichlari.

Bosqichlar	Mazmuni	Metodlar	Vaqt i
1-bosqich Tashkiliy qism	Salomlashuv. Mashg'ulotning borishi haqida tushuncha berish. O'quvchilardan bugungi adabiy nashrlar bo'yicha yangiliklarni olish.	og'zaki muloqot	3 daqiqa
2-bosqich	O'qituvchining slaydlar asosida kirish so'zi. Mashg'ulot mavzusi va mazmuni bo'yicha suhbat o'tkazish.	"Aqliy hujum", slaydlar ishtirokida	8 daqiqa
3-bosqich Mavzu bayoni	O'qituvchi istiqlool davri o'zbek adabiyotining o'ziga xos qirralari, jahon adabiyoti saboqlari, xalq ijodi va mumtoz adabiyotimiz ilg'or an'alaridan oziqlanish zamonaviy adabiyotni harakatga keltirib turuvchi omillar ekanligi, badiiy ijodda voqelikni badiiy talqini va tasvirida	savol-javob, matn bilan ishlash, guruhlar taqdimoti	20 daqiqa

	yangi-yangi shakllarning yuzaga kelganligi haqida suhbat-ma'ruzasi (slaydlar hamda savollar asosida), matn bilan ishlash, guruhlarda mustaqil ishni tashkil etish.		
4-bosqich Mustahkamlash	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimlari, tushunchalarini guruhlardagi faoliyatlari orqali aniqlash, bahs-munozara o'tkazish	Klaster, bahs-munozara	8 Daqiqa
5-bosqich Mashg'ulot yakuni mustaqil ish uchun topshiriq	Sirojiddin Sayidning "Vatanni o'rganish" she'ri va Abduqayum Yo'loshning "Puankare" hikoyasi tahlili.	fikr almashuvi	6 daqiqqa

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 1992. 46- б.
2. Ўзбекистон Республикаси «Таълим тўғрисида»ги Қонуни // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т., 1997. –Б. 20-29.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури». //Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т., 1997. –Б. 31-60.

Ijtimoiy – siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: «Ўзбекистон», 1992. –78 б.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 326 б.
3. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни, 1998. –32 б.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. 173-б.
5. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. –Т: Ўзбекистон , 2009.37-б.
6. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси “Халқ сўзи” газетаси. 2010 йил 13 ноябрь, № 220 (5135).
7. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси “Халқ сўзи” газетаси. 2010 йил 13 ноябрь, № 220 (5135).

8. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2012. 425-б.

Darslik va o'quv qo'llanmalar:

1. Валихўжаев В. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X - XIX асрлар. - Т.: Ўзбекистон, 1993. 191- б.
2. Ислон тасаввуфи манбалари (Тасаввуф назарияси ва тарихи). Илмий мажмуа // Тузувчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев - Т.: Ўқитувчи, 2005. 399-б.
3. Каримов Н, Мамажонов С, Назаров Б, Норматов У, Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1999. 543- б.
4. Каримов Н. XX аср адабиёти мнзаралари. – Т.: Ўзбекистон, 2008. 533- б.
5. Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти. – Т.: Янги нашр, 2010. 363- б.
6. Кароматов Ҳ. Қуръон ва ўзбек адабиёти. - Т.: Фан, 1993. 96-б.
7. Комилов Н. Тасаввуф. К.1. – Т.: Ёзувчи, 1996. 272-б.
8. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннаҳр -Ўзбекистон, 2009. 300-б.
9. Назаров Б., Расулов А., Аҳмедова Ш., Қаҳрамонов Қ. Ўзбек адабий танқиди тарихи. – Т.: Тафаккур қаноти, 2012. 535- б.
10. Олим С., Аҳмедов С., Қўчқор Р. Адабиёт. умумий ўрта таълим мактабларининг 8-синфи учун дарслик-мажмуа. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2010. – Б. 113-127
11. Орзибеков Р. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. – 271 б.
12. Салаев Ф., Қурбониезов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. 331-б.
13. Тўхлиев Б., Мирсамиқова Р., Аметова О. Адабиёт (мажмуа) Академик лицейларнинг иккинчи босқич ўқувчилари учун. – Т.: Чўлпон, 2010. 429-б.
14. Қосимов Б, Юсупов Ш, Долимов У, Ризаев Ш, Аҳмедов С. МИллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият, 2004. 461- б.

15. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. 397-б.
16. Куръони Карим. Ўзбекча изохли таржима / Тарж. Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992. 496- б.

To‘plam, risola va maqolalar:

1. Абдулхамидов А. Фольклор ва миллий роман // Ўрта Осиё ва Қозоғистон халқлари адабиётдаги роман жанрини типологик ўрганиш. – Тошкент: Фан, 1991. –272 б.
2. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик. Ж.2. – Т.: Фан, 1992. 246-б.
3. Анастасьев Н.А. Обновление традиции. Реализм XX века в противоборстве с модернизмом.–М.: Советской Писатель, 1984. 430 стр.
4. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. – Т.: Янги аср авлоди, 2004. 196- б.
5. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ ус-саноеъ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. 398-б.
6. Бахтин М.Эстетика словесного творчества.–М.:Искусство,1986.–444 стр.
7. Болтабаев Ҳ. Наср ва услуб. –Тошкент: Фан, 1992. –105 б.
8. Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз кадри. Адабий-илмий мақолалар. – Т.: Адолат, 2004. 191-б.
9. Болтабаев Ҳ. Шартлилик табиати ҳақида// «Ўзбек тили ва адабиёти», 1981. №5.
10. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. –560 б.
11. Боров Ю. Теория литературы.(Лит–ный процесс). –М.: 2001.-370стр.
12. Вульф В. Современная художественная проза. В сб. Писатели Англии о литературе. –М.: Прогресс, 1982. –475 стр.
13. Гассет Х. О. Дегуманизация искусства. –М.: Радуга, 1991. –639 стр.
14. Гегель В.Ф. Эстетика. –М.: Искусство, Т.3. 1973. –537 стр.
15. Генезис романа в литературах Азии и Африки. Национальные истоки

жанра. –М.: Наука, 1980. –288 стр.

16. Генис А. XX асрнинг етакчи услуби//Жаҳон адабиёти.-2001.-№11. – 155-163 б.
17. Дониёрова Ш. Омон Мухтор ижодида фольклор анъаналари. // Ўзбек тили ва адабиёти журнали. –Тошкент, 2001. №5.
18. Ёқубов Ҳ. Сайланма (Адабий-танқидий мақолалар) 2-жилдлик. 1-жилд. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. –185 б.
19. Ёқубов Ҳ. Ўзбек прозасида услуб ранг-баранглиги // Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. –Тошкент, 1983. –208 б.
20. Ёқубов И., Пирназарова М. Адабий мистификация бадиий восита сифатида//Илм сарчашмалари (УрДУ ахборотномаси), 2001, №4.
21. Ёқубов И. Роман фаол жанр сифатида//Илм сарчашмалари . 2001, 1-сон, Б: 38-40.
22. Ёқубов И. Руҳ ва фикр эркинлиги//Илм сарчашмалари . 2002, 4-сон, Б: 54-56
23. Ёқубов И. Воқелик қамрови ва роман идроки. Гулистон ДУ Ахборотномаси, 2004,1-сон, Б: 59-61
24. Ёқубов И. Романий тафаккур ва услуб жилоси//Илм сарчашмалари . 2004, 5-сон, Б: 79-81
25. Ёқубов И. Қаҳрамон қисмати ифодасида мифологик модел//Тил ва адабиёт таълими. 2005., 5-сон, Б: 42-47
26. Ёқубов И. Роман тўқимасида аналитик фольклоризмлар//Илм сарчашмалари . 2005, 1-сон, Б: 37-38
27. Ёқубов И. “Ишқ аҳли” романининг адабий – фалсафий концепцияси// Ўзбек тили ва адабиёти . 2005, 6-сон, Б: 41-47
28. Ёқубов И. Етакчи поэтик тамойил//Тил ва адабиёт таълими.2005, 5-сон, Б: 40-47
29. Ёқубов И. Оламни ва ўзликни англаш//ЎЗМУ Ахборотномаси, 2007,1-сон, Б: 45-50
30. Ёқубов И. Бадиий-эстетик сўз қудрати//Тил ва адабиёт таълими. 2008

йил, 3-сон, Б: 12-22

31. Ёқубов И. Тарихий ҳақиқат ва бадиий талқин//Ўзбек тили ва адабиёти, 2008 йил 4-сон, Б: 30-38

32. Ёқубов И. Роман композицияси: рамзий-мажозий тасвир – етакчи поэтик тамойил//ЎзМУ ёш тадқиқотчилари илмий ишлари, 2004, Б: 192-197

33. Ёқубов И. Омон Мухтор насрида миллий-адабий анъаналарнинг ўрни. (ҳаммуаллиф Манзура Пирназарова)//Филологик тадқиқотлар, 2001, Б: 46-50

34. Ёқубов И. Мадакдор рух//Бадиий тафаккур ва адабий жараён, Тошкент, 2003, 1-сон, Б: 11-14

35. Ёқубов И. Роман стилистикасида сажъ усули//Бадиий тафаккур ва адабий жараён, Тошкент, 2003, 2-сон, Б: 17-20

36. Ёқубов И. Туташ томирлар: поэтик ижод имкониятлари//Бадиий тафаккур ва адабий жараён, Тошкент, 2004, 3-сон, Б: 41-44

37. Ёқубов И. Абдулла Қодирий ва ҳозирги ўзбек романи поэтикаси//Бадиий тафаккур ва адабий жараён, Тошкент, 2004, 4-сон, Б: 12-17

38. Ёқубов И. Роман нурларида шуълаланган олам//Бадиий тафаккур ва адабий жараён, Тошкент, 2005, 5-сон, Б: 21-26

39. Ёқубов И. Бугунги ўзбек романчилиги//Китоб дунёси, 2007 йил август

40. Ёқубов И. Сўз қудрати//Китоб дунёси, 2008 йил апрель., № 4 (89)

41. Ёқубов И. Мувозанат эҳтиёжи ва изтироби. (романга сўнгсўз).,

42. Ёрматов И. Стилизация характеридаги фольклоризмлар//«Ўзбек тили ва адабиёти», 1984, №3.

43. Ёрматов И. Ҳозирги ўзбек лирикасидаги синтезлашган фольклоризмлар хусусида// «Ўзбек тили ва адабиёти», 1985, №2.

43. Жўраев М. Ўзбек халқ эртақларида “сеҳрли” рақамлар. –Тошкент, 1991. –153 б.

44. Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналари. –Тошкент: Фан, 1995. – 108 б.

45. Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб

- фольклори. –Тошкент: Фан, 2001. –136 б.
46. Жўшон М.А. Тасаввуф ва нафс тарбияси. –Тошкент, 2001. –96 б.
47. Затанский Д.В. Искусство романа и XX век. –М.: Наука, 1982.-118 стр.
48. Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. –Тошкент: Фан, 1981. –103 б.
49. Йўлдошев Қ. Ўзбек модерн адабиёти: илдизлар, принциплар ва хусусиятлар//Филология масалалари. 2004 йил, № 2-3. –4 б.
50. Каттабеков А Тарих сабоқлари. –Тошкент,1986. –95 б.
51. Каттабеков А. Тарихий ҳақиқат ва бадий маҳорат. –Тошкент, 1982. –128 б.
52. Каримов Н. Илҳом чашмасининг ажиб мавжлари. –Тошкент: Фан, 1982. –56 б.
53. Каскабасов С.А. Казахская волшебная сказка. –Алма-Ата, 1990. –260 стр.
54. Мирвалиев С. Роман ва замон. –Тошкент: Фан, 1983. –56 б.
55. Мирзаев И. Давр руҳи ва адабий жараён. –Самарқанд, 1997. –115 б.
56. Мирзаев И. Бадий услуб сеҳри. –Самарқанд, 2000. –106 б.
57. Мўминов Ғ. Прозамиз тараққиётида фольклорнинг роли// Ўзбек тили ва адабиёти, 1978, №2.
58. Муҳаммад Нуриллоҳ Сайдо Ал-Жазарий. Тасаввуф сирлари. 1-китоб. –Тошкент: Моварауннаҳр, 2000. –100 б.
59. Мўминов Ғ. Ҳозирги ўзбек прозасида бадий изланишлар //Ҳозирги ўзбек адабиётининг миллий ўзига хослиги. –Тошкент, 1984. –199 б.
60. Назаров Б. Бу сеҳрли дунё.–Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. –173 б.
61. Назаров Б. Ҳаётининг безавол мезон.– Тошкент, 1985. –224 б.
62. Назаров Б. Ғафур Ғулом олами. –Тошкент: Фан, 2004. –180 б.
63. Ничев Б. Современный болгарский роман. –М.: Радуга, 1983. –351 стр.
64. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. –112 б.
65. Носиров Ў. Ижодкор, шахс, бадий услуб, автор образи. – Тошкент: Фан, 1981. –198 б.

66. Пардаева З. Бадий-эстетик тафаккур ривож ва ўзбек романчилиги. –Тошкент: Янги авлод, 2002. –100 б.
67. Рабғўзий. Қиссаси Рабғўзий. 1-китоб. –Тошкент, 1990. –240 б.
68. Саримсоқов Б. Фольклор ва адабиёт муносабатларидаги акс жараёнини ҳозирги аҳволи // «Ўзбек тили ва адабиёти», 1988, №6.
69. Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. –Тошкент: Фан, 1981. –67-83 б.
70. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. –Тошкент, 2004. –127 б.
71. Современный роман. Опыт исследования. –М.: Наука, 1990. –285 стр.
72. Солижонов Й. Нутқ ва услуб. –Тошкент: Чўлпон, 2002. –128 б.
73. Султонов И. Адабиёт назарияси. –Тошкент, 1980. –391 б.
74. Умунов Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романи. –Тошкент, 1983. –148 б.
75. Умунов Х. Бадий ижод асослари. –Тошкент, 2001. –119 б.
76. Услугуносликнинг долзарб муаммолари // Халқаро илмий анжуман материаллари. 1998 йил, 9-10 декабр). –Самарқанд, 1999. –286 б.
77. Фрейд З. Психология бессознательного. Сборник произведений. –М.: Просвещение, 1989. –448 стр.
78. Фрейд З. Введение в психоанализ. В 4-х томах. –М.: 2000. –354 стр.
79. Шарафиддинов О. Довондаги ўйлар. –Тошкент: Маънавият, 2004. –581 б.
80. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. –Тошкент: Шарқ, 2004. –637 б.
81. Эйхенбаум Б. О прозе. О поэзии // Художественная литература. –М.: 1986. –476 стр.
82. Эпштейн М. Парадоксы новизны. О литературном развитии XIX –XX веков. –М.: Сов. Писатель. 1988. –416 стр.
83. Юлдашев С. Антиқ фалсафа. –Тошкент, 1999. –125 б.
84. Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги.

–Тошкент: Фан, 1983. –204 б.

85. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Тошкент: Шарқ НМК, 2004. –288 б.

86. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент., “Академнашр”., 2010. – 397 б.

87. Ҳотамов Н. Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983. –376 б.

Dissertatsiya avtoreferatlari:

1. Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси. Филол.фанлари д-ри... дисс.автореф. –Тошкент: 1993, 42-б.

2. Каримов Ҳ. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар). Филол.фанлари д-ри... дисс.автореф. –Тошкент: 1994, 43-б

3. Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадиий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60-80-йиллар). Филол.фанлари д-ри... дисс.автореф. – Тошкент: 1994, 43-б.

4. Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси. Филол.фанлари д-ри... дисс.автореф. –Тошкент: 2002, 42-б.

5. Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг тараққиёт тамойиллари. Филол.фанлари д-ри... дисс.автореф. –Тошкент: 2003, 43-б.

6. Ёрматов И. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси поэтикаси. Филол. фанл. доктори дисс...автореф. –Тошкент, 1994, 40-б.

7. Мўминов Ғ. Ҳозирги ўзбек адабиётида фольклоризм. Филол. фанл. доктори дисс..автореф. –Тошкент, 1994, 42-б.

8. Раҳимов З.А. Одил Ёқубовнинг «Кўхна дунё» романи поэтикаси. Филол. фанл. номзоди дисс... автореф. –Тошкент, 2000, 22- б.

Badiiy adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. Ж.7. – Т.: Фан, 1991. 392-б.

2. Мухторов О. Аёллар мамлакати ва салтанати. Роман, Шарқ НМК Бош таҳририяти, –Тошкент: 1997. – 238 б.

3. Мухторов О. Йиллар шамоли. Роман, Қаранг: Бухоролик бир йигит. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – 302 б.
4. Мухторов О. Афлотун. Роман., –Тошкент: Маънавият, 1998. –192 б.
5. Мухтор О. Тўрт томон қибла. Роман трилогия., –Тошкент: Шарқ НМК Бош таҳририяти, 2000. –429 б.
6. Мухторов О. Навоий ва рассом Абулхайр. Роман дилогия. –Тошкент: Шарқ НМАК Бош таҳририяти, 2006. –223 б.
7. Мухтор О. Хотин подшоҳ. Роман., –Тошкент: Шарқ НМАК Бош таҳририяти, 2010. –461 б.
8. Мухторов О. Шерлок Холмс Бухорода. Қиссалар., –Тошкент: Давр Пресс, 2008., 255 б.
9. Мухторов О. Узун йўлакдаги икки киши. Адабий манзаралар, ҳикоятлар, Дафтардан варақлар. –Тошкент: Ўзбекистон НМИУ , 2011., – 357 б.

Internet saytlari:

1. www.ziyouz.com
2. www.kutubxona.com
3. www.ijod.uz
4. www.adabiyot.uz
5. www.pdfactory.com

Mavzuga oid o‘zbekcha – inglizcha lug‘at

she’riyat – poetry
shoir - poet
shoira – poetess
shoirona – poetic
metod – method
nasriy – prose
she’riy nutq – poetic speech
tarix – history
nazariya – theory
olim – scientist
ruhiy – mental
janr – genre
lirika – lyrics
falsafiy lirik – philosophical and lyrical
manba – source
absurd- nonsense
adabiy til – literary language
anafora – anaphora
antiteza – antithesis
badiiy uslub – artistic style
badiiy matn - artistic text
genetic, shajaraviy – genetic
germenebtika – hermeneutics
dialog – dialogic
kinoya – the irony
kontrast – contrastive
ko’chim – trails
majoz – allegory
mazmun – content
mantiqiy – logical
matal – proverb
matn – text
matniy ma’no – contextual meaning
mezon – criteria

metateza – metathesis
 metafora – metaphor
 metonimiya – metonymy
 murojaat-apostrophizel
 publitsistik uslub – journalistic style
 struktura – structure
 subekt-subject
 tema-theme
 emotsional, hissiy – emotionality
 so'z o'yini- a play on words
 qalandar – wandering, dervish, hermit
 avliyo – holy, saint, sacred
 avlod –descendant
 doston – poem, epic poem
 nafs- passion, desire
 diniy – religious
 takror – iteration
 hajviy – ironical
 epitet – epithet
 oshiqona – amorous, loving
 oshiq – in love
 ma'shuqa – sweetheart,ladylove
 ishq – love
 ishqiy – amorous, loving
 tashbeh – rosary, beads
 darvesh - dervish
 tema-theme
 emotsional, hissiy – emotionality
 so'z o'yini- a play on words
 takror – iteration
 hajviy – ironical
 adabiyotshunoslik – history of literature
 adabiyotshunos – speicialist in literature
 asar - work
 badiiy – artistic
 bayt - distich
 mubolag'a -exaggeration
 tanqid – criticism
 tanqidchi – critic
 tahlil – analysis
 ohang – tune, melody
 qahramon- hero
 she'r - poem
 she'riy – poetic

she'riy asarlar – poetic writings